

YANGI MATERIALLAR

TOSHKENT


438
620(075)
9 61

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

YANGI MATERIALLAR

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining
muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan*



TOSHKENT – 2015

UO'K: 620.17 (075)

KBK 30.3

Y-61

Y-61 Yangi materiallar. –T.: «Fan va texnologiya», 2015, -144 b.

ISBN 978–9943–983–90–8

«Yangi materiallar» o'quv qo'llanmasi oliy o'quv yurtlarining magistrantlari va materialshunoslik hamda nanotexnologiyalar sohasidagi tadqiqotchilar uchun mo'ljalangan. O'quv qo'llanmada nanotexnologiya to'g'risida umumiy tushunchalar, nanostrukturalarning xususiyatlari, nanomateriallarning xossalari, nanomateriallarning olish texnologiyasi, nanomaterialarni tadqiqot qilishning asosiy usullari, o'ta yengil metallar asosidagi qotishmalar, kompozitsion materiallar keltirilgan. O'quv qo'llanmada keramikaning turlari, maxsus xossalni qotishmalar va ularni qo'llash sohasi keng yoritilgan.

Учебное пособие «Новые материалы» предназначено для магистрантов высших учебных заведений и исследователей в области материаловедения и нанотехнологий. В учебном пособии представлены общие понятия о нанотехнологии, рассмотрены особенностиnanoструктуры, свойства наноматериалов, технология получения наноматериалов, современные методы их исследования, сверхлёгкие металлы и сплавы на их основе, композиционные материалы, сверхчистые и сверхтвердые материалы. В учебном пособии подробно освещены различные виды керамики, сплавы с особыми свойствами и область их применения.

The tutorial «New materials» is for masters of the higher education and researchers in the sphere of material science and nanotechnology. General concepts of nontechnology are presented. The peculiarities of nanostructures, the properties of nanomaterial, and technologies of nanomaterial production, modern methods of their investigation, superlight metals andalloys on their basis, composite materials, superpure and superhard materialsare examined. In the tutorial different types of ceramics, alloys with special properties and the sphere of their application are illuminated in details.

UO'K: 620.17 (075)

KBK 30.3

Mualliflar:

Q.K. Qodirbekova, R.X. Saydaxmedov, G.A. Yuldasheva, Q.G. Baxadirov.

Taqrizchilar:

F.S. Abdullayev – t.f.d., professor;

I.N. Gagiyev – Toshkent mexanika zavodining bosh texnolog'i.

ISBN 978–9943–983–90–8

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2015;

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.

KIRISH

Yangi materiallar va ularni olish texnologiyasini yaratish jamiyatni texnik va ijtimoiy rivojlanishining obyektiv zaruriyatidir. XXI asrda yangi o'ta mustahkam, yengil, atrof-muhit ta'siriga chidamli materiallarni yaratish o'ta muhim. «Yangi materiallarni» XXI asr materiallari deb qarash qabul qilingan. Yangi materiallarning o'rni yildan-yilga oshib bormoqda. Amerikalik ekspertlarning fikricha, yaqin 20 yillar ichida (2025 yilgacha) 90% hozirgi mavjud materiallar yangisi bilan almashtiriladi. Bu esa hamma sohalarda texnik revolyutsiyaga olib keladi.

Nashr etilgan ma'lumotlarga asosan, hozirda eng tez rivojlanayotgan fan sohalarini tibbiyot-biologik tadqiqotlar, undan keyin axborot texnologiyalari va uchinchi o'rinni yangi materiallar egallaydi.

Ma'lumotlarga qaraganda dunyo bozoridagi nanotexnologiya mahsulotlari 2012 - 2015 yillarda Amerika Qo'shma Shtatlarining nanotexnologiyalar sohasidagi tadqiqotlarga sarf etgan harajatlari kosmik tadqiqotlar va mudofaaga sarflangan harajatlaridan 150 milliard dollardan oshib ketib, yaqin kelajakda 2 mln. ish joyili 15 mlrd. oborotga ega yangi sanoat tarmog'ini yaratadi. Nanotexnologiyalar sohasidagi AQSHning milliy siyosatni koordinatsiyalash Byurosining direktori Kleyton Tig ta'kidlaganidek, hozirgi kunda AQSH har yili davlat mablag'didan nanotexnologiya loyihamilarini rivojlantirish uchun 1,5 mlrd. dollar ajratmoqda. AQSHning eks-ministri Rodni Sleyterni aytishicha, 2015 yilda nanotexnologiyalar bozoridagi oborot 2 trln. dollardan oshadi [1].


Buyuk Britaniyaning savdo vazirligining bashoratiga qaraganda nanotexnologiyalar sohasidagi natijalarning samaradorligi 2015 yilda 1trln. \$/yiliga va bu sohada ish yuritayotgan mutahassislar soni 2 mln. kishini tashkil qiladi [2].

Yaponiyada 1999 yildan beri davlat tomonidan oliv darajada baholangan – «Ogato» «Nanotexnologiya bo'yicha ishlarni milliy rejasi» loyiha bajarilib kelmoqda. Bu loyiha davlat va 60 ta shaxsiy firmalar tomonidan moddiy ta'minlanmoqda.

Xitoya 2001-2005 yillarda bajariladigan tadqiqotlar uchun 300 mln. dollar ajratildi. Yevropada davlatlar va xalqaro tashkilotlar (nanotexnologiyalar sohasidagi NATOning programmasi) 40 laboratoriya bo'yicha tadqiqotlar va ishlamalar bajarilmoqda [3].

«Rosnanotex» DK bosh direktori L.Melamedning aytishicha, Rossiya bu sohadagi izlanishlar uchun 5,5 mlrd. dollar ajratdi [4].

2010 yilda nanotexnologiya mahsulotlarining hajmi 800 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. 10-15 yildan so'ng (2002 yilga nisbatan) nanotexnologiya mahsuloti 2 trln. AQSH dollarini tashkil etadi, shundan 340 mlrd. dollari yangi materiallarga to'g'ri keladi. Bundan kelib chiqgan holda shuni aytish mumkinki, rivojlangan davlatlarda (AQSH, Yaponiya, Rossiya, Yevropa davlatlari) nanotexnologiyaga ajratiladigan mablag'lar hajmi oshib bormoqda (1.1-rasm).



1.1-rasm. Dunyo mamlakatlarda nanotexnologiya sohasidagi sarf-xarajatlar hajmi, billion AQSH\$.

Nanotexnologiya, yangi materiallarni olish bo'yicha dunyoning ko'p ta'lim muassasalarida yo'nalishlar va fanlar mavjud. O'quv qo'llanmada nanostrukturalar xususiyatlarining xarakteristikalari,

nanomateriallarning turli xil kimyoviy, fizik, mexanik va boshqa xossalari, o'lchamlar effekti hodisasi tahlili, nanomateriallarni olishning asosiy usullari, va ularni hozirda va kelajakda qo'llanilish sohalari ko'rsatilgan.

Yangi materiallarni nanotexnologiyalar asosida olinadigan nanomaterialsiz tasavvur qilish qiyin. Nanomateriallarni an'anaviy usullarda olib bo'lmaydi.

I BOB. NANOTEXNOLOGIYA TO‘G‘RISIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

1.1. Nanotexnologiya va nanomateriallar haqida ma'lumotlar

«Nanotexnologiya» iborasi birinchi marta yapon olimi K. Taniguchi tomonidan 1974 yilda mo‘rt materiallarni ishlash muammosini muhokama qilishda ishlatalgan. Kichik o‘lchamli obyektlarning ahamiyati Nobel mukofoti laureati R.Feynman tomonidan 1959 yilda ta’kidlab o‘tildi [5]. R.Feynman o‘zining «Pastda juda ko‘p joy bor: yangi fizika dunyosiga taklif» nomli ma’ruzasida axborotlarni siqish, juda kichik kompyuterlarni yaratish, biologik obyektlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda molekulalar bosqichida qurilmalar yasashga diqqat e’tiborni qaratishni aytib o‘tgan edi.

Ko‘p umidlar kimyoviy sintezga qaratilgan bo‘lib, fizika qonunlari atom – molekula bosqichida yangi materiallar yaratishga to‘sinqilik qilmaydi.

Feymanning ba’zi bir g‘oyalarini E.Dreksler (AQSH, Massachuset texnologik instituti) rivojlantirdi. Uning 1986 yili «Yaratuvchi mashinalar: nanotexnologiya davriga kirish» nomli kitobi bosmadan chiqdi. Muallif biologik modellarga asoslanib molekulyar robototexnik mashina to‘g‘risida tushuncha kiritdi. «Yuqoridan-pastga» (maydalashga tipik misol) an‘anaviy texnologik yondoshishga qarama-qarshi qilib «Pastdan-yuqoriga» (atom va molekulalar darajasida yig‘ish) iborasini ilgari surdi.

1990 yilda IBM kompaniyasida skaner tunnel mikroskop yordamida IBM ning abbreviaturasini nikel monokristalining (110) qirrasida 35 ksenon atomi yordamida yig‘ildi. Bu bilan atom arxitekturasi imkoniyatlari yaqqol darajada ko‘rsatib berildi.

Bir vaqt ni o‘zida nanomateriallar konsepsiysi ham rivojlanib bordi. Birinchi marta G. Gleyter (1981 yil) umumiyl konsepsiyanı metallarga nisbatan tavsiflab berdi; u «nanokristall» materiallar terminini qo‘lladi. Keyinchalik «nanostruktura», «nanofaza», «nanokompozitsiya» terminlari ishlatala boshlandi. Bu konsepsiya ga

asosan asosiy rol yuza bo‘limlariga (donachalar chegarasiga) ahamiyat qaratildi, chunki bu faktor qattiq jismlarning hossalarini jiddiy ravishda o‘zgartirishga olib keladi. Bu konsepsiya asosan qattiq jism strukturasi va elektron tuzilishi modifikatsiya (o‘zgartiriladi) qilinadi, shuningdek kimyoviy elementlar orqali legirlashga ham asosiy o‘rin ajratilgan.

Shuningdek, G.Gleyter nanomateriallarni ultradispers zarracha-larni yig‘ish orqali hosil qilish bo‘yicha taklif berdi. Ultradispers poroshoklar vakuum kamerasida bug‘lantirib olinib, keyin bir butun jipslashtiriladi. Bu usulda diametri 10-20 mm va qalinligi 0,1-0,5 mm gacha bo‘lgan namunalar olindi.


G. Gleyter taklif etgan usul ko‘p davlatlarda qo‘llanilib, nanomateriallarning xossalari haqida turli xil ma’lumotlar tez yig‘ila boshlandi. Rossiyada (u davrda Sovet Ittifoqi) ushbu yo‘nalishdagi birinchi ish 1983 yilda nashr etildi. V.N.Lapkov va L.I.Trusov rahbarligi ostida nikelning ultradispers kukuni yuqori bosim ostida jipslashtirildi. Bu nanokristall namunaning qattiqligi oddiy polikristall nikelning qattiqligidan ikki baravar ortiq edi.

1985 yilda Richard Smelli, Robert Kerl va Garold Kroto fullerenlarni kashf etishdi va birinchi bo‘lib 1nm o‘lchamdagagi obyektni o‘lhash imkoniga ega bo‘lishdi (1.2-rasm). 1986 yilda ular Nobel mukofoti sovrindorlari bo‘lishdi.


Fullerenlar – uglerodni allotropik shakillarini berk ko‘p qirrali molekulyar birikmasi (1.3, a-rasm.). Fulleren molekulasi uglerodning 60 atomidan tashkil topgan. C₆₀ diametri 1 nm ga teng.

Uglerod nanonaychalari-diametric, birdan bir necha o‘n nanometrgacha uzunligi bir necha santimetrgacha bo‘lgan silindrsimon struktura b o‘lib odatda yarim sfera shaklli kallak bilan yakunlanadi (1.3b.)

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, kichik o‘lchamli obyektrilarni (kukunlar, kolloidlar, katalizatorlar, seolitlar, pigmentlar, qoplamlar, klasterlar va boshqalar) va kvant o‘lchami oraligidagi hodisalarini o‘rganish «nanobum» boshlangunga qadar ancha oldin boshlangan edi. ([6,7,8 - 10, 16 – 18 larga qarang]).



1.2-rasm. Richard Smelli, Robert Kerl va Garold Krotolar kashf etgan fullerenlar.



1.3-rasm. Uglerod S60 ning fullereni (a), uglerod nanonaychalarini (b).

Shuningdek, arxeologik qazilmalar shundan dalolat beradiki, kolloid sistemalarni tayyorlash retseptini antik dunyo davridayoq bilishgan. Masalan, «Xitoy siyohi» toʻrt ming yil avval Qadimgi

Misrda paydo bo‘lgan. Biologik nanoobyeektlarning yoshi yerda hayot boshlanishi davridan hisoblanadi.

Nanoobyeektlarning ilmiy tadqiqoti XIX asrda boshlanadi. M. Faradey (1856-1857 yy.) yuqori dispersli oltin asosli kolloid eritma va yupqa qoplamani hosil qiladi va uning hossalarini o‘rganadi.

M. Faradey tomonidan rangni zarrachalar o‘lchamiga bog‘liq ravishda o‘zgarishi tadqiqoti nanoobyeektlar o‘lchamlari ta’sirining birinchi misoli deb qarasa bo‘ladi. Oxirgi paytlarda nanoobyeektlarni o‘rganishga keng qiziqish, avvalambor uch jihat bilan bog‘liq:

Birinchidan, nanotexnologiya usullari, xarakteristikalari hozirgi darajadan ancha ustun bo‘lgan prinsipial yangi qurilma va materiallar olish imkonini yaratadi. Bu esa ko‘p sohalarni, chunonchi texnika, biotexnologiya, meditsina, atrof muhitni himoya qilish, mudofaa va boshqalarni jadal rivojlantirishga olib keladi.

Ikkinchidan, nanotexnologiya fizika, kimyo, materialshunoslik, biologiya, tibbiyat, texnologiya, Yer haqidagi fan, kompyuter texnikasi, iqtisodiyot, jamiyatshunoslik va boshqa soha mutaxassislarini birlashtiruvchi juda keng fanlararo yo‘nalish.

Uchinchidan, nanotexnologiya muammolarini hal qilinishi bilan, fundamental va texnologik bilimlarga aniqlik kiritish kerakligi ma’lum bo‘ldi va ilmiy-injener jamoa diqqatini ushbu yo‘nalishga jalb qilishga olib keldi.

Dunyoning ko‘p davlatlarida (AQSH, Yevropa, Yaponiya, Xitoy, Rossiya va boshqalar) nanotexnologiya tadqiqotlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha ilmiy dasturlar qabul qilingan. Kadrlar tayyorlashga ham katta e’tibor berilmoqda, jumladan ba’zi bir yo‘nalishlarda nanotexnologiya asoslari bo‘yicha fanlar kiritilgan.

Quyida nanotexnologiyaning bir nechta muhim yo‘nalishlari keltirildi:

- berilgan xossalari material va moddalarni molekulyar darajada konstrukturlash va kerakli shakl berish. Bu material va moddalarning xossalari o‘zlarining hozirgi analoglarining xossalardan bir necha barobar ustun bo‘ladi;

- yuqori unumidorlikga va kam energiya sarf qiladigan nanoprotsessorlar yaratish;

- kichik o‘lchamli va katta (multiterabit) xotira hajmiga ega bo‘lgan eslab qoluvchi qurilmalar yaratish;

- yangi dori prepartlari va ularni organizmga yuborish usullari (o'ta kichik doza va ularni kerakli joyga yetkazish muammosi);
 - nanosensorlarni qo'llagan holda atrof muhitni va inson organizmmini monitoring qilishning yangi usullari.

Ma'lumotlarga qaraganda dunyo bozoridagi nanotexnologiya mahsulotlari 2002 yilda 300 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. Prognozlarga qaraganda 10-15 yildan keyin (2002 yilga nisbatan) bir yillik nanotexnologiya mahsuloti 1 trln AQSH dollarin, shuning 340 mlrd. dollari yangi materiallarga to'g'ri keladi, qachonki bu materiallarni an'anaviy usul bilan olib bo'lmaydi; 300 mlrd dollar yarim o'tkazgichlar sanoatiga; 180 mlrd. dollar farmatsevtika sohasiga; 100 mlrd. dollar katalizatorlar va neftkimyo sanoatiga; 100 mlrd dollar atrof muhitni himoya qilish va energiya resurslarni saqlash; 70 mlrd dollar transport sohasiga to'g'ri keladi.

1.2. Nanomateriallarning turlari

Nanomateriallar va nanostrukturalarning texnologiyasi, tuzilishi, xossalari va qo'llanilishi bir necha monografiyalarda (qarang, masalan [5-7, 11-13, 16, 18, 21]) ifoda etilgan. Ammo bu monografiyalarda alohida olingan nanomateriallar to'g'risida ma'lumot berilgan, nanostruktura materialshunosligi to'liq ifoda etilmagan. Shuningdek Respublikada nanomateriallar (yangi materiallar) bo'yicha o'quv qo'llanma, darslik chop etilmagan. Shuni hisobga olgan holda mualliflar ushbu yo'nalishdagi bo'shliqni to'ldirish maqsadida shu ishga qo'l urdilar.

Nanomateriallar orasida bir nechta asosiy turlarni ajratish mumkin: konsolidatsiya (birlashtirilgan) nanomateriallar, nanoyarim-o'tkazgichlar, nanopolimerlar, nanobiomateriallar, fullerenlar va tubulyar nanostrukturalar, katalizatorlar, nanog'ovak materiallar va supramolekulyar strukturalar.

Bu bo'linish shartli, chunki, masalan, gibrild metallopolimer yoki biopolimer nanokompozitlar ham mavjud. Shu bilan birga nanomateriallar sinfiga yangi (masalan, nanotrubkasimon materiallarga faqatgina 20 yil) va ancha eski obyektlar (masalan, katalizatorlar va nanog'ovak materiallar) ham kiradi.

Konsolidatsiya (birlashtirilgan) nanomateriallarga kompakt materiallar, metall asosli yupqa pardasi (plyonka) va qoplamlalar (pokritiye), kukun texnologiyasi usullari bilan olinadigan birikma va

qotishmalar, shuningdek intensiv plastik deformatsiya, amorf hola-tidan nazorat qilish orqali kristallanish va yupqa parda va qoplama-larni turli xil usullar yordamida olinadigan nanomateriallar kiradi.

Bu materialarning nanodonachalari (nanokristallar) alohida joy-lashgan yoki bo'sh bog'langan (masalan, himoyalovchi polimer qobig'i nanozarrachalar) ko'rinishda bo'lmasdan, aksincha konsoli-datsiya (birikgan) holatda bo'ladi. Donachalar orasidagi yupqa qatlam mustahkamligi birikgan nanomateriallardan ancha yuqori.

Nanoyarim o'tkazgichlar, nanopolimerlar va nanobiomateriallar ayrim holda va qisman birikgan holda bo'lishi mumkin, shuningdek gibrild (aralash) materiallar ham hosil qiladi.

1985 yildan boshlab uglerod yangi allotropik shakli – C₆₀ va C₇₀ identifikasiya qilingandan so'ng fullerenlar va tubulyar nanostrukturalar ko'p sonli tadqiqotlarga sabab bo'ldi. C₆₀ va C₇₀ klasterlari fullerenlar deb ataldi (Nobel mukofoti laureatlari N.Kroto, R.Kerlu va R.Smollilarning ishlari). 1991 yilda yapon olimi S.Ishima grafitni elektr yoy yordamida bug'lantirilgan mahsulotida uglerod nanotrub-kalar borligini aniqladi.

Nanog'ovak materiallardagi g'ovaklarning o'lchami 100 nm dan kichik bo'ladi. Shu qatorda adabiyotlarda: mikrog'ovakli (g'ovak o'lchami 2 nm dan kam), mezog'ovakli (g'ovak o'lchami 2 – 5 nm), va makrog'ovakli (g'ovaklar o'lchami 5 nmdan katta) terminlar ham uchrab turadi.

Katalizatorlar – ancha oldindan o'rganilib kelayotgan va keng qo'llanilayotgan nanoobyektlarga kiradi. *Supramolekulyar* strukturalar –nokovalent sintez natijasida hosil bo'ladi. Bu struktura Van-der-vaaals, vodorod va boshqa bog'lanishlar hisobiga hosil bo'ladi.

Shunday qilib, quyidagicha xulosa qilish mumkin. Yuqorida ko'rib o'tilgan nanomaterialarning olish texnologiyasi turlicha, funksional xususiyatlari ham har xil, ularni faqat zarrachalarni kichik o'lchamigina bir guruhga birlashtiradi. Struktura elementlarining minimal o'lchami ($0,1\text{--}1,0 \cdot 10^{-9}$ nm, ya'ni alohida atom va molekulalar o'lchamlariga to'g'ri keladi, maksimal o'lchami 100 nm – shartli olingen).

Gohida nanokristall holatning yuqori chegarasi (elementning maksimal o'lchami) ma'lum bir xarakterli fizik parametr (erkin yugurish uzunligi, dislokatsiya surilishi uchun Frank-Rid sirtmog'i diametri, domen yoki domen devori o'lchami va de Broyl elektron

to‘lqini uzunligi) bilan bog‘liq bo‘lishi kerak degan fikrlar ham mavjud. Ammo qattiq jism obyektlarining elektr, magnit, deformatsion va boshqa hossalari aniqlovchi xarakterli fizik parametrlarning o‘zgarish diapazoni juda keng, shuning uchun ma’lum bir yuqori chegarani belgilash mumkin emas.

Terminlar bo‘yicha quyidagini ta’kidlash zarur, «nano» qo‘sishimchali terminlar keng qo‘llanilmoqda, masalan «nanotexnologiya», «nanoelektronika», «nanoximiya» va boshqalar. Amerika adabiyotlarida «nanotexnologiya» deganda struktura elementi ~1-100 nm o‘lchamga ega bo‘lgan maqsadli material, qurilma va tizimlarni yaratish tushuniladi.

Hozirgi kunda [13,20] ishlarda taklif qilingan terminologiya to‘liq izoh beradi desak bo‘ladi:

nanotexnologiya – o‘lchamlari 100 nm kam komponentlardan tashkil topgan prinsipial yangi sifatlarga ega obyektlarni hosil qilish, o‘zgartirish ularni katta mashtabdagi to‘la-to‘kis ishlaydigan tizimlarga o‘tqazish usul va yo’llari;

nanomateriallar – geometrik o‘lchamlari hech bo‘lmasa bir yo‘nalishda 100nm dan kichik bo‘lgan, sifat jihatdan yangi xossali, funksional va ekspluatatsion xarakteristikalarga ega struktura elementlaridan tashkil topgan materiallar;

nanotizimli texnika – an‘anaviy texnologiyalar bo‘yicha yaratilgan tubdan farqlanadigan to‘liq yoki qisman nanomateriallar va nanotexnologiyalar asosida yaratilgan funksional jihatdan to‘liq tizim va qurilmalar.

Shuni qayd etish lozim-ki, hozirgi kunda tobora keng qo‘llanilayotgan *nanomateriallar* termini (iborasi) bilan bir qatorda teng huquqlikda «*ultradispers materiallar*», «*ultradispers tizimlar*» terminlari ham ishlatilmoqda.

Kichik o‘lchamli obyektlar to‘g‘risidagi fan (nanoscience) – bu nanometr mashtabdagi modda hossalari va hodisalari haqidagi bilimlar majmuasidir.

Nanozarracha (nanokukun) – bu kichik o‘lchamli qattiq modda bo‘lib, geometrik o‘lchami o‘nning biridan 100 nm gacha o‘zgarishi mumkin. «Nanozarracha» deganda alohida, xolis xarakterga ega, zarracha tushumiladi. Kukun – bu alohida qattiq zarrachalarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan majmuasidir. Bu zarrachalarning o‘lchamlari 0,001 dan 10^3 mkm gacha bo‘lishi mumkin.

Nanozarrachalarning o'lchami kichiklashishi bilan u klaster holatiga o'tadi. Bu klasterlar 10 tadan bir necha mingta (~2000-10000) atomlardan tashkil topgan bo'ladi. Kristall zarrachalardan farqli o'laroq klasterlarga translyatsion simmetriyani yo'qotish xarakterli (xos). Nanozarrachalarga hozirda yarim o'tkazgichli kvant nuqtalari va polimer dendrimerlar kiradi. O'quv qo'llanmada asosan kompakt (konsolidirovanniy, biriktirilgan) nanomateriallarga ko'proq asosiy diqqat qaratiladi. Hozirda faqat shu obyektlar uchun keng va yetarli ma'lumotlar to'plangan. Qolgan nanomateriallar bo'yicha ma'lumotlar yetarli darajada emas.

II BOB. NANOSTRUKTURALARNING XUSUSIYATLARI

2.1. Umumiy tasnif


Nanomateriallarning xossalari, shuningdek ekspluatatsion xarakteristikalarini ularning strukturasi (tuzilishi) belgilaydi; bu esa nanostruktura materialshunosligining asosiy muhim masalasidir. Nanomateriallar asosiy tiplarini xarakterlash (tavsiflash) uchun G. Gleyter klassifikatsiyasidan foydalanamiz. (2.1-jadval).

Kompakt nanomateriallarning tarkibi, struktura tashkil etuvchilarining joylashishi va shakli bo'yicha klassifikatsiyasi

2.1-jadval

| Shakli | Tarkibi bir fazali | Tarkibi ko'p fazali | | |
|---------------|--------------------|---------------------|---------------------|----------------------|
| | | Statik joylashuvi | | Matritsali joylashuv |
| | | Identik chegarali | Noidentik chegarali | |
| Plastinksimon | | | | |
| Ustunsimon | | | | |
| Teng o'qli | | | | |

Kimyoviy tarkibi va fazalarning joylashishi bo'yicha to'rtta strukturani ajratib ko'rsatish mumkin: bir fazali, statik ko'p fazali identik va noidentik yuza bo'limli (поверхности раздела) va ko'p faza matritsali.




2.1-rasm Nanostrukturalarning mikrorasmlari [1, 2]:

a — kompakt Pd; b — kompakt TiN; d — TiN qoplamasи shinish yuzasi; e— TiN qoplamasini yuzasi; f — ko‘p qavatli parda (сверхрешетка) Mo—V; g — suyuq holda toblangan Al —R (10%) qotishma; h, i - suyuq holda toblangan — Fe — Si qotishmani hujayrali va dendrit – hujayrali strukturasi.

Shuningdek, shakli bo‘yicha ham struktura uchta tipga bo‘linadi: plastinkasimon, ustunsimon va teng o‘qli qo‘shimchalar (**включения**) qo‘shilgan.

Bu klassifikatsiya kristallararo chegaralaridagi (identik va noidentik yuza bo‘limi) segregatsiya imkoniyatlarini hisobga oladi.

Ammo haqiqiy struktura tiplari juda ham keng bo‘lishi mumkin: g‘ovaklar, trubkasimon strukturalar, polimer tashkil etuvchilar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Eng keng tarqalgan strukturalarga bir va ko‘p fazali matritsa va statik obyektlar, ustunsimon va ko‘p qatlamli strukturalar kiradi. Ko‘p qatlamli (многослойные) strukturalar ko‘p hollarda yupqa pardalar va qoplamlalarga xos (2.2-rasm).




2.2-rasm Yuqori imkoniyatlari (високоразрешающий сканирующий электронный микроскоп) elektron mikroskopda GaAs epokzial qatlamlar yuzasida shakillantirilgan (b) InGaAs va (a) kvant nuqtalarining ko‘rinishi, (20000-35000000 kattalashtirish imkoni mavjud).


Nanomateriallar strukturasiga yuza bo‘limlarini (donachalararo chegara va uchta donachaning bir chizig‘da uchrashuvi - uchtali birikish joyi) ko‘pligi xarakterlidir (2.3-rasm).

Nanokristall materiallarda chegara qatlaming miqdori donalarning o‘lchami 100dan 4-5nm gacha maydalangan sari oshib boradi. Agar donachalar sferik shaklga ega deb, va chegara qatlaming qalinligini 1nm (ko‘p metallar uchun 2-3 atom qatlamiga to‘g‘ri keladi) ekanligini hisobga olib, donacha diametri va yuza qatlam hajmi miqdori uchun quyidagicha munosabat keltirishimiz mumkin:

| | | | | | | | |
|--|-----|----|----|----|----|-----|-----|
| Donacha diametri (zarrachalar), nm. | 100 | 50 | 25 | 20 | 10 | 6 | 4 |
| Yuza qatlarning hajmiy miqdori, % | 6 | 12 | 24 | 30 | 60 | 100 | 150 |



a



b

2.3-rasm Uchtali birikish sxemasi (a) va donacha o'lchamining ta'siri (b) yuza bo'limi (qismi) miqdoriga (1) donachalararo chegara miqdoriga (2) va uchtali birikish (3)ga ta'siri, $S=1\text{nm}$.


Shunday qilib, agar qattiq jism bir necha nanometr ($<10\text{nm}$) o'lchamli kristallardan iborat bo'lsa, u holda yuza qatlarning miqdori yoki tartibsiz (разупорядоченная структура) sturkturasining miqdori juda katta. Yuza qatlami miqdorini zarrachalarning o'lchami kichrayib borishi bilan oshib borishi nanomateriallarning nomuzozanat holatini aniqlovchi faktorlardan biridir. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, nanomateriallarda fazalararo va chegaraviy yuza energiyasi yirik kristall materialnidan farq qilishi mumkin.

Hozirda nanomateriallar yuza qatlami energiyasi xarakteristikalari bo'yicha tajribaviy ma'lumotlar yo'q.

Yupqa pardalarda (ustunsimon va ko'pqatlamlı) na faqat ularning umumiyligini hisobga olmay, balki ustunlarning diametri va

alohida qatlamlarning qalinligini, shuningdek yupqa pardalar ichidagi nanodonacha, ustun va qatlamlarni e'tiborga olish lozim.

2.4-rasm ma'lumotlariga asoslangan holda shuni ta'kidlash kerakki, hamma qoplamlalar (100 nm dan qalin bo'lsa ham) nanostruktura tuzilishiga ega. Elektron nur va elektron yoy usulida olingan AlN va TiN qoplamlalarida (qoplamaning qalinligi 700 nm) 100 nm o'lchamdagи kristallchalar borligi aniqlangan. 2.2-jadvalda kompakt (консолидированный, (биритиреленный)) nanomateriallarning asosiy olish usullari keltirilgan.



2.4-rasm. SdS qoplamasini olish vaqtini (продолжительность осаждения) uning qalinligi va donacha o'lchamiga ta'siri ko'rsatilgan:

1-qoplama qalinligi, 2- donachalar o'lchami.

Yuqorida ko'rib o'tilgan usullarning avfzalliklari va kamchiliklari mavjud. Masalan, kukun texnogologiyasi har doim ham g'ovaksiz nanomateriallar olish imkonini bermaydi, ammo bu usul turli o'lchamli va tarkibli mahsulotlarni olishda universal hisoblanadi. G'ovaksiz namunalarni olish uchun qo'llaniladigan amorf holatidan nazorat qilish bilan kristallanadigan usul amorflanadigan tarkiblar bilan chegaralangan.

**Kompakt (консолидированный, (biriktirilgan))
nanomateriallarni asosiy olish usullari**

2.2-jadval

| Usul | Usul variantlari | Obyeqtlar |
|--|---|------------------------------------|
| Kukun texnologiyasi | Gazfaza usulida olish va kompaktlash (Gleyter usuli). Oddiy presslash va pishirish. Elektrozaryad usulida pishirish. Issiq bosim ostida ishlash.(issiq presslash, bolg‘alash, ekstruziya) | Metallar, qotishmalar, birikmalar. |
| Intensiv plastik deformatsiya | Yuqori bosim ostida burash yordamida deformatsiya qilish. Tengkanalli burchakli presslash. Ko‘p qavatli kompozitlarni bosim ostida ishlash. Fazaviy naklyop. | Metallar va qotishmalar |
| Amorf hola-tidan nazorat qilish orqali kristallash | Oddiy bosim ostidagi kristallanish. Yuqori bosim ostidagi kristallanish. | Amorf moddalar |
| Yupqa pardalar va qoplamlar texnologiyasi | Gazfaza holatidan kimyoviy usulida olish. Gazfaza holatidan fizik usulda olish. Elektrcho‘ktirish. Zol-gel texnologiyasi. | Metallar, qotishmalar, birikmalar. |

2.2-jadvalda ko‘rib o‘tilgan usullar bir-biriga qarama-qarshi bo‘lmay, balkim bir-birini to‘ldiradi, nanomateriallarning xossalalarini, strukturalarini va amaliy qo‘llanilishini kengaytiradi. Nanomateriallarni turli usullarda olinishi – bu ularning avfzalliklaridir.

2.2. Kompakt materiallardagi donachalar, qatlamlar, qo'shimchalar va g'ovaklar

Kompakt nanomateriallarning asosiy struktura elementi – donacha va kristallit (bu tushunchalar bundan keyin sinonim sifatida ishlataladi).

Turli xil kristallografik yo'naliishlar uchun donachaning o'lchami turli xil bo'lishi mumkin, bu esa donachalarning joylashishiga ta'sir etadi. Bu intensiv plastik deformatsiya, shuningdek, qoplamlarni olishda tez-tez kuzatiladi. Qoplama kristallari orientatsiyasini o'zgarishiga harorat va komponentlarning nisbati ham ta'sir qiladi.

Nanomateriallarning shakli va donachalarining o'lchamini rentgenostruktura tahlili va elektron - mikroskop yordamida tadqiqot qilish mumkin (2.5-rasm), 2.3-jadval.

Pd va TiN nanodonachalarning o'lchamini elektron mikroskopiya va rentgen-struktura tahlili usulida olingan natijalari

2.3-jadval


| Parametr | Palladiy | | Titan nitridi | |
|----------------|-----------|-----------|---------------|-----------|
| | PEM | RSA | PEM | RSA |
| L _n | 9,8+1,0 | 11,0±3,0 | -6,5 | - |
| L _s | 19,0±2,0 | 19,6±1,0 | 10,3±1,0 | 11,0±0,1 |
| L _γ | 23,2+2,0 | 26,1+1,0 | 11,8+1,0 | 12,4±0,1 |
| L _r | 8,4+0,1 | 9,5±3,0 | 5,8+0,1 | 8,0±0,2 |
| Δ _t | 1,88±0,02 | 1,71±0,15 | 1,71+0,02 | 1,42±0,02 |

Bu qoplamlarni atom-kuch mikroskopi va skaner elektron mikroskopi yordamida tadqiqot qilinadi.

Nanomateriallarning strukturasini tashkil etuvchilarining (1000-2000 kristallardan kam bo'lmagan holda) o'lchamlarini elektron-mikroskop usulida o'lchaniladi.



a



Donachalar o'lchami, nm

2.5-rasm Magnetron usulida olingan Ti(B,N) (a), qoplamasida o'lchamlar bo'yicha donachalarining hajmiy miqdori(b) elektron mikroskopda aniqlangan.

Donachalar, shuningdek zarrachalar, qo'shimchalar va g'ovaklarni o'lchamlarini aniqlashda quyidagi parametrlar hisobga olinadi.

Nanomateriallarni strukturasini o'rganish asosiy usullaridan tashqari ayrim hollarda mess-bauer spektroskopiyasi, kombinatsion spektorlar yoyilishi va boshqa usullardan foydalaniлади.

Obyektlarning o'rtacha diametri ularning soni bo'yicha L_n , o'rtacha chiziqli diametri L_l , yuza bo'yicha o'rtacha diametri (yoki ekvivalent aylananan diametri) L_s va hajmi bo'yicha o'rtacha diametr (yoki ekvivalent sfera diametri) L_v :

$$L_n = \sum_i (L_i n_i) / \sum_i n_i$$

$$L_l = \sum_i (L_i^2 n_i) / \sum_i (L_i n_i),$$

$$L_s = \sum_i (L_i^3 n_i) / \sum_i (L_i^2 n_i),$$


$$L_v = \sum_i (L_i^4 n_i) / \sum_i (L_i^3 n_i),$$

n - donachalar va boshqa obyektarning soni.

Nanomateriallar strukturasini (tuzilishi) asosan PEM (просвечивающая электронная микроскопия) va RSA (рентгеноструктурный анализ) yordamida o'rganildi.

Qoplamlar (yupqa pardalar) yuzasining topografiyasini (yuza tuzilishi) o'rganishda skanerlovchi elektron mikroskop va atom-kuch mikroskopi qo'llaniladi. Planar metall-o'tkazuvchi nanostrukturalarni tayyorlash va tadqiq qilish uchun skanerlovchi tunnel mikroskop qo'llaniladi. Bu mikroskop yordamida, qo'yilgan potentsial hisobiga atomlarni sug'urib olish va bir joydan ikkinchi joyga o'tkazish mumkin, tunnel tokining xaraktekristikalaridan foydalangan holda turli element atomlarini identifikatsiya qilish mumkin (2.6-rasm).

Umuman olganda kristallarning (qatlamlar, qo'shimchalar va g'ovaklar) o'lchamlari va ularning joylashuvi haqidagi ma'lumot juda muhim. Ammo, bu ma'lumotlarni olish ko'p faktorlar bilan bog'liq bo'lib, o'ta muhim masaladir. Shuning uchun xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun bir vaqtida ikkita bir bir-biriga bog'liq bo'lmagan o'lhash usulidan foydalinish maqsadga muvofiq.



2.6-rasm Temirning 48 atomidan tashkil topgan «kvant o‘rami». Radiusi 7,3 nm aylana bo‘yicha temir atomlari ikki o‘lchamli elektron gazi mavjud bo‘lgan mis yuzasiga skanerlovchi tunel mikroskopi yordamida joylashtirilgan

2.3. Nuqsonlar, yuza qatlamlari (bo‘limlari), chegara segregatsiyalari

Qattiq jismlardagi nuqsonlar kabi, nanomateriallarda nulo‘lchamli (нулмерные), bir o‘lchamli (одномерные), ikki o‘lchamli (двухмерные) va uch o‘lchamli (трехмерные) – vakansiya va tugunlararo atomlar, dislokatsiyalar, yuza bo‘limlari, bo‘shliqlar va nanog‘ovaklar mavjud.

Avvaldan ma’lum, ko‘p kichik o‘lchamli obyektlar (klasterlar, ipsimon kristallar – «usi» va boshqalar) amaliy jihatdan nuqsonsizdir, buni, masalan ularning («usi») yuqori mustahkamlik ko‘rsatgichiga ega ekanligi tasdiqlaydi.

Bu mustahkamlik ko‘rsatgichi nazariy jihatdan aniqlangan ko‘rsatgichlarga yaqin. Ko‘p metallar uchun erish haroratidagi issiqlik nuqsonlarining (вакансия) miqdori 10^{-4} ga teng, ya’ni bitta

to'ldirilmagan tugun 10000 atomga to'g'ri keladi. Mis uchun, bir atomga to'g'ri keladigan vakansiya miqdori juda ham kichik (10^{-20} , ya'ni bitta vakansiya 1 mm³ ga to'g'ri keladi). Shunday qilib, bir necha mingta atomlardan iborat nanoobyektlar uchun hattoki erish haroratida ham (xonu haroratini gapirmsa ham bo'ladi), nuqtaviy nuqsonlar amaliy jihatdan uchramaydi. Bu nanomateriallarning fizik-mexanik xossalari o'zgartirishga olib keladi. Ularning qiymatlari nazariy qiymatlariga yaqin bo'ladi.

III BOB. NANOMATERIALLARNING XOSSALARI O'LCHAM EFFEKTI

3.1. Umumiy tasnif

Bu bobda nanomateriallarning fizik, mexanik va kimyoviy xossalarining xususiyatlariga tasnif beriladi. Materiallarning xossalari ularning struktura elementlari xarakterli o'lchami orasidagi bog'liqlikni turli fanlar (fizika, kimyo, materialshunoslik, biologiya) azaldan o'rGANIB keladi. Nanomateriallarda struktura o'lchamlarining ta'sir etish xususiyatlari quyidagicha:

- dona o'lchami kichraygan sari yuza qatlamlarining (bo'limlari) roli ortib boradi;
- nanometr oralig'ida yuza qatlamlari (bo'limlari) xossalari an'anaviy yirik kristall materiallardan farq qilishi mumkin;
- kristallarning o'lchami kichrayib borgan sari ba'zi bir fizik hodisalarining xarakterli o'lchamlariga (masalan, tashuvchilarining erkin yugurish uzunligi) yaqin bo'lishi mumkin;
- nanomateriallardagi o'lcham effekti kvant xarakteriga ega bo'lishi mumkin, qachonki donacha o'lchami de Broyl to'lqin uzunligiga yaqin bo'ladi. Qarab chiqilgan xususiyatlar xossa – dona o'lchami bog'liqligini nomonoton o'zgarishga ta'sir qilishi mumkin.

Nanomateriallarning xossalari Kristallarning o'lchamlaridan tashqari, tarkib va asosiy komponent va primeslarning joylashuvi, g'ovaksimonlik, nuqsonlar va qoldiq kuchlanish, amorf va nomuvozanat fazalar va boshqalar ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, yuza bo'limlаридаги va nanokristallar hajmidagi o'lcham effektлarini ham farqlash zarur. O'lchamlar effekti tabiatini aniqlash nanostruktura obyektlari materialshunosligining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

3.2. Nanomateriallarning mexanik xossalari


Nanonomateriallarning qattiqligi, mustahkamligi, plastik va bikrlik xossalari xona, past va yuqori haroratlarda jadal o'rGANILMOQDA.

Nanomateriallarda quyidagi qattiqlik, mustahkamlik, yeilishga chidamlik kabi fizik-mexanik xossalarni ko‘p marotaba oshirish imkoniyati bor, ular esa donachalar o‘lchami, g‘ovak va nuqsonlar mavjudligiga bog‘liq bo‘lib mikrodarzlar hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Strukturada nuqsonlarni mavjudligi darzlarni hosil bo‘lishiga olib keladi, bu esa mustahkamlik va plastiklikni kamaytiradi. Shuning uchun nanomateriallarni mexanik xossalari qoldiqli kuchlanish, qo‘sishchalar, g‘ovaklar va boshqa nuqsonlarni mavjudligiga bog‘liq - bular hammasi nanomateriallarning hossalarini o‘rganishda hisobga olinishi zarur.

Agar struktura nuqsonsiz bo‘lsa donachalar chegaralari dislokatsiya va darzlarni tarqalishiga to‘siq bo‘ladi, bu esa nanomateriallarni mustahkamlik va qattiqligini oshiradi.

Qaysi sohada qo‘llanilishidan qat’iy nazar har qanday materiallar ma‘lum bir mexanik xarakteristikalarga javob berishi kerak. Quyidagi rasmida temir namunasi donacha o‘lchamining uning qattiqlik va mustahkamlikga ta’siri keltirilgan (3.1-rasm).



3.1-rasm. Temir namunasi donacha o‘lchamining uning qattiqlik va mustahkamlikga ta’siri:
1- qattiqlik; 2-mustahkamlik.

Qattiqlik donachalar o‘lchami kichraygan sari qattiqlik oshib boradi, mustahkamlik va plastik hossasi kamayadi. Namunalarni elektron-mikroskop qurilmasi yordamida tadqiq qilinganda g‘ovaklar borligi aniqlangan, bu esa tirqishlar hosil bo‘lishiga olib keladi va mustahkamlikni kamayishiga sabab bo‘ladi.

Cho‘zishga sinash uchun namunalarni tayyorlash qiyin bo‘lganligi sababli, qattiqlikga sinash keng tarqalgan. Nanomateriallar qattiqligini o‘lchash uchun ixtiyoriy shakldagi namunalar ishlataladi.



Bu usul, nanostruktura qoplamlari qattiqligini o‘lchashda ham keng qo‘llaniladi. Buning uchun oxirgi paytlarda maxsus qurilma – nanoindentor ishlataladi. Nanoindentor yordamida qattiqlikni kichik yuklama (taxminan 0,01N va undan ham kam) va o‘lchashni yuklash jarayonida bajarish mumkin.

Qattiqlik o‘lchashda qo‘yiladigan yuklamalarning intervaliga, qoplama (yupqa parda) qalinligiga, ular yuzasining topografiyasiga, qoldiq kuchlanish va boshqa qattiqlikga ta’sir etuvchi faktorlarga e’tibor berish lozim. Qoplama yuzasi topografiyasi (chuqurlik va balandliklar) qattiqlik qiymatiga ta’sir qilishi mumkin, qachonki chuqurlik va balandliklarning o‘lchami indentorning botirilish chuqurliklariga yaqin bo‘lsa. Metall yirik donali materiallardagi donaning qattiqlikga (mustahkamlikga) ta’siri Xoll – Petch formulasi orqali ifodalananadi:

$$H_v(\sigma_t) = H_o(\sigma_o) + kL^{-1/2},$$

bu yerda, H_v – qattiqlik; σ_t – oquvchanlik chegarasi; H_o – donachaning qattiqligi; σ_o – donacha tanasidagi surilishlarga to‘sqinlik qiluvchi ichki kuchlanish; K – proportsionallik koeffitsienti; L – dona o‘lchami yoki qoplama qalinligi.

Bu formula empirik usulda ko‘p tajribalar ma’lumotlariga asosan olingan. Xoll-Petch qonuniyati ba’zi bir nanomateriallar uchun ham qo‘llanilishi mumkin. Quyida keltirilgan rasmlarda (3.2-rasm) donacha o‘lchami va qatlamlar qalinligi δ ning ko‘pqatlamlili qoplamlar qattiqligiga ta’siri keltirilgan.



3.2-рasm. Ko‘p qatlamlari qoplamlarda donacha o‘lchami (a, b) va alohida qatlamlar qalinligining (d) materiallar qattiqligiga ta’siri: a: -1-Su; 2-Pd; 3-Cu (qoplama), 4-Ni, 5-Fe, 6-Ni-P; b:-1-Cu; 2-Pd; 3-TiAl; 4-Nb,Sn; 5, 6-Nb,Al; 7-TiAlNb; 8-Ni-P; v:-1-TiN-NbN; 2-TiN-ZrN; 3-TiN-CrN.

Rasmlardan ko‘rinib turibdiki, ko‘p xollarda L va δ ni kamayishi bilan H_v ning qiymati oshib boradi, ammo ba’zi bir obyektlar uchun nomonoton, ba’zi hollarda teskari («anti-Xoll-Petch») bog‘liqlik kuzatiladi. Bu faktlarga bir qancha tushuntirishlar mavjud, ammo Xoll-Petch formulasini miqdorini jihatdan tushuntirish hozirda bir muncha qiyin. Ko‘p qatlamlari TiN-CrN qoplamlari qattiqligini nomonoton o‘zgarishi, qalinlikning ma’lum bir qiymatidan boshlab ($\delta \approx 20\text{nm}$) ikki fazali sistema TiN-CrN qoplamlarni olish jarayonidagi issiqlik harorati ta’sirida bir fazali qattiq qotishmaga aylanadi, va yuza (cheгаралари) bo‘limlari yo‘qoladi, natijada qattiqlik qiymati kamayadi.

TiN-NbN va TiN-ZrN ko‘pqatlamlari qoplamlarda, rentgenostruktura tahliliga asosan ikki fazali struktura va yuza bo‘limlari

(chegaralari) ~10nm gacha saqlanadi va qattiqlik olmos qattiqligi qiymatiga yaqin qiymatlargacha o'sadi. Bu ma'lumotlar dislokatsiya va tirkishlarning tarqalishiga to'sqinlik qiluvchi yuza bo'limlarining (chegaralirining) o'rnnini yaqqol ko'rsatib turadi.

Metall nanomateriallarning qattiqligini oshishi 500-600%; mo'rt materiallar uchun bu ko'rsatkich bir oz kamroq -200-300%ga teng. Ba'zi bir nanomateriallarning qattiqligi quyidagi jadvallarda keltirilgan (3.1, 3.2-jadval).

Kompaktlash usulida olingen nanomateriallarning ba'zi bir mexanik xossalari

3.1-jadval

| Tarkibi | Olish usuli | Nisbiy zichlik | Donacha o'lchami, nm | Vikkers bo'yicha qatiqlik, GPa |
|--------------------------------|---|----------------|----------------------|--------------------------------|
| Fe | Issiq presslash | 0,94 | 15 | 8,0 |
| Fe-TiN (63%) | Dinamik presslash | 0,92 | 12 | 13,5 |
| Ni-TiN (64%) | Dinamik presslash | 0,97 | 10 | 13,0 |
| Ag-MgO (76%) | Presslash | - | 2,50 | 2,5 |
| Nb ₃ Al | Elektryoyda issiq presslash | 0,97 | 30 | 18-22 |
| TiAl | Issiq izostatik presslash | 0,99 | 20 | 6,0 |
| WC-Co (10%) | Suyuq fazali pishirish | 1,0 | 200 | 24,0 |
| TiN | Yuqori harorat va bosim | 0,98-0,99 | 30-50 | 29-31 |
| TiN-TiB ₂ (50%) | Yuqori harorat va bosim | 0,98-0,99 | - | 34 |
| Si ₃ N ₄ | Yuqori harorat va bosim | 0,99 | - | 38 |
| SiC | Issiq izostatik presslash | 0,97 | 70 | 27 |
| BN | Urilish to'lqinlari yordamida pishirish | 0,96 | 25 | 43-80 |
| Olmos | Dinamik presslash | 0,91 | - | 63-68 |

Qoplamalar olish texnologiyasi usulida olingan nanomateriallarning ba’zi bir mexanik xossalari

3.2-jadval

| Tarkibi | Olish usuli | Nisbiy zichlik | Qoplamaning umumiyligini qalinligi, mkm | Ko‘p qatlamli qoplamai-qatlamining qalinligi, nm | Dona-cha o‘lchami, nm | Vik-kers bo‘yi-cha qattiqlik, GPa |
|---|---------------------|----------------|---|--|-----------------------|-----------------------------------|
| TiN | Magnetron purkash | 1,0 | 1-2 | 5-30 | 5-30 | 35-50 |
| TiB ₂ | Magnetron purkash | 1,0 | 1-4 | - | 2-8 | 50-70 |
| Ti (B,C,N) | Magnetron purkash | 1,0 | 5-12 | - | 1-5 | 60-70 |
| TiN-Si ₃ N ₄ -TiSi ₂ | CVD plazma | - | 35 | - | 3 | ~100 |
| TiN/VN | Magnetron purkash | 1,0 | 2,5 | 2-2,5 | - | 54 |
| TiN/NbN | Yoy usulida purkash | 1,0 | 2 | 10 | - | 78 |
| TiN/ZrN | Yoy usulida purkash | 1,0 | 2 | 10 | - | 70 |

3.3-jadvalda an’anaviy va elektrcho‘ktirish usulida olingan nanokristall nikel lentasi to‘g‘risidagi ma’umotlar keltirilgan. Nanokristall nikelning oddiy nikel lentasidan avfzalliklari yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi.

Shu diqqatni tortadiki, agar 100nm o‘lchamli donachali lenta uchun nisbiy cho‘zilish 15%ni tashkil etsa, 10nm donachali lenta uchun elastiklik amaliy jihatdan yo‘q hisobda (nisbiy cho‘zilish 1%).

An'anaviy va nanokristall nikel lentasining xona haroratidagi mexanik xossalari («Ontario Hydro Technologies» firmasi)

3.3-jadval




| Xarakteristikalar | Yirik kristall namuna | Nanokristall namuna | |
|-----------------------------------|-----------------------------|---------------------|--------|
| | | L~100nm | L~10nm |
| Oquvchanlik chegarasi, MPa | 103 | 690 | >900 |
| Mustahkamlik chegarasi, MPa | 403 | 1100 | >2000 |
| Nisbiy cho'zilish, % | 50 | >15 | 1 |
| Bikrlik moduli (Yung moduli), GPa | 207 | 214 | 204 |
| Vikkers bo'yicha qattiqlik, GPa | 1,4 | 3,0 | 6,5 |
| Charchash mustahkamligi, *MPa | 241 | 275 | - |
| Yeyilishi **, mkm ² | 1330 | - | 7,9 |
| Ishqalanish koeffitsiyenti ** | 0,9 | - | 0,5 |

* havoda 10^8 sikl davomida; ** quruq havoda.

3.3-rasmida teng kanalli burchakli intensiv plastik deformatsiya yordamida olingan mis namunasining kuchlanish-deformatsiya diagrammasi keltirilgan.

Boshlang'ich yirik donali mis ($L \sim 30$ mkm) past mustahkamlik va yuqori elastiklik bilan (1-egri chiziq) karakterlanadi. Oddiy prokatlash (qalinlik 60% ga kamayadi) sezilarli darajada mustahkamlikni oshiradi, bir vaqtini o'zida elastiklik kamayadi (2-egri chiziq). Tengkanalli burchakli presslashning ikki o'tishi mustahkamlik va elastiklik ko'rsatkichlarini olishiga olib keladi, 16 ta o'tishidan so'ng (dona o'lchami ~ 100 nm) mustahkamlik oshadi, shunisi muhimki elastiklik ham oshadi. Xuddi shunday natija boshqa metallar uchun ham olingan (masalan, titan). Intensiv plastik deformatsiya usulini boshqa usullardan (prokatlash, siqib chiqarish va boshqalar) farqi shundaki, bu usul yordamida yuqori burchakli chegaralarni miqdorini oshirish imkonи mavjud, bu esa mustahkamlikni sezilarli darajada oshirishga olib keladi.

Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlardan shu ma'lumki, nanomateriallarning Yung moduli yirik kristalli materiallarnikidan



3.3-rasm Mis namunasini sinash natijasida olingan kuchlanish-deformatsiya egri chiziqlari:

1-boshlang'ich yirik donachali mis; 2-sovuq prokatlashdan so'ng; 3, 4-tengkanalli burchak presslash yordamida 2-3-egri chiziqli va 16 (4-egri chiziq) o'tishidan keyin.

farq qilmaydi. Bu xulosa faqat yuza bo'limlarining hissasi juda katta bo'limagan nanomateriallarga tegishli. Kristallarning o'lchami 10nm dan kichik bo'lganda (xususan \leq 4-5nm), Yung moduli kamayishi kerak.

Nanomateriallar xossalalarining tadqiqoti va natijalarining tahlili murakkab texnologik masala. Tajriba uchun namunalarni tayyorlash murakkabligi, ularni soni chegaralanganligi, nazariy bazani (asoslarni) kamchiliklari nanomateriallarni xossalari to'g'risida ishonchli tavsiyalarga imkon bermaydi.

IV BOB. NANOMATERIALLAR TEXNOLOGIYASI ASOSLARI

4.1. Umumiy xarakteristika

Nanomateriallarning strukturasi va xossalari ularni olish davrida shakllanadi. Nanomateriallarni optimal (maqbul) va turg'un ekspluatatsion xossalarini ta'minlashda texnologiyani o'rni so'zsiz katta; bu shuningdek iqtisod nuqtai nazaridan ham ahamiyatli. Hozirda nanomateriallar texnologiyasi bilan ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqot tashkilotlari shug'ullanmoqda. Nanotexnologiya muammolari bilan dunyoning ko'p rivojlangan davlatlari shug'ullanmoqda: AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Avstraliya, Isroil, Rossiya va boshqalar.

Adabiyotlarda nanomateriallar texnologiyasi umumiyo ko'rinishda, reklama tariqasida berilgan. Bu esa texnologiyalarni to'liq yoritishga («nou-xau» bilan bog'liq) imkon bermaydi.

4.2. Kompakt (konsolidatsiya) materiallar texnologiyasi

Kukun texnologiyasi. Kukun texnologiyasining resurs-energiya tejash, yuqori ekologik xususiyatlari ma'lum, bu uni zamonaviy ishlab chiqarishda keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Kukun deganda, bir-biri bilan o'zaro munosabatda, o'lchami bir necha nanometrdan ming mikrongacha bo'lgan yakka qattiq jismlar yig'indisi (majmuasi) tushuniladi. Nanomateriallarni tayyorlashda xomashyo sifatida o'lchami 100nm dan katta bo'ligan zarrachalar ishlatiladi.

Kukun texnologiyasining keyingi operatsiyalari – presslash, pishirish, issiq presslash – kerakli shaklga, o'lchamga va kerakli xossalari namunani (mahsulotni) olishga qaratilgan. Bu operatsiyalarni M.Yu. Balshin taklifiqa asosan konsolidatsiya deb ataladi.

Konsolidatsiya (kompaktlash) bir tomonidan nanomateriallarni to'liq jipslashtirish (strukturada makro va mikro g'ovaklarni bo'lmasligi), ikkinchidan nanosturkturani (ya'ni tayyor materiallardagi donachaning o'lchami imkon darajasida kichik bo'lishi, juda

bo‘limganda 100nm dan kichik bo‘lishi kerak) saqlab qolinishi kerak. Nanomateriallar olish uchun ishlataladigan kukunlarni olish texnologiyasi turli-tuman; shartli ravishda ularni kimyoviy va fizik usullarga bo‘lish mumkin. Kukunlarning asosiy olish usullari 4.1-jadvalda keltirilgan.

Nanomateriallarni hosil qilishda qo‘llaniladigan kukunlarning asosiy olish texnologiyasi

4.1-jadval

| Usul | Usul varianti | Materiallar |
|--------------------------------------|--|---|
| Fizik usullar | | |
| Bug‘lantirish va kondensatsiya | Vakuumda yoki inert gaz muhitida | Zn, Cu, Ni, Al, Be, Sn, Pb, Mg, Ag, Cr, MgO, Al ₂ O ₃ , Y ₂ O ₃ , ZrO ₂ , SiC. |
| | Reaksiyon gaz muhitida | TiN, AlN, ZrN, NbN, ZrO ₂ , Al ₂ O ₃ , TiO ₂ . |
| Yuqori energiya yordamida parchalash | Maydalash | Fe-Cr, Be, Al ₂ O ₃ , TiC, Si ₃ N ₄ , NiAl, TiAl, AlN. |
| | Detonatsion usul | BN, SiC, TiC, Fe, olmos |
| | Elektr portlash | Al, Cd, Al ₂ O ₃ , TiO ₂ |
| | Kimyoviy usul | |
| Sintez | Plazmokimyoviy | TiC, TiN, Ti(C,N), VN, AlN, SiC, Si ₃ N ₄ , BN, W. |
| | Lazer | Si ₃ N ₄ , SiC, Si ₃ N ₄ -SiC. |
| | Termik | Fe, Cu, Ni, Mo, W, BN, TiC, WC-Co. |
| | O‘z-o‘zidan tarqaluvchi yuqori haroratli | SiC, MoSi ₂ , AlN, TaC. |
| | Mexanokimyo | TiC, TiN, NiAl, TiB ₂ , Fe-Cu, W-Cu. |
| | Elektr kimyo | WC, CeO ₂ , ZrO ₂ , WB ₄ . |

| | | |
|-------------------|----------------------------|--|
| | Qotishmali | Mo ₂ C, BN, TiB ₂ , SiC. |
| | Kriokimyo | Ag, Pb, Mg, Cd. |
| Termik parchalash | Kondensatsiya prekursorlar | Fe, Ni, Co, SiC, Si ₃ N ₄ , BN, AlN, ZrO ₂ , NbN. |
| | Gazsimon prekursorlar | TiB ₂ , ZrB ₂ , BN. |

Kimyoviy va fizik usullarga bo‘lish shartli. Masalan, reaksiyon gaz muhitida bug‘lantirishda kimyoviy reaksiya katta o‘rin tutadi. Bir vaqtning o‘zida k o‘p kimyoviy usullar fizik hodisaga asoslangan (past haroratlari plazma, lazer nurlanish va boshqalar). Kimyoviy usullar universal unumdorligi yuqori, ammo o‘lchamlarni, tarkibni va zarracha shaklini boshqarish fizik usulda yengilroq, ultradispers kukunlar olishning ba’zi bir usullari 4.1-jadvalda keltirilgan.


Kondensatsiya usuli

Bu usul ilgaridan ma’lum bo‘lib, nazariy jihatdan eng ko‘p o‘rganilgan.


Metall ultradispers kukunlarni olish qurilmasi 1960 yillarda sobiq SSSR Fanlar akademiyasi kimyo-fizikasi instituti tomonidan yaratilgan. Induksion maydonda osilib turuvchi erigan metall tomchisi o‘ta toza argon yordamida purkaladi va kondensatsiyalangan nanozarrachalar maxsus kukun yig‘uvchi moslamaga yig‘iladi. Bu yig‘uvchi moslamani bo‘shatish nazorat qilinuvchi oksidlanmaydigan atmosfera muhitida amalga oshiriladi. Kukunni saqlash va zarur texnologik jaryonlar ham argon muhitida amalga oshiriladi.

Kondensatsiyalash usuli Gleyter qurilmasida qo’llanilgan (4.1-rasm).

Bu qurilmada ultradispers kukunlarni olish inert gaz muhitida amalga oshiriladi, bir vaqtning o‘zida vakuum presslash jarayoni bajariladi. Aylanma harakat qiluvchi va sovutilib turuvchi silindr yuzasida kondensatsiyalangan nanozarrachalar maxsus qirg‘ich (скребок) orqali qirib olinadi va dastlabki presslash press-formada 2 yig‘iladi (bosim 1 GPa gacha), keyin maxsus press-formada 1 yuqori bosim ostida (3-5 GPa gacha) kompaktlash amalga oshiriladi.




4.1-rasm. Gleyter qurilmasining sxematik tuzilishi:
1-yuqori bosimda kompaktlash uzeli; 2-dastlabki presslash uzeli;
3-bug'latgich; 4-suyuq azot bilan sovutiluvchi aylanma kollektor; 5-qirg'ich (скребок).



4.2-rasm. Ultradispers oksid kukunlarini olish qurilmasi:
1-gaz-tashuvchini yuborish; 2-prekursor ta'minlovchi; 3-boshqaruvchi klapanlar;
4-ishchi kamera (gaz bosimi -50Pa); 5-isitiladigan trubasimon reaktor;
6sovutiladigan aylanuvchi silindr; 7-kollektor; 8-qirg'ich (скребок).

Gleyter qurilmasining unumidorligi yuqori emas, bu uning bug'lantirish tezligi pastligi bilan bog'liq. 4.2-rasmda oksid, nitrid, karbid va boshqa birikmalarning ultradispers kukunlarini olish uchun mo'ljallangan qurilma ko'rsatilgan.

Bu qurilmada bug'lantirish qurilmasi sifatida isitiladigan trubasimon reaktor ishlataladi. Bu trubasimon reaktorga prekursor (boshlang'ich modda) va neytral gaz aralashmasi yuboriladi va geterogen nanozarracha hosil bo'ladi. Reaktorda hosil bo'lgan aralashma ishchi kameraga chiqariladi vasovutiladigan aylanuvchi silindrda kondensatsiyalanadi, so'ng qirg'ich (skrebok) yordamida qirib olinadi va maxsus kollektorda yig'iladi (4.3-rasm).



4.3-rasm. Maydalovchi qurilmaning sxemasi:

a – attritor (1-korpus, 2-sharlar; 3-aylanuvchi pirpirak); b – tebranuvchi tegirmon (1 – dvigatel, 2 – tebratuvchi- vibrator, 3- prujinalar, 4- sharlar va maydalangan shixtali barabonlar).

Bu tipdagi qurilmalar ishlab chiqarishda (masalan, «Nanophase Technologies Corporation» va boshqalar) ultradispers kukunlar olishda ishlataladi. Bu qurilmada Al_2O_3 , Fe_2O_3 , TiO_2 , CeO_2 , Cr_2O_3 , ZnO , In_2O_3 , Y_2O_3 va ZrO_2 kukunlari 20g/soat unumidorlik bilan olinishi mumkin. Unumidorlik ultradispers kukunlarning kerakli o'lchamlari bilan aniqlaniladi.

Kondensatsion usul bir necha nanometr o'lchamli zarrachalarni olish imkonini beradi, ammo bunday obyektlarning olish jarayonining

vaqtin shunga yarasha narxi) ancha katta. Shuningdek kukun yuzasiga yupqa polimer pardalar ham qoplash mumkin, bu aglomeratsiya va korroziya ta'siridan asraydi.

Yuqori energiyali maydalash. Mexanokimyoviy sintez

Maydalash - bu «yuqoridan-pastga» texnologiyaga mansub tipik misol.

Tegirmonlarda, dezintegratorlarda, attritorlar va boshqa maydaylovchi qurilmalarda maydalash ezish, maydalash, kesilish, yeyilish va boshqa kombinatsiyalar natijasida amalga oshiriladi. 4.4.- rasmida attritorning sxemasi ko'rsatilgan. Maydalanishni jadallashtirish uchun ko'p hollarda jarayon past haroratda olib boriladi. Maydalash samadarligi sharlarning va maydalanadigan qorishmaning og'irligiga bog'liq, ko'p hollarda bu munosabat 5:1 dan 40:1 oralig'ida olinadi.

Bu usul yordamida juda ham mayda kukunlarni olish imkoniy yo'q. Mo'rt materiallarni maydalaganda zarrachalarning o'lchami 100 nm dan kichik bo'lmaydi, zarrachalar 10-20 nm dan kichik bo'lmasan zarrachalardan tashkil topgan bo'ladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, maydalash jarayonida sharlarning materiali va kislorod olinadigan mahsulotni ifloslantiradi.


Mexanokimyoviy sintez usuli yordamida ko'pgina qiyin eruvchan birikmalarning ultradispers kukunlari (TiN , TiC , TiB_2 , ZrN , NbC va boshqalar) va $Ai_2O_3+Fe(Ni, Cr)$ tipidagi kompozit tarkiblar olingan.

Yuqori energiyali maydalash va mexanokimyoviy sintez yordamida turli tarkibli ultradispers kukunlarni olish imkoniy mavjud, ammo olingan mahsulotning tozaligi har doim ham yuqori bo'lavermaydi, shuningdek, zarrachalarning (kristallar) minimal o'lchami ham chegaralangan.

Plazmakimyoviy sintez

Past haroratli plazmada sintez yuqori haroratda (6000-8000 K gacha) amalga oshiriladi, bu reaksiya kondensatsiya jarayonini katta tezliklarda amalga oshirish va yuqori darajada to'ynishni ta'minlaydi. Jarayonlarni amalga oshirish uchun yoy plazmatronlar, shuningdek, yuqori va juda yuqori chastotali plazma generatorlari qo'llaniladi. Yoy qurilmalari unum dorroq va qo'llash darajasining imkoniy osonroq. Juda

yuqori chastotali plazma qurilmalari maydarоq va tozaroq kukunlar olish imkonini beradi. Bunday qurilmaning sxemasi 4.4-rasmda keltirilgan.



4.4-rasm. Juda yuqori chastotali plazmakimyoviy sintez qurilmasi:

I-kuch qurilmasi (1-mikro'lqninli generator); II-asosiy texnologik qurilma (2-plazmatron, 3-reagentlarni kiritish qurilmasi, 4-reaktor, 5-issiqqliknii almashtirib beruvchi qurilma, 6-filtr (tozalagich), 7-kukun yig'uvchi konteyner, 8-reagentlar dozatori (dozalagich), 9-bug'latgich); III, IV-yordamchi texnologik qurilma va boshqaruv bloki (10-ventillar, 11-rotametrlar, 12-manometrlar, 13-gaz tozalash tizimi, 14-skrubber, 15-plazma tashkil etuvchi gazni kirgizish, 16-gaz tashuvchini kirgizish, 17-gazlarni chiqarish).

Plazmakimyoviy sintez uchun boshlang'ich mahsulot sifatida metallarning xloridlari, metall kukuni, kremniy va metallorganik birikmalar ishlataladi. 4.4.-rasmda keltirilgan qurilma nitridlar, oksidlar va boshqa birikmalar plazmakimyoviy kukunlari Yopiq

aksionerlik jamiyati «Nanomateriallar» (Chernogolovka, Moskva viloyati)da ishlab chiqariladi.

Plazmakimyoviy texnologiya qiyin eruvchan metallarning (W, Mo), birikmalarning (TiN, AlN, Al_2O_3 , SiC, Si_3N_4 , Ti(C,N) va boshqalar) shuningdek kompozit obyektlar $\text{Si}_3\text{N}_4+\text{SiC}$, TiB_2+TiN va boshqalarni olish imkonini beradi. Plazmakimyoviy sintezning xususiyatlari (jarayonning noizotermikligi, zarrachalarning koagulyatsiya imkoniyati va boshqalar) olinadigan zarrachalar o'lchamlari ko'p hollarda turlichal bo'ldi.

Ultratovush ta'siri sharoitida sintez qilish

Bu usul sonokimyoviy sintez nomi bilan ma'lum. Uning asosida mikroskopik pufakchalarning kavitsiya effekti yotadi. Ma'lumki, kavitsiya jarayonida kichik hajmda anomal yuqori bosim ($50-100 \text{ MN/m}^2$ gacha) va yuqori harorat (3000K gacha va undan katta), shuningdek, juda katta qizitish va sovutish tezligiga (10^{10}k/s gacha) erishiladi. Kavitsiya sharoitida pufak nanoreaktor vazifasini bajarishi mumkin. Ekstremal sharoitlarni qo'llash natijasida kavitsiya pufaklari ichida ko'p nanokristall (amorf) metallar, qotishmalar va qiyin eruvchan birikmalar (Fe, Ni va So ning nanozarrachalari va ularning karbonillari, oltin va mis kalloidlari qotishmalar, Zr nanooksidi va boshqalar) hosil bo'ldi.

Simchalarni elektr yordamida portlatish usuli

Ingichka simcha orqali zichligi 10^4-10^6 A/mm^2 ga teng bo'lgan impuls tokini o'tkazsa, metallda portlashli bug'lanish sodir bo'ldi va metall bug'larining turli dispersli zarrachalari kondensatsiyalanadi. Atrof-muhitning holatiga qarab metall zarrachalari (inert muhitda) yoki oksid (nitrid) kukunlar (oksidli yoki azotli muhit) bo'lishi mumkin. Zarrachaning o'lchami va jarayonning unumdorligi konturdagi razryad va simning diametri bilan boshqariladi. Zarrachalar asosan sferik shaklda, ularning o'lchamlari yetarli darajada keng bo'ldi. Al, Cu, Fe, va Ni ning $50-100\text{nm}$ o'lchamdagagi nanozarrachalarni olish uchun qurilmaning ish unumdorligi $50-200 \text{ g/soat}$, energyaning sarfi $25-50 \text{ kVt soat/kg}$ ni tashkil etadi.

Nanokukunlarni olishning qaysi usulini tanlash qo‘yilgan talablardan, iqtisodiy holatdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Konsolidatsiya usuli


Kukunlar texnologiyasidagi ma’lum usullar: presslash va pishirish, issiq presslashning turli variantlari, issiq estrudatsiya va boshqalar ultadispers kukunlar olishda ham qo‘llanilishi mumkin. 4.2-rasmida keltirilgan qurilmada yuqori bosimli (2-5 GPa gacha) presslashni qo‘llashga va namunalarning o‘lchami (balandligi 1mm gacha) juda katta bo‘lmaganda va vakuum sharoitida namunalarning g‘ovakligi 10-15% dan kam bo‘lmaydi. Ultradispers kukunlar kam jipslanadi. Bunga zarrachalar orasidagi ishqalanish xarakteristikalari ta’sir qiladi. Nanokukunlarni presslash texnologiyasida ultratovush tebranishlarni qo‘llash samara beradi. Ultratovush tebranishlarni qo‘llash hisobiga kukunlarni jipslashtirish imkonи va nisbiy zichlik oshadi va vtulkasimon va boshqa shakldagi namunalar olish imkonи paydo bo‘ladi.

Intensiv (jadal) plastik deformatsiya

Massiv metall namunalarda nanostrukturalarni hosil qilish intensiv plastik deformatsiya yordamida amalga oshirilishi mumkin. Yuqori bosimli kvazigidrostatik burash, teng kanalli burchakli presslash va boshqa usullar qo‘llash yordamida katta deformatsiya hosil bo‘lishi hisobiga fragmentli va boshqa har xil orientirli struktura hosil bo‘ladi.

4.5-rasmда intensiv plastik deformatsiyaning ikkita sxemasi keltirilgan - yuqori bosim ostida burash va teng kanalli burchakli presslash. 4.5-rasm (a)da ko‘rsatilgan sxemada disk shaklidagi namuna matritsaga joylashtiriladi va aylanib turuvchi puanson yordamida siqiladi. Fizika va texnikada bu ma’lum Bridjmen sandon (nakovalen) g‘oyasining mukammallashtirilgan sxemasidir.

Ushbu usulda donachalarni o‘rtacha o‘lchami 200-500 nm bo‘lgan juda mayda donachali strukturani hosil qilish mumkin (4.6a) [22].




4.5-rasm. Intensiv plastik deformatsiya sxemasi:

a-yuqori bosim ostida burash; b-teng kanalli burchakli presslash, 1- puanson, 2- namuna, 3- support, 4- homashyo [22].

Yuqori bosim ostidagi burashda deformatsiya darajasi aylanishlar soni bilan boshqariladi. Mis namunasini 2, 3 va 4 marta aylantirishda donachalarning o'rtacha o'lchami mos ravishda (162 ± 19) nm, (149 ± 12) nm va (85 ± 8) nm bo'ladi.

Asimmetrik prokatlash

Listlangan metallarni prokatlash hamma prokatlash turlarining eng soddasidir. Listlangan metallni prokatlash davrida ishlov berilayotgan material silindrik vallar orasidan o'tib, plastik deformatsiya natijasida uning qalinligi belgilangan miqdorgacha qisqaradi. Ishlov berilayotgan material deformatsiyasi prokatlash roliklaridagi burovchi moment hamda ulardagi ishqalanish kuchlari evaziga amalga oshadi, chunki listlangan materialni o'z qalinligidan kichikroq bo'lgan tirkishdan o'tishga majbur qiladi.




4.6-rasm. Har xil usulda olingan mis nanostrukturalari:
a – yuqori bosim ostida burash, b – tengkanalli burchakli presslash usuli [22].

Ishchi zonadagi haroratga bog'liq holda prokatlash issiq, iliq va sovuq bo'lishi mumkin. Agar harorat listlangan metallning qayta kristallanish haroratidan yuqori bo'lsa, *issiq prokatlash* hisoblanadi. Agarda harorat qayta kristallanish va xona harorati oralig'ida bo'lsa, *iliq prokatlash* deb yuritiladi. Mos ravishda, ishchi zona harorati xona haroratidan oshmasa, *sovuj holatda prokatlash* bo'ladi.

Listlangan materiallarni prokatlashni ikki turga, an'anaviy – simmetrik va asimetrik prokatlashga ajratishimiz mumkin. Qachonki yuqori hamda quyi valiklarning chiziqli tezligi, radiuslari va sirtlardagi ishqalanish koeffitsiyentlari kabi parametrlari teng bo'lsa, bu simmetrik prokatlash hisoblanadi. Agar yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlarning bittasi yoki bir nechta bir-biridan farq qilsa, unda simmetriya buzilishi kuzatilib, prokatlash asimetrik xarakterga ega bo'ladi.


Prokatlashda asimetriyani bir necha xil yo'llar bilan amalgaloshirish mumkin. Pesin A.M. [23] o'z ishlarida asimetrik prokatlash sinflanishini ikki guruhga bo'lib keltirgan, ya'ni maqsadli va og'ishlar tufayli hosil bo'ladigan prokatlash (4.7-rasm.).



4.7-rasm. Asimmetrik proklatashning sinflanishi

Ana'naviy prokatlashdan farqli ravishda, asimmetrik prokatlashda neytral nuqtalar bitta vertikal chiziqda yotmaydi, balki asimmetriya parametrlariga bog'liq holda bir-biridan surilgan bo'ladi (4.8-rasm).

4.9-rasmda yuqorida zikr etilgan ikki turdag'i prokatlashda ishchi – deformatsiyalovchi zonalari sxematik ko'rinishda keltirilgan. Ikki rolik orasidan plastik deformatsiyalanib o'tayotgan metall bosim hamda ishqalanish kuchlari natijasida prokatlash turiga qarab deformatsiya traektoriyasi har xil bo'ladi.




4.8-rasm. Prokatlashda hosil bo'ladigan ishqalanish kuchining taqsimlanishi:
 (a) simmetrik prokatlash va (b) asimmetrik
 prokatlash.

Asimetrik prokatlash (AP) jarayonida listlangan metall diametrlari har xil bo'lgan yoki har xil burchak tezlikda harakatlanadigan valiklar orasidan deformatsiyalanib o'tadi. Asimetrik prokatlash ishlab chiqarishda qo'llash uchun yuqori potentsialga ega, ya'ni u simmetrik prokatlashga nisbatan kamroq prokatlash bosimini hamda burovchi momentni talab etadi. Prokatlashning bu jihatlari juda yupqa listlar yoki folgalar olishda juda qo'l keladi.

AP texnikasi prokatlash davrida kesish kuchi deformatsiyasi mavjudligi bilan simmetrik prokatlashdan ajralib turadi. Prokatlashda qo'shimcha turdag'i deformatsiyaning hosil bo'lishi deformatsiya traektoriyasining o'zgarishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida umumiy deformatsiyalanish darajasini oshiradi. Ishchi zonada intensiv

deformatsiyaning ortishi ultra kichik, nano o'lchamli zarralarga ega bo'lgan material olish imkonini yaratadi.

APning yana bir afzalliklaridan biri bu prokatlangan listlangan material mikrostrukturasining qalinligi bo'yicha bir xilda bo'lishidir (4.9-rasm).



4.9-rasm AP namuna 208° Cda 1 soat termik ishlanganidan keyin hosil bo'lgan mikrostrukturaniq TEM tasviri.

Talab etilgan shartlar asosida asimmetrik prokatlanib, listlangan material qalinligi bo'yicha to'liq kesish bilan deformatsialanganda juda kichik o'lchamdagagi zarralarning hosil bo'lishi bilan birga ularning o'z o'qi atrofida burilishi kuzatiladi. Asimmetrik prokatlashda materialdagagi kesish deformatsiyaning hajmiga qarab, metallning mexanik va fizik xossalaringning yaxshilanishi kuzatiladi.

Asimmetrik prokatlash natijasida listli metallarning fizik-mexanik xossalaringning yaxshilanishi tashkil etuvchi zarralarning o'lchamidan hamda talab etilgan nano o'lchamdagagi zarralarning miqdoriga bog'liqidir. Kerakli o'lchamdagagi zarralarni olish asimmetrik prokatlashning bir qancha parametrlari: har o'timda deformatsiya miqdori, o'timlar soni, ishqalanish koeffitsientlari, tezliklar nisbati va ishlov berilayotgan listlangan metalning boshlang'ich qalinligi kabilarga bog'liq bo'ladi.

Tengkanalli burchakli presslash usuli diametri 60mm va uzunligi 200 mm gacha bo‘lgan o‘lchamli detallarni olish imkoniyatini beradi (4.10-rasm) [22, 33].



4.10-rasm Nanostrukturali titandan olingan hajmiy xomashyo [22].

Bu usul siljish deformatsiyasiga asoslangan, buning uchun material o‘zaro kesishishadigan bir xil ko‘ndalang kesimli kanallarda maxsus osnastka orqali siqb chiqariladi. Kanallar orasidagi burchak asosan 90° teng olinadi, bir marta siqb chiqarishda ≈ 1 deformatsiyalash darajasiga erishiladi [22, 33]. Ishlov berilayotgan materialga qarab jarayon harorati xona haroratidek yoki biroz yuqori tanlanadi.

Qiyin deformatsiyalanadigan va plastikligi yaxshi bo‘lmagan materiallarni namunasini butunligini saqlash muhim muammodir. Hozirgi kunda intensiv plastik deformatsiyalashni boshqa usullari ham ishlab chiqilmoqda, masalan har tomonlama bolg‘alash va maxsus prokatlash.

V BOB. NANOMATERIALLARNI TADQIQOT QILISHNING ASOSIY USULLARI


Nanomateriallarni oddiy kristall materiallar uchun qo'llaniladigan usullarda tadqiqot qilish mumkin. Ammo, nanomateriallarni o'ziga xos xususiyatlari bor, ya'ni yuzalar o'lchamlari 100-200nm bo'lgan namunalarni tadqiqot qilish zarur. Nanomateriallarni kimyoviy va struktura tahlili uchun bir qator usullarni qo'llash mumkin, o'zgacha xususiyatlarni e'tiborga olgan holda. Quyida bu usullarni asosiyilari keltirilgan.

5.1. Elektron mikroskopiya usuli

Oddiy yorug'lik yordamida ishlaydigan mikroskoplarga qaraganda kichik to'lqin uzunligiga ega elektron nuridan foydalanish keng imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi kunda bir necha turdag'i konstruktsiyali mikroskoplar qo'llanilmoqda: yorutuvchi, rastr skanerlovchi, emission va nurni qaytarish usulida. Nanomateriallarni tadqiqotida yorutuvchi, rastr skanerlovchi mikroskopiya usullari keng qo'llaniladi.

Yorituvchi elektron mikroskopiya

Yorituvchi elektron mikroskopiya bitta tajribani o'zidayoq namunaning har bir uchastkasining mikrodifraksion ko'rinishini yuqori aniqlik bilan olish imkoniyatini beradi. Zamonaviy yorituvchi elektron mikroskoplar mikrodifraksion ko'rinishni 50nm gacha bo'lgan uchastkadan 0,1nm aniqlikda olib beradi. Shuni nazarda tutgan holda «yuqori aniqlikdagi yorituvchi elektron mikroskopiya» termini qo'llana boshlandi [22]. Olingan rasmlar (ko'rinishga) bo'yicha materialni tuzilishi haqida, difraksion ko'rinishga qarab kristall panjara tipi to'g'risida so'z yuritish mumkin. Yorituvchi elektron mikroskopning prinsipial sxemasi 5.1-rasmida keltirilgan. Ushbu mikroskop $10^{-2} - 10^{-3}$ vakuum ta'minlangan vertikal ustun ichiga joylashtirilgan elektromagnit linzalar tizimi va elektron pushkadan iborat [29-33]. Mikroskopni yorutuvchi tizimi ikki linzali



5.1-rasm Yorituvchi elektron mikroskopning principiyal sxemasi [128,129]:
 1-katod, 2-fokuslovchi elektrod, 3-anod, 4- birinchi kondensator, 5- birinchi kondensator diafragmasi,6- ikkinchi kondensator, 7- ikkinchi kondensator diafragmasi, 8- ikkinchi kondensator stigmatori, 9- yustirovka korrektori, 10- namuna, 11- namunalar uchun stol, 12- obyektiv linza, 13- appertura diafragmasi, 14- obyektiv linzaning stigmatori, 15- sektor diafragmasi, 16- oraliq linza stigmatori, 17- oraliq linza, 18- ko‘rish maydoni diafragmasi, 19- proektsiyalovchi linza, 20- nazorat ekrani.

kondensator va elektron pushkadan tashkil topgan. Elektron pushka elektronlarni emitatsiyalovchi katoddan (W va LaB_6 tayyorlanib qizdirilgan sim), fokuslovchi elektrodlardan (ularga katta manfiy potentsial uzatiladi) va teshikli plastinka shaklidagi anoddan iborat. Katod va anod orasida tezlatuvchi kuchlanishga ega kuchli elektr

maydoni hosil qilinadi (zamonaviy mikroskoplarda 500-3500 kV). Tezlik ortishi bilan to'lqin uzunligi qisqaradi ($\lambda=h/mv$, $\lambda=h/(2meU)^{1/2}$) va elektronlar massasi o'zgaradi. To'lqin uzunligi qisqarishi bilan elektron mikroskopni optik tizimining aniqlik imkoniyati ortadi. Tezlatuvchi kuchlanishni ortishi elektronlarni singuvchanlik qobiliyatini o'sishiga olib keladi. 1000kV va undan ortiq kuchlanishli mikroskoplarda qalinligi 5-10 mkm namunalarni o'rGANISH mumkin. Anod teshigidan o'tgan elektronlar dastasi kondensator va yustirovka korrektoriga tushadi, bu yerda elektron nurini o'rganilayotgan namunaga oxirgi to'g'rilanishi sodir bo'ladi. Namunadan o'tgach elektronlar sochiladi (har tomonga). Ularni fokuslanishi va ekranda birlamchi ko'rinishlarni olish linzalar tizimi yordamida bajariladi (obyektiv, oraliq va boshqalar). Appertura diafragmasi namunadan o'tgan barcha elektronlardan ko'p sochilgan, yoki sochilmagan, yoki kam sochilgan elektronlarni ajratib olish imkonini beradi.

Birinchi holda olingen ko'rinishda katta sochilish qobiliyatiga ega namuna uchastkalari yorug'roq ko'rinaldi (qorong'i maydon), ikkinchisida – teskari (yorug' maydon). Zamonaviy mikroskoplarda namuna ko'rinishlarini olish uchun raqamli foto va kinokameralar mavjud. Mikrodifraksion tadqiqotlar uchun mikroskop tarkibiga xarakatlanuvchi selektorli diafragma o'rnatiladi, bu holda u appertura diafragmasini o'mini bosadi.

Yorituvchi elektron mikroskopni uch xil turi mavjud: to'g'ri, yarim to'g'ri va bilvosita.

To'g'ri usul obyekt strukturasi to'g'risida to'liq ma'lumot beradi, obyekt sifatida elektronlar uchun shaffof yoki yarimshaffof yupqa metall parda (folga) ishlataladi. Folgani qalin namunalarni yupqalash-tirish yo'li bilan olinadi, oxirgi bosqichlarda elektr kimyoviy sayqallash qo'llaniladi. Ko'p hollarda folgani vakuumda suvda eriydigan asosga (podlojka- NaCl, KCl) fizik usulda qoplama qoplash usulida olinadi. Bu holda alohida-alohida dislokatsiyalarni va ularni to'planganini ko'rish mumkin. Ularni o'lchamlari o'ta kichik bo'lgani sababli nanomaterda olindi deb xulosa qilish mumkin. Ayrim hollarda mikroskoplar maxsus moslama (приставка) bilan ta'minlanadi. Bunday moslama dislokatsion strukturani deformatsiyalash jarayonida o'zgarishini kuzatish imkoniyatini beradi. Bu usulda mikrodifraksion tahlil ham o'tqazish mumkin, natijada materialni tarkibiga qarab o'rGANISH zonasini nuqtaviy diagramasi olinadi. Mikrodifraksion tahlil

yordamida kristallarni yo‘nalishini va donachalar yo‘nalishi buzilishini aniqlash mumkin. O‘ta ingichka nurli yorutuvchi elektron mikroskoplar o‘rganilayotgan namunadan o‘tgan elektronlarni spektr bo‘yicha energetik yo‘qolishlarini, materialni lokal kimyoiyi tahlilini o‘tqazish mumkin, jumladan yengil elementlar (bor, uglerod, kislород, azot) mavjudligiga ham tahlil qilinadi.

Bilvosita usul materialni o‘zini emas, balki namuna yuzasidan olinadigan yupqa replikalarni-pardalarni o‘rganishdan iborat. Metodik jihatdan bu usul sodda va qulay hisoblanadi, chunki folgani tayyorlash murakkab va davomli jarayon. Replikalar vakuumda namuna yuzasiga uglerod, kvars, titan va boshqa moddalarni qoplab, yoki yuzani oksidlab yengil ko‘chadigan parda (plyonka) olish usulida olinadi. Hozirgi kunda namuna yuzasiga polimer va lok pardalar qoplash ham qo‘llanilmoqda. Ammo, bilvosita usul to‘g‘ri usulga nisbatan aniqligi past. Aniqlik replikaning o‘zining aniqligi bilan chegaralanadi va bir necha nm ni tashkil etadi. Replikani o‘zini tayyorlash jarayonida turli xatoliklar kelib chiqishi mumkin. Shuning uchun bu usul hozirgi kunda kam qo‘llaniladi.


Yarim to‘g‘ri usul geterofazali qotishmalarni tadqiqotida qo‘llaniladi. Bu holda asosiy fazani (matritsa) replikalar-pardalar yordamida (bilvosita usul) o‘rganiladi, matritsadan olingan zarrachalar esa to‘g‘ri usulda tadqiqot qilinadi, jumladan mikrodifraksiya yordamida. Bu usulda replika ko‘chirilishidan avval mayda kvadratlarga kesiladi va zarur fazalarni saqlab matritsa materialini eritadigan kimyoiy ishlov beriladi (травление). Kimyoiy ishlov replika-pardani asosdan ajralguncha bajariladi. Bu usul matritsada kichik hajmda bo‘lgan mayda dispersli fazalarni o‘rganishda qulaydir. Replikada o‘zining strukturasi bo‘lmaganligi zarrachalarni difraksion ko‘rinishini o‘rganish imkoniyatini beradi. To‘g‘ri usulda bunday ko‘rinishlarni matritsa ko‘rinishidan ajratish o‘ta murakkabdir.

Rastr skanerlovchi elektron mikroskopiyasi (REM)

Rastr elektron mikroskopda tadqiqot qilinayotgan namunani (obyektni) ko‘rinishi uning yuzasini aniq fokuslangan (5-10nm) elektronlar nuri bilan skanerlash natijasida shakllanadi. Bunday nur elektron zond deb ataladi. Zondning diametri 5-1000nm bo‘lishi mumkin [28-33]. Elektronlarni tadqiqot qilinayotgan namuna yuzasi

bilan o'zaro ta'siri natijasida bir qator murakkab jarayonlar yuzaga keladi va turli nurlanishlar hosil bo'ladi (5.2-rasm).

Bu nurlanishlar har xil pribor va datchiklar yordamida belgilanadi. Yuza ko'rinishini shakllantirish uchun qaytarilgan va ikkilamchi elektronlardan foydalaniladi. Ular hosil qilgan signallar priborlar bilan belgilangandan so'ng kuchaytiriladi va elektron-nur trubkasidagi ko'rinish tiniqligini o'zgartirish uchun ishlatiladi, uning yoyilishi elektron zond surilishi bilan sinxron ravishda bajariladi. Natijada namuna yuzasidagi har bir nuqtaga mos ravishda elektron-nur trubkasi ekranida ham nuqta qo'yiladi. Nuqta ko'rinishining tiniqligi o'rganilayotgan yuzadagi mos nuqtadan kelayotgan signal intensivligiga proporsionaldir. Qaytarilgan elektronlardan kelayotgan signalni qo'llaganda qalinligi 1-2mkm va elektron nur tushgan zonaning diametridan kattaroq qatlamdan ma'lumot olish mumkin. Yuza ko'rinishi o'ta yuqori aniqlik bilan olinmasada, lekin kuchli qora-oq kontrast (yorug'lik yoki ranglarni keskin o'zgarishi) bilan farqlanadi. Ushbu rejim metallografik shliflarni strukturasini o'rganishda qo'l keladi.



5.2-rasm. Elektron nurini namunaga ta'siri natijasida hosil bo'lgan effektlar
[128,129]:

- 1- elektron nur, 2- namuna, 3- qaytgan elektronlar, 4- ikkilamchi elektronlar,
- 5- yutilgan elektronlarning toki, 6 - katodlyumenestsensiya, 7- rentgen nurlanish,
- 8- elektronlar, 9- yo'naltirilgan tok, 10- namunadan o'tgan elektronlar.


Ikkilamchi elektronlar signalini qo'lllaganda eng yuqori aniqlikga erishiladi, chunki 1nm qalinlikdagi qatlamda hosil bo'ladi, ularni hosil bo'lish zonasini elektron nuri tushgan joyni o'lchami bilan chegaralangan. Ko'rinishdagi kontrast qaytarilgan elektronlarni qo'llagan-dagidan deyarli kam, ammo, stereometrik (fazodagi jism xususiyatlari) xarakterga ega.

Rastr elektron mikroskopiyasining muhim afzalligi yuqori aniqlik darajasini ta'minlovchi imkoniyatini (10 nm gacha, lantan geksoborididan tayyorlangan maxsus katodlarni qo'lllaganda 5 nm gacha) fokusning katta chuqurligi bilan mujassamlaganida (10 nv aniqlikda 1mkm tashkil etadi). Bu esa g'adir-budur namunalar yuzasini yuqori sifatli tadqiqot qilish imkoniyatini beradi. Bir qator priborlarda katod o'rniga avtoemission pushka qo'llaniladi va o'ta ingichka nur yordamida 0,5 nm aniqlikga erishiladi.

REM usulinig kamchiligi faqat tok o'tqazuvchan materiallarni tadqiqot qilish imkoniyati. Izolyatorlarni tadqiqot qilish uchun ularni yuzasiga elektr o'tqazuvchi yupqa parda qoplanadi, masalan uglerod. Rastr elektron mikroskopining printsipli sxemasi 5.3-rasmda keltirilgan.

Katoddan chiqayotgan elektronlar diafragmalar tizimi, linzalar va stigmator yordamida elektron nuriga (zond) shakllanadi. Generator bilan ulangan og'diruvchi g'altaklar elektron zondni elektron trubka bilan sinxron ravishda namuna yuzasini skanerlashni ta'minlaydi. Rasmni ravshanligini shakllantirish rentgen nurlanish, ikkilamchi elektronlar va qaytarilgan elektronlar detektorlaridan signallari orqali bajariladi. Kattalashtirishni boshqarish (20-10000 barobar) elektron zondni namuna bo'yicha va nurni ekran bo'yicha yoyilish amplitudasini nisbatini maxsus moslama yordamida ta'minlanadi. Materialni elektronlar bilan nurlantirganda rentgen nurlanish hosil bo'lgani sababli REMda rentgenospektral mikrotahlil usuli keng qo'llaniladi (RSMA). Deyarli barcha REMlarda konstruktiv jihatdan bu usullarni birlashtirish ko'zda tutilgan. Rentgen nurlanish komponentlarining to'lqin uzunliklari spektrini va rentgen kvantlari energiyasini qayd qilish imkoniyati mavjud. Bu esa namuna yuzasining kimyoviy tarkibini o'ta sezgir sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish imkoniyatini beradi, jumladan, tanlangan nuqtada ham.

RSMAning aniqlik darajasi 200-500nm ni tashkil qiladi va namunalar yuzasini tahlil uchun tayyorlangan sifatiga bog'liqdir.




5.3-rasm Rastr elektron mikroskopining printsipial sxemasi [28, 29]:
1-katod, 2- Venelt silindri, 3- anod, 4, 10- chegaralovchi diafragmalar,

5,6- kondensor linzalar, 7- og'diruvchi g'altaklar, 8- stigmator,
9- obyektiv linza, 11- rentgen nurlanish detektori, 12- kuchaytirgich (усилител),
13- yoyish (skannerlash) generatori, 14- namuna, 15- og'diruvchi g'altaklarga signal
uzatish, 17- kattalashtirishni boshqarish, 18- elektron-nur trubkasi.

4.3. Spektral tahlil usullari

Odatda spektral usullarga tadqiqot qilinayotgan materiallarni elektron, ion va fotonlar bilan nurlantirganda hosil bo'ladigan qaytarilgan nurlanishlarning energetik spektrlari tahliliga asoslangan usullar kiradi (5.4-rasm).



5.4-rasm Spektral usullarni ishlash prinsipining sxemasi:

a) elektron nurlanishga asoslangan usullar, b) fotonlar bilan nurlantirishga asoslangan usullar, v) ionlar bilan nurlantirishga asoslangan usullar; EOS – elektron Oje-spektroskopiyasi, DME(SED) – sekinlashtirilgan elektronlar, DBE (TED) – tez elektronlar difraktsiyasi, DNME (NQSED) – noelastik qaytarilgan sekin elektronlarni difraktsiyasi, ESID (ERID) – elektron rag'batlantirilgan ion desorbsiya, MSEPZ (YUEZMS) – yuza elektron zondi mass-spektroskopiyasi, ESD () - elektron rag'batlantirilgan desorbsiya, DPM (YUMD) – yuza molekulalarini desorbsiyasi, SXI (XNS) – xarakteristik nurlanishning spektroskopiyasi, SPP (OPS) – ostanoviy potensiallarni spektroskopiyasi, LMA (LMT) – lazerli mikrozond tahlil, IKP (IQYU) – infraqizil yutish, KRS (YKY) – yorug'likni kombinatsiyalangan yoyilishi, EM (KYOE) – ko'rindigan yorug'likni elipsometriyasi, FD – fotodesorbsiya, RFES yoki ESXA - rentgen fotoelektron spektroskopiyasi, ISR () – ionlarni yoyilish spektrometriyasi, MSVI (IIMS) – ikkilamchi ionlarni mass-spektroskopiyasi, INS – ion-neytrallash spektroskopiyasi, IMAR (RNTQIM) – rentgen nurlarini tahlil qiluvchi ionli mikrozond, PIR () – protonlar hosil qiluvchi rentgen nurlanishi [29, 30].

Hozirgi kunda o'nlab bunday usullar ma'lum. Ammo ularni hammasi ham nanomateriallarni tadqiqot qilish sohasida keng qo'llanilmaydi. Masalan taniqli rentgen spektral mikrotahlil usuli namunaning tahlil qilayotgan uchastkasini miqdoriy tahlilida faqat diametri 1-2 mkm, rentgen fotoelektron spektroskopiyasi usuli esa 2-10 mm tekshirish imkoniyatiga ega. Shu sababli quyida ko'riladigan usullar birinchidan – nanomateriallarni o'rganishda qo'l keladi, ikkinchidan – ko'proq ko'rgazmali va keng qo'llaniladi.

Elektron Oje-spektroskopiyasi

Bu usul ikkilamchi Oje-elektronlarni energetik tahliliga asoslangan. Oje effekti, uni 1925 yilda kashf etgan frantsuz olimi nomi bilan ataladi. Namuna yuzasida atomlarni to'lqinlantirish natijasida ikkilamchi elektronlar emissiyasi kuzatiladi. Ularni kichik qismi orbitalararo o'tish natijasida namunadan chiqib ketadi. Bunday elektronlar Oje-elektronlari deb ataladi. Oje-elektronlarni kinetik energiyasi elektron chiqib ketgan ichki qobig'lar energiyasi va yuqoriroq joylashgan energetik darajadagi elektronlar energiyasi ayirmasi bilan aniqlanadi, hosil bo'lgan vakansiyaga Oje-elektroni otilib chiqadigan elektron o'tadi. Oje-elektronlarni energiyasiga qarab ularni chiqargan atomlar xossasiga baho bersa bo'ladi.

Shunday qilib, Oje-elektronlar spektrini energetik tahlili tadqiqot qilinayotgan moddaning yuza qatlarni kimyoviy tarkibi, ayrim hollarda esa atomlarni kimyoviy bog'lanishi to'g'risida ma'lumot beradi. Bu usulda geliydan og'ir bo'lgan barcha elementlarni aniqlash imkoniyati bor. Elektron Oje-spektroskopiyasini bajaradigan priborlarda elektron nuri energiyasi 0,1-3 keV [129,130] tashkil qiladi va 0,5-3,0 nm chuqurlikdagi qatlarni tarkibi o'rganiladi. Signalga asosiy ulushni birinchi ikki-uch atomlar qatlami qo'shadi. Namuna yuzasidagi aniqlik darajasi diametri 50 nm gacha bo'lgan birlamchi elektronlar dastasi bilan aniqlanadi.

Ikkilamchi ionlar mass- spektroskopiyasi

Bu usulda tadqiqot qilanayotgan material yuzasi ionlar dastasi bilan to'zitish so'ngra to'zitish mahsulotlari, ya'ni otilib chiqgan ikkilamchi ionlar tahlil qilinadi. Ikkilamchi ionlar zond zonasidagi 2-

3 yuza atom qatlamlarining kimyoviy tarkibi to‘g‘risida ma’lumot beradi va mass-spektrometr bilan o‘rganiladi. Ushbu usul yuqori sezgirlikga ega bo‘lgan holda barcha kimyoviy elementlarni, jumladan vodorod va geliyini aniqlash imkoniyatini beradi. Chuqurlik bo‘yicha aniqlik darajasi 1-10 nm, yuza bo‘yicha esa ion dastasini shakllantiruvchi moslamaga bog‘liq bo‘lib 3nm dan 500 nm gacha, maxsus ionlar manbalari qo‘llanilganda 40 nm gacha tashkil qiladi [29, 30].

Lazerli mikrozond tahlili

Ushbu usul impulsli lazer dastasini nurlanishi ta’sirida yuzaning tanlangan nuqtasida materialni mikrohajmi bug‘lanib va dastlab uning ionizatsiyasiga asoslangan [30]. Hosil bo‘lgan ionlar vakuumda mass-spektrometr bilan tahlil qilinadi. Yorug‘lik spektrining ultrabinafsha diapazonidagi nurlanish impulsining davom etish vaqtiga 30 ns va undan kam bo‘ladi. Hosil bo‘lgan dog‘ diametri 100-500 nm ni tashkil qiladi. Dog‘dagi kichik energiya zichligi ($10^8 - 10^{11}$ Vt/sm²), bug‘langan ionlarni boshlang‘ich energiyasini yuqori bo‘lmashigi va bu energiyani kam yoyilishi elementlarni materialda oz miqdorda bo‘lganida ham usulni yuqori sezgirlik bilan tahlil qilish imkoniyatini ta’minlaydi. Ushbu usul barcha materiallar turlarini, kimyoviy elementlarni manfiy va musbat ionlarni tahlil qilish imkoniyatini beradi. Usulning kamchiligi sifatida uning elementlarni miqdoriy jihatdan tahlil qilishdagi noaniqligidir (asosiy elementlar uchun xatolik 10%, kam bo‘lgan elementlar uchun – 30%).

5.3. Skanerlovchi zond usullari

Ushbu usullar guruhi nanomateriallar va nanotexnologiyalar sohasida keng qo‘llaniladi. Barcha usullarni asosiy prinsipi – tahlil qilinayotgan material yuzasidan maxsus moslama – zond yordamida informatsiyani o‘qish. Ko‘p hollarda ishchi jism sifatida uchidagi radiusi 10 nm bo‘lgan olmos igna ishlatiladi. Yuqori aniqlikda skanerlovchi mexanizm yordamida zond namuna yuzasi ustida uch koordinata bo‘ylab yo‘naltiriladi. Odatda zondni yo‘nalishida ikkita diapazon bor: nisbatan kichik aniqlik va yuqori tezlik bilan dag‘al yo‘nalish va deyarli kichik tezlik va yuqori skanerlash aniqligi bilan (0,1-1, 0 nm) aniq yo‘nalish. Skanerlashni katta aniqligi balandlik

bo'yicha ta'minlanadi. Zonddan kelayotgan signalga kompyuter yordamida ishlov beriladi va uch o'lchamli ko'rinishga o'tqaziladi. Olinadigan signallarga ishlov berish, filtrlash va korreksiya (to'g'-rilash) qilish uchun maxsus programmalardan foydalaniлади.


Odatda zondli mikroskoplarni narxi, o'lchamlari elektron mikroskoplarnikiga qaraganda pastroq, imkoniyatlari esa teng desa bo'ladi. Shu bilan birga aytish zarur-ki, bir qator zondli mikroskoplar uchun vakuum zarur emas, tadqiqotlar esa turli materiallar uchun, jumladan izolyatorlar, yarimo'tkazgichlar, biologik obyektlar uchun ham o'tqazish mumkin. Namunalar maxsus ishlov bermasdan tekshirilishi mumkin (zarur uchastkalarni sayqallash yetarli).

Skanerlovchi tunnel mikroskopiyasi (STM)

Zond sifatida bu usulda elektr o'tqazuvchi uchlik qo'llaniladi (5.5-rasm). Zond va namuna orasida 0,1-10 V tarzda elektr kuchlanish sodir bo'ladi. Oraliqda tadqiqot qilinayotgan material atomlarining xossalari va konfiguratsiyasiga bog'liq bo'lган 1-10 nA miqdordagi tunnel toki hosil bo'ladi. Bu tok priborlar bilan qayd qilinadi. Tok tunnel effekti hisobiga hosil bo'ladi, ya'ni klassik mexanika man etuvchi sohadan kvant o'tishi yuzaga kelganda bu *tunnel usuli* deb ataladi. Bu soha 3-10 Å ga teng bo'lib igna uchi va tadqiqot qilinayotgan namuna yuzasi oralig'ida joylashgan. Tunnellanayotgan elektronlar energiyasi 1 eV tarzda bo'ladi [22]. Zamonaviy priborlarda ma'lum rejim hisobiga tunnel toki miqdorini o'zgarmas ravishda ushlab turiladi. Eng qulay sharoitlarda skanerlovchi tunnel mikroskopiyasi usuli aniqlik darajasini tekislik bo'yicha (x va y koordinatalari) 1 Å gacha, balandlik bo'yicha (z koordinata) – 0,01 Å gacha[22] bo'lishi mumkin.

Usulni turli modernizatsiyalangan va to'ldirilgan variantlari mayjud. Masalan, skanerlovchi tunnel spektroskopiyasi yuzaning turli nuqtalaridagi voltamper xarakteristikalarini tahlil qilish yoki har xil kuchlanishlarda yuza ko'rinishini olishga asoslangan. Birinchi holda tunnel tokini ikkinchi hosila miqdoriga qarab igna ustida to'xtagan atom turini aniqlash mumkin, ikkinchisida esa – yarimo'tkazgich va o'ta o'tkazgichlar zona strukturasini parametrlarini aniqlash mumkin. Skanerlovchi tunnel mikroskopiyasi usulini aniqlik darajasini quyidagi shartlar chegaralaydi: tadqiqot qilinayotgan materiallar albatta elektr o'tqazuvchan bo'lishi, yuqori yoki o'ta yuqori vakuum va past harorat

(50-100 K) ta'minlanishi talab etiladi. Shu bilan birga 1nm tarzdagi aniqlik darajasi uchun bu talablar shart emas.




5.5-rasm. Skanerlovchi tunnel mikroskopining ishlash prinsipial sxemasi:
1- zond, 2- namuna, I_t – δ kattalikdagi oraliqdagi tunnel toki, E_F – Fermi darajasi, U – zond va namuna orasiga berilgan kuchlanish, W – energiya, e – elektron zaryadi, Z - balandlik bo'yicha koordinata o'qi [22].

Atom-kuch mikroskopiyasi (AFM)

Ushbu usulda zond (igna) uchini tadqiqot qilinayotgan yuza bilan o'zaro ta'sir kuchi qayd qilinadi. Ignan ma'lum bikrlikli va namuna hamda igna uchi orasida hosil bo'ladigan kichik kuch ta'sirida buklilish imkoniyatiga ega to'sinchada (балочка) joylashgan (5.6-rasm).

Bu kuchlar usulning bir qator variantlarida molekulyar (Van-der-Waals), elektrstatik yoki magnitli bo'lishi mumkin. Kantilever deformatsiyasi uning orqa tomoniga tushayotgan lazer nurini og'ishi yoki bukilishda kantilever materialida hosil bo'ladigan pezorezestiv effekt yordamida o'chaniladi [22].



5.6-rasm. Atom-kuch mikroskopiya usulining ikki modasining sxemalari:a) kontakt moda, b) kvazikontakt moda[8]:
1- lazer, 2- igna, 3- kantileverni (zond) og'ishi yoki tebranishini o'Ichovchi tizim,
4- ignaga ta'sir etuvchi kuchni qayd etuvchi tizim.


Atom-kuch mikroskopiyasining ikkita modasi mayjud (kontakt va kvazikontakt). Kontakt modasida igna uchi (olmos, fulerit yoki puxtalovchi qoplamlari kremniyidan) ishchi rejimda doimiy ravishda tadqiqot qilinayotgan yuza bilan kontaktda bo'ladi. Bajarilishi modani sodda bo'lishiga qaramay ma'lum kamchilikga ega – yoki ko'rilibayotgan material shikastlanishi mumkin. Kvazikontakt (nokontakt) rejimda kantileverni o'zining tebranish parametrlari o'chaniladi (rezonans chastotasi, tebranishni so'nishi, siljish va ta'sir etuvchi kuch orasidagi faza siljishi). Bu holda kantilever ignasi namuna yuzasidan ma'lum oraliqda ($10\text{--}500 \text{ \AA}$) bo'lib va nisbatan uzoqdan ta'sir etuvchi Van-de-Vaals kuchlari orqali o'zaro ta'sir ko'rsatadi [22]. Bir qator zamnaviy priborlarda igna ishqalanish kuchi, o'rganibayotgan material uchastkalarini elastiklik xaritasini olish, tirmash usuli bilan nanoqattiqlikni aniqlash, yarimo'tkazgichli olmos ignalarni qo'llaganda esa – namuna yuzasi sig'imini, yuzaga yaqin qatlamni o'tqazuvchanligini, sig'imni o'zgarish miqdoriga qarab qo'shimchalar kontsentratsiyasini aniqlash imkoniyati mavjud. Tekislik bo'yicha aniqlik darajasi (x va y koordinatalar) 1 nm , balandligi bo'yicha (z koordinata) – $0,1 \text{ nm}$ gacha. Usulni kamchiligi – igna materialini turg'unligi kamligi, ammo aksariyat tadqiqot qilinayotgan materiallar uchun olmos yoki fuleritt ignalar qattiqligi yetarli hisoblanadi.

Magnit-kuch zondli mikroskopiya (MFM)

Ko‘rilayotgan usul avvalgi usulni bir turi hisoblanadi. Bu usulni farqi shundaki, kantilever ignasini uchi magnit materialdan yoki ferromagnit qoplamali qilib ishlanadi, natijada kantilever namunani magnit strukturasini sezadigan bo‘ladi. Usulni aniqlik darajasi 10-50nm ni tashkil qiladi [22]. Magnit-kuch zondli mikroskopiyanı elektronika uchun yupqa ferromagnit plyonkalarni (pardalarni) tadqiqot qilish maqsadga muvofiqdir.

Yaqin optik zonani skanerlovchi mikroskopiya (SNOM)

Bu usulda zond sifatida uchi torayib namunaga qaratilgan yorug‘likli to‘lqin uzatgich (shisha tola) qo‘llaniladi (5.7-rasm).



5.7-rasm. Yaqin optik zonani skanerlovchi mikroskopiya usulining printsipli
sxemasi:

1- to‘lqin uzatgich, 2- foto qabul qiluvchi, 3- to‘lqin uzatuvchi ochiq uchining yorug‘lik maydoni (diametri yorug‘lik nurlanish to‘lqini uzunligidan kichik) [22].

Shu bilan birga yorug‘lik tolasi uchining minimal diametri yorug‘lik nurlanishi to‘lqinining uzunligidan kichik bo‘lishi kerak. Bu holda yorug‘lik to‘lqini to‘lqin uzatgichdan katta masofaga chiqib ketmay faqat uning uchidan biroz «ko‘rinib» turadi [22]. To‘lqin uzatgichni ikkinchi boshida band bo‘lmagan yon tomonidan qaytgan yorug‘likni qabul qiluvchi lazer va sezgir foto qabul qiluvchi element joylashgan. Tadqiqot qilinayotgan yuzaning uch o‘lchamli ko‘rinishini qurish uchun qaytgan yorug‘lik to‘lqini fazasi va amplitudasidan tadqiqot qilinayotgan yuza va zond uchidan chiqayotgan signal orasidagi kichik masofani hisobga olingan holda foydalaniladi.

Bu usul 10 nm aniqlik darajasini ta’minlaydi. Nanotexnologiyalar qo‘llanilgan bir qator priborlarda hozirgi kunda lazer va foto qabul qiluvchi element atom-kuch mikroskopi ignasining uchida joylashtirilgan, bu esa ikki usul imkoniyatlarini o‘z ichiga qamrab oladi [22].

VI BOB. O'TA YENGIL QOTISHMALAR

6.1. Alyuminiy-litiy qotishmalari. Qotishmalarining texnologik xossalari

A1-Li qotishmalari yuqori nisbiy mustahkamlik va nisbiy elastiklik moduliga ega bo'lgani sababli turli konstruktsiya og'irligi va narxini keskin kamaytirish imkonini beradi.

O'ta zaharli bo'lgan berilliyydan tashqari litiy qotishmalarning zichligini kamaytirib elastiklik modulini oshiradigan legirlovchi element. Alyuminiy-litiy qotishmalarida litiyni har bir protsenti qotishmani zichligini 3 % ga kamaytiradi va elastiklik modulini 6% ga oshiradi. Alyuminiy qotishmalariga litiyni qo'shilishi natijasida zamonaviy aviatsiya qotishmalarining zichligi kamayadi, litiyni zichligi - 530 kg/m^3 .

Alyuminiy-litiy qotishmasi an'anaviy alyuminiy qotishmasidan 10% yengil va bikrliji 10% ga ortiq.

A1-Li qotishmalari narxi 2,5 barobar an'anaviy alyuminiy qotishmalaridan yuqori. O'zining noyob xossalari hisobiga alyuminiy-litiy qotishmalari yaqin kelajakda uchish apparatlarini yaratishda kompozitsion materiallarni qo'llash miqdoridan oshadi [34].

Alyuminiy-litiy qotishmalari yuqori ekspluatatsion ko'rsatkichlarni ta'minlab yoqilg'ini tejashni ta'minlovchi istiqbolli aviakosmik qotishmalar qatoriga kiradi. Ushbu qotishmalar quyidagi afzalliliklarga ega: konstruktsiya og'irligini 15% ga kamaytiradi, an'anaviy alyuminiy qotishmalariga nisbatan bikrlikni 10% ga oshiradi, mayjud uskunalarda ishlab chiqarilishi mumkin, asboblarni almashtirishni va ishchilarni malakasini o'zgartirishni talab qilmaydi.

Birinchi Al-Cu-Li qotishmalari 1960-1970 yillarda sobiq SSSRda (ВАД 23 qotishmasi) va chet elda (2020 qotishma) yaratildi, tarkibida 1,1% litiy bo'lib yuqori mustahkamlikga ega bo'lgan alyuminiy qotishmalariga nisbatan yuqori nisbiy mustahkamlik va bikrlikka ega edi.

Ammo, bu qotishmalarni alyuminiy-magniy-litiy qotishmalari kabi mustahkamlik, qovushqoqlik va plastiklik ko'rsatkichlari past edi.

Hozirgi kunda A1-Li qotishmalari quyish usulida litiyni erigan alyuminiyda eritib olinadi, olingen qotishmalardan quymalar tayyorlanadi. Ammo bu usul litiyni miqdorini 3% gacha chegaralaydi. Bundan ortiq litiy miqdorini qotishmada va kam zichlikni kukun metallurgiyasi yordamida ta'minlash mumkin.

Kukun metallurgiyasi mustahkamlik va qovushqoqlikni mayda donachali va legirlovchi elementlar bir tekis taqsimlangan yangi kimyoviy tarkibli qotishmalarni olishni ta'minlaydi.

Ushbu usul alyuminiy-litiy qotishmalarda litiy miqdorini 5% gacha oshiradi, qotishma zichligini 14% gacha pasaytiradi, yuqori mustahkamlik va korroziyabardoshligini va 250°C da ishslash imkoniyatini ta'minlaydi.

A1-Li binar sistemasining muvozanat diagrammasiga asosan qattiq holatdagi alyuminiyda 600°C da litiyni erishi 6 % gacha, xona haroratida esa 1%ni tashkil etadi. $20\text{--}160^{\circ}\text{C}$ eskirtish natijasida ajralib chiqgan δ -faza A1-Li qotishmasida plastiklikning pasayishiga olib keladi.

A1-Li sistemasidagi qotishmalarga sirkoniyni qo'shilishi donachalar o'lchamini maydalashtiradi va korroziya bardoshligini oshiradi, marganets ham donachalar o'lchamini maydalashtiradi va korroziya bardoshligini oshiradi, lekin sirkoni darajasida emas. Kremniy qotishmani oquvchanlik chegarasini oshiradi, mo'rtlikga moyilligini pasaytiradi.

01420 markali alyuminiy-litiy qotishma (tarkibida 0,1 dan 2 % Li gacha) - alyuminiy qotishmalaridan eng yengili, uning zichligi 2500 kg/m^3 . Qotishmaning elastiklik moduli - 76000 MPa, an'anaviy D16 alyuminiy qotishmasini elastiklik moduli - 72000 MPa ga teng. D16 qotishmasi o'rniqa 01420 alyuminiy-litiy qotishmasini keng qo'llanilishi konstruksiya massasini 13% dan 20% gacha kamaytiradi.

01420 qotishma qoniqarli korroziya bardoshlikga ega, payvandlashni turli usullarida payvandlanadi. Payvand birikmaning mustahkamligi asosiy materialni mustahkamligiga nisbatan 84% ni tashkil etadi. Payvandlangandan keyingi qayta termik ishlov berish mustahkamlikni 100% darajasida ta'minlaydi.

01420 qotishma 450°C da toblanadi suvda yoki havoda sovutiladi va 120°C da 12 soat ichida sun'iy eskirtiladi. Toblash suvda sovutib yuqori korroziya bardoshlikni, suvda sovutish – deyarli yuqori plastiklik xarakteristikalarini ta'minlaydi.

6.1-jadvalda tarkibida litiy bo'lgan qotishmalarni kimyoviy tarkibi va ularda erishilgan zichlikni kamayishi va oshgan bikrlik an'anaviy deformatsiyalanadigan alyuminiy qotishmariga nisbatan keltirilgan.

Og'irlikni kamayishini baholashda, materialning xossalariini yaxshilanishida mustahkamlikni, bikrlikni, charchashga uzoq chidashligini oshishi material zichligini kamayishi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi (6.1-rasm). Qotishmalarga optimal ishlov berishni belgilashda Al-Li-Si-Mg qotishmalarining strukturasini o'rganish, elastiklik va yemirilish xarakteristikalarini aniqlash, mustahkamlik va qovush-qoqligidan kelib chiqadi.


Qotishmalarning kimyoviy tarkibi, erishilgan zichlik va bikrlik, %

6.1-jadval

| Qotishma markasi, davlat | Cu | Li | Mg | Mp | Cd | Zr | -γ, % | +E, % |
|-------------------------------------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|------------------|------------------|
| 01420 | - | 2,0 | 5,0 | 5,0 | - | - | 10,5 | 7 |
| 2020 (AQSH) | 4,5 | 1,1 | - | 0,5 | 0,2 | - | 3 | 8 |
| DTD XXXA (Buyuk Britaniya) | 1,2 | 2,5 | 0,7 | - | - | 0,12 | 9,5 | 10 |

Hozirgi kunda alyuminiy-litiy qotishmalarining qovushqoqligini oshirishning asosiy usuli bu donachalarni legirlash, termomexanik ishlov va kukun metallurgiyasini qo'llash bilan maydalashdan iborat.

Alyuminiy-litiy qotishmalar issiq holatda yaxshi deformatsiyalanadi, shuning uchun issiq list prokatlash bosqichlari yuqori mustahkamlikga ega an'anaviy alyuminiy qotishmalariga nisbatan yengil bajariladi. Bu qotishmalar sovuq deformatsiya natijasida tez puxtalanadi, deformatsiyani yuqori darajalarida esa mo'tlikga moyilik vujudga keladi.



6.1-rasm Materiallar xossalari samolyot massasining kamayishiga ta'siri

Qotishmalar yaxshi presslanadi, shtamplanadi va qirqib ishlanadi. Yangi qotishmalar olish texnologiyasi an'anaviy qotishmalar olish texnologiyasidan farqlanmaydi.

Alyuminiy va yangi alyuminiy-litiy qotishmalarni solishtirma hossalari 6.2. jadvalda keltirilgan.

Alyuminiy va Al-Li qotishmalarining xossalari

6.2-jadval

| Qotishma markasi | $\nu, \text{kg/m}^3$ | E, GPa | σ_v, MPa | $\sigma_{0,2}, \text{MPa}$ | $\delta, \%$ | $\sigma_{0,2}/\nu$ | σ_v/ν |
|------------------|----------------------|--------|------------------------|----------------------------|--------------|--------------------|----------------|
| Д16 | 2780 | 72,66 | 430 | 290 | 10 | 10,3 | 15,3 |
| В95 | 2800 | 72,0 | 480 | 420 | 7 | 14,3 | 17,1 |
| ВАД23 | 2730 | 77,25 | 520 | 380 | 4 | 13,9 | 19,1 |
| 01420 | 2500 | 76,0 | 520 | 260 | 6 | 10,4 | 16,8 |

Elastiklik modulini alyuminiy-litiy qotishmalarda oshishi qotishmani solishtirma bikrligini oshiradi bu esa o'z navbatida charchash darzlarini tarqalish tezligini sekinlashtiradi.

Alyuminiy-litiy qotishmalaridan zamonaviy detallarni asosiy qismi vodoroddan himoyalovchi maxsus uskunalarda quyma metallurgiya usulida tayyorlanadi. Alyuminiy-litiy qotishmalarini kukun metallurgiyasi usulida ularning kimyoviy tarkibini keng ko'lamda o'zgartirish, mikrostrukturani yaxshilash imkoniyatini beradi, bu esa o'z navbatida mexanik xossalarni yaxshilaydi va texnologik jarayonni soddalashtiradi.

Shu sababli o'ta yengil qotishmalarni ishlab chiqish ikki yo'nashida olib boriladi: quyma metallurgiyasi va kukun metallurgiyasi. Ko'p alyuminiy-litiy qotishmalariga o'ta plastiklik hodisasi xos, bu esa ularni qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.

Ta'kidlab o'tish zarur-ki, 01420 alyuminiy-litiy qotishmaning solishtirma mustahkamligi boshqa qotishmalarnikiga qaraganda optimal hisoblanadi [34].

6.2. Berilliyl asosidagi qotishmalar. Umumiy ma'lumotlar.

Berilliyning xossalari. Xomashyo olish. Berilliyl qotishmalari va ularni qo'llash sohasi

Umumiy ma'lumotlar

Asbobsozlik, aviasozlik, kosmik va atom texnikasida berilliyl o'ta dolzarb konstruksion material hisoblanadi.

Berilliyning yuqori elastiklik moduli ($E=310$ GPa) va kichik zichlik birligi uning asosiy afzalliklari hisoblanadi. Zichlik ko'rsatkichi bo'yicha berilliyl magniyga yaqin (1840 va 1740 kg/m^3 mos ravishda), ammo berilliyni elastiklik moduli magniynikidan 7 martta yuqori va molibdenni zichligiga yaqin (10200 kg/m^3). Berilliyl bikrlik xossasini yuqori haroratlarda va tebranish sharoitida ham saqlaydi. Uning elastiklik modulining qiymati 500°C gacha deyarli o'zgarmaydi va berilliyl yuqori issiqlik sig'imi, issiq – va elektr o'tqazuvchanlikga ega. O'zining yuqori solishtirma mustahkamligi, bikrliqi bilan ko'pgina metallardan ajralib turadi va shu bilan birga u yuqori korroziya bardoshlikga, o'lchamlar barqarorligi, yeyilishga turg'unlik, tebranishni kamaytirish (dempfer) ko'rsatkichlariga ega.

Berilliyning chiziqli kengayish koeffitsiyenti po'latning chiziqli kengayish harorat koeffitsiyentiga yaqinligi tufayli ular bilan o'zaro yaxshi birikishi, berilliyni aniq asbob va moslamalarda turli metallar bilan biriktirib qo'llash imkoniyatini beradi.

Berilliyning asosiy kamchiliklari uning plastikligini kichik qiymati va zaharliligi kiradi.

Berilliyning xossalari

Berilli - D. I. Mendeleev davriy sistemasidagi 4 tartib raqamli kimyoviy element, u polimorf xossaga ega bo'lib metallar guruhiga kiradi. Be_a polimorf ko'rinishi G12 kristall panjaraga ega va 1250°C gacha mavjud, Be_b - esa 1250-1283°C intervalda mavjud bo'lib, K8 panjaraga ega.

Berilliyning yuqori issiqlik sig'imi va issiq o'tqazuvchanligi berilliyni noyob issiqtan himoyalovchi materialliliginini ta'minlaydi.

Berilli kimyoviy aktiv metallar guruhiga kiradi, lekin havoda uning yuzasida zich oksid pardasi hosil bo'ladi, keyinchalik uni yana oksidlanishdan saqlaydi.

Xona haroratida berilliyni korroziya bardoshligi alyuminiyikiga yaqin. 600°C da oksidlanishga past (kichik) moilliligi saqlanadi, lekin harorat 700°C dan oshganda korroziya sezilarli darajada o'sa boshlaydi. Yengil eriydigan toza ishqoriy metallar eritmasida berilli qoniqarli turg'unlikga ega.

Berilliyning korroziya bardoshligini oshirish uchun himoyalovchi qoplama sifatida xrom qo'llaniladi, u berilli xrom yuzidagi oraliq mis qatlamiga qoplanadi.

Berilliyning mexanik xossalari

Bir xil og'irlik ko'rsatgichlariga ega bo'lgan alyuminiy qotishmasi, po'latni berilli, berilli qotishmasi bilan solishtirganda elastik turg'unlik koeffitsiyenti alyuminiyikidan 3 barobar va po'latnikidan 5 barobar yaxshi. Ishlab chiqarish texnologiyasiga qarab berilliyni mustahkamlik va plastiklik xossalari juda katta intervalda o'zgarishi mumkin:

$$\sigma_{0,2} = 230 - 680 \text{ MPa}, \sigma_v = 300 - 700 \text{ MPa}, \delta = 2 - 16\%$$

G12 panjaraning bazis tekisligi yagona siljish tekisligi hisoblanadi., shuning uchun prokatlash natijasida berilliyning xossalari qu'yidagicha o'zgaradi: ko'ndalang va bo'ylama o'q bo'yicha mustah-

kamlik chegarasi va zarbiy qovushqoqlik farqi taxminan 50%; zarbiy qovushqoqlik esa quyidagicha o'zgaradi: bo'ylama o'q bo'yicha $10-30 \text{ kDj/m}^2$, ko'ndalang o'q bo'yicha - $5-7 \text{ kDj/m}^2$ gacha.

Termik ishlov natijasida xossalalar anizotropiyasi o'zgarmaydi, chunki tekisliklarni (afzalliroq) orientatsiyasi saqlanib qoladi.

Listlarni o'zaro perpendikulyar yo'nalishda teng darajali deformatsiyalash yetarli izotroplikni ta'minlaydi: $\sigma_v \leq 540 \text{ MPa}$, $\sigma_{0,2} \leq 490 \text{ MPa}$, $\delta \leq 9\%$.

Atom texnikasi uchun berilliyni muhim avfzalliklaridan biri bu juda kichik kesim yuzalarda issiqlik neytronlarini to'xtatish va kichik zichligi bilan birga berilliyni eng yaxshi neytronlar harakatini sekinlatuvchi va qaytaruvchiga aylantiradi hamda uni issiq ajratib chiqaruvchi elementlarning qobig'i sifatida qo'llash imkoniyatini beradi.

Yarim mahsulotlarni tayyorlash

Zagotovkalar (homashyo) berilliyydan asosan kukun metallurgiyasi usuli yordamida olinadi.

Kukunlarni olish usullari va sharoitlari, ularni dispersligi kompaktlash usuli keng ko'lamda berilliyni xossalarni ta'minlab beradi.

Zagotovkalarni shakllantirish kukunlarni sovuqlayin presslash, keyinchalik vakuumda $1180-1220^\circ\text{C}$ da pishirish yoki 7000 MPa bosim ostida grafit press qoliplarda (formalarda) issiqlayin presslash usuli bilan bajariladi.

Deformatsiyalangan yarim mahsulotlar – chiviq (prutok), trubalar issiq ($800-1050^\circ\text{C}$) yoki iliq ($400-500^\circ\text{C}$) siqb chiqarish usuli bilan tayyorlanadi. Quymalar berilliyydan juda kam ishlatiladi.

Yuqori tozalikga ega berilliyydan tayyorlangan listlarni cho'zilish-dagi mustahkamlilik chegarasi oddiy listlarni 80-90 % mustahkamligiga teng, ammo ularning plastikligi ancha yuqori.

Berilliylar simlari nikel (asosan) qobig'ida quymadan yoki kukun metaldan siqb chiqarish va keyinchalik cho'zish va kirriyalash usulida olinadi. Kimyoviy yoki elektrolitik sayqal berishdan so'ng berilliylar simining yuzasi quyidagi xossalarga ega: $\sigma_v = 1350 \text{ MPa}$; $\sigma_{0,2} = 300 \text{ MPa}$ va $E = 285 \text{ GPa}$.

Berilliya mexanik ishlov berish alyuminiy va titanga nisbatan 8 barobar qimmat, unga ishlov berishda kimyoviy frezerlash ham qo'llaniladi. Detallarni berilliyydan ishlab chiqarishda plazma yorda-

mida qoplama qoplash yaxshi natijalar beradi va yuzaga ishlov berish hamda payvandlashga ehtiyoj qolmaydi.

Berilliylar qotishmalar

Berilliyni legirlash ikki maqsadni ko'zlaydi: mo'rtlikni kamaytirish va korroziya bardoshlikni oshirish. Atom o'lchamlari berilliyya kichik bo'lgani sababli legirlovchi elementlar berilliyya erib uning kristall panjarasini keskin o'zgartiradi va mo'rt sinishga moyilligini oshiradi.

Be-Al sistemasi plastiklik va qovushqoqlikni oshirish imkoniyatini beradi. Bu qotishmalar yengilligi, berilliya nisbatan yuqori plastiklikga egaligi, tarkibida 50-60% Be bo'lib yaxshi yupqa list sifatida presslanish va prokatlanishi konstruksion material sifatida juda katta ahamiyatga ega.

Be-Al qotishmalarini o'ziga xos xususiyati bor, ya'ni berilliylar alyuminiyda deyarli erimaydi. Berilliyya 4-5% Al eriydi, shuning uchun tarkibida 2,5% Be bo'lgan evtektika sof alyuminiy va juda oz miqdordagi berilliylar zarrachalaridan tashkil topgan bo'ladi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, qotishma asosi sifatida qattiq eritma emas aksariyat deformatsiyalanadigan qotishmalardagidek, balkim fazalar aralashmasidan: qattiq va mustahkam berilliylar fazasi – alyuminiy berilliyyadagi qattiq eritmasi va plastik – plastiklikni ta'minlab beruvchi mustahkamligi past alyuminiy fazasidan tashkil topadi.

Amaliyotda tarkibida 20 - 40% Al bo'lgan evtektik qotishmalar qo'llaniladi. Yangi texnika uchun tarkibida berilliyni foizi yuqori bo'lgan qotishmalar qo'llaniladi, masalan, qotishma 76% Be+24% Al elastiklik moduli - $E=260$ GPa, shartli oquvchanlik chegarasi - $\sigma_{0,2}=510$ MPa, mustahkamlik chegarasi - $\sigma_v=620$ MPa va nisbiy uzayish - $\delta=3\%$ ko'rsatgichlarga ega.

Shu kabi qotishmalarda elastiklik moduli sof berilliynikiga yaqin, lekin plastikligi yuqori. Plastik alyuminiy fazasi berilliylar fazasining zarrachalarini kuchlanishlar kontsentratsiyasini kamaytiradi va darzlarni hosil bo'lib tarqalishiga to'siq bo'ladi.

Qotishma tarkibida berilliyning miqdori ortishi bilan alyuminiy fazasida magniyni erishi kamayadi, shuning uchun berilliylar bo'lgan hollarda ko'proq magniy qo'shiladi (90% Ve ga 0,5-1% Mg to'g'ri keladi).

Tarkibida 70% Ve gacha bo‘lgan qotishmalarda mustahkamlanish effekti yuqori bo‘ladi.

Uch tarkibli qotishmalar eritish usulida olinadi, ikki tarkiblilar esa kukunlardan olinadi.

Bunday qotishmalardan tayyorlangan quymalar bosim ostida ishlanadi, xomashyo deformatsiyalangan yoki yumshatilgan holda yetqazib beriladi, ular yaxshi payvandlanadi. Cu, Ni, Fe berilliy bilan chegarangan qattiq eritma hosil qilib unini mustahkamligini oshiradi, ammo texnologik plastikligini ancha pasaytiradi.

Issiqbardosh va korroziyabardosh berilliy qotishmalar

Tarkibida 0,25-0,95% Ca bo‘lgan berilliy CO₂ va suv bug‘lari muhitida yuqori issiqbardoshlik va korroziyabardoshlikga ega qotishmalar qatoriga kiradi. Ularni Zr, Nb, V i Ti bilan qo‘srimcha legirlash mustahkamligini oshiradi.

Issiqbardoshlikni yanada oshirish uchun qo‘srimcha 0,5% Ni bilan legirlanadi. Kukun metallurgiyasi yordamida olinadigan, tarkibida 4% BeO bo‘lgan Be-BeO sistemasidagi qotishmalar eng yuqori issiqbardoshlikga ega. 450-480°C gacha bu qotishmalar zo‘riqgan holatda qoniqarli ishlaydi. Qotishmaga 3% miqdorda BeO qo‘sish uzoq muddatli mustahkamlik chegarasini oshirish imkoniyatini beradi.

Berillidlarni eng katta kamchiliklaridan biri - bu o‘ta past (kichik) plastiklikga egaligidir.

Berillidlardan kichik o‘lchamli detallar, hamda prutoklar (chiviq), profillar va trubalar tayyorlanadi. Detallarni quyidagi usullarda olish mumkin: kukunlardan issiq presslab, sovuqlayin presslab va pishirib, eruvchan modellar bo‘yicha quyish.

Berilliy va berilliy asosidagi qotishmalarni qo‘llash

Berilliyan tayyorlangan listlarni asosiy iste’molchisi – raketa texnikasi. Ulardan obshivka panellari, lonjeronlar, konuslar, va turli murakkab shaklli konstruksiyalar yasaladi.

Berilliy neytronlar harakatini yuqori sekinlatish xususiyati, nurlanishga qarshi turg‘unligi va boshqa xossalari bilan atom texnikasida qo‘llashda tengi yo‘q material hisoblanadi.

2-3 M (Max soni – tovush tezligining uchish apparatining tezligiga nisbati) tezlikda uchadigan samolyotlar konstruksiyasida berilliyni qo'llash juda katta foyda keltiradi – massasi samolyotni 30-40% kamayadi.

Kichik plastikligi hisobiga berilliy siquvchi kuchlanishlar ta'sirida ishlaydigan detallar uchun tavsiya etiladi. Ko'p hollarda berilliy raketa dvigatellarini detallari uchun ishlataladi, jumladan yonish kameralari va soplolar uchun, yuqori issiq o'tqazuvchanlik va issiqlik sig'imi hisobiga soplo 3000°C ishchi haroratga chidaydi.

Kosmosda qo'llaniladigan optik uskuna'lар oynalarida berilliyni qo'llash juda aktual, bu esa – kichik zichlik, yuqori bikrlik va mustahkamlik oynalarini massasini kamaytirish, shakl (konfiguratsiya) o'lchamlarini va termik stabillikni, yuqori qaytarish xususiyatini ta'minlaydi.

O'z massasi ta'sirida oyna yuzasining qaytarish xususiyati pasayadi, oynaning qalinlashishiga yo'l qo'ymaslik uchun kichik zichlikka ega yuqori modulli material qo'llash zarur, berilliy esa bu talab-larga javob beradi. Berilliyyidan tayyorlangan oynalarning og'irligi xudidi shu maqsadda yerda qo'llaniladigan oynalardan 5 barobar kichik.

Kosmik kema va sun'iy yo'ldoshlarda berilliyyidan antenna tizimlari, kosmik apparat ruli, quyosh batareyali yirik gabaritli panellar, issiqdan himoyalovchi ekranlar tayyorlanadi, «Appolon» kosmik kemasida oy kabina otseki tayyorlangan.

Sun'iy yo'ldosh antennalarini, aniq priborlar indikatorlarining ignalari, hamda kompozitsion materiallarni alyuminiy, mis va titan bilan armaturlashda (армирование) berilliy simi ham qo'llanilmoqda. Bunday kompozitsiyalar ballistik yuqori zarbga qarshilikni, katta qovushqoqlik va bosim ostida ishlov berishda yaxshi shakllanuvchanlikga ega.

Yuqori soflikga ega berilliyyidan tayyorlangan sim ≤ 200 K haroratda elektr o'tqazuvchanligi mis va alyuminiynikiga yaqin va uni turli kriogen o'zgartirgichlarda qo'llash mumkin.

VII BOB. KOMPOZITSION MATERIALLAR

7.1. Umumiy ma'lumotlar va klassifikatsiyasi

Matritsa va to'ldirgichlar

Kompozitsion material deb, kimyoviy jihatdan turli xil bo'lgan komponentlardan tashkil topgan birikmaga aytildi. Kompozitsion materiallar an'anaviy konstruktsion materialarga xos bo'lmagan xossalari yig'indisiga ega bo'lgani sababli hozirgi zamon konstruktsiyalarini mukammallashtirish va printsipial yangilarini yaratishda qo'llanilmoqda. Kompozitsion materiallar turli usullarda birlashtirilgan ikki yoki undan ko'p o'z individual xususiyatlarini saqllovchi komponentlardan tashkil topgan bo'ladi.

Kompozitsion materiallarga quyidagi xususiyatlar birligi (yig'indisi) xos:

- tarkib, shakl va material komponentlarini joylashishi oldindan ma'lum;
- materiallar turli kimyoviy tarkibli ikki yoki undan ko'p o'zaro chegara bilan ajratilgan komponentlardan tashkil topgan;
- material xossalari undagi hajmi yetarli hajmda bo'lgan har bir komponent bilan belgilanadi;
- material, har bir komponentni boshqa - boshqa olingandagi xossalardan farqli xossalarga ega;
- material makro mashtabda bir tekis va mikro mashtabda notekis;
- material tabiatda uchramaydi, uni inson yaratgan.

Kompozitsion material komponentlari geometrik ko'rsatkichlari bo'yicha turli xil.

Material hajmi bo'yicha uzluksiz bo'lgan komponent *matritsa* deb ataladi. Hajm bo'yicha uzlukli va kompozitsion materialda chegara bilan ajratilgan komponent to'ldirgich yoki puxtalovchi deyiladi.

Matritsa sifatida kompozitsion materiallarda metallar va ularning qotishmalari, organik va noorganik polimerlar, keramika (sopol), uglerodli va boshqa materiallar qo'llanishi mumkin.

Matitsa xossalari kompozitsiyani olish texnologik jarayonini parametrlarini (ko'rsatgichlarini) va uning ekspluatatsion ko'rsatgichlarini belgilaydi: zichlik, solishtirma mustahkamlik, ish harorati, charchashdan sinishga qarshilik va agressiv muhitga turg'unligi.

Kompozitsion materiallar to'ldirgichlar geometriyasi, ularni matitsada joylashishi va komponentning tabiatiga qarab klassifikatsiyalanadi.

To'ldirgichlar geometriyasiga ko'ra kompozitsion materiallar uch guruhgaga bo'linadi:

- uch yo'nalishdagi o'lchamlari bir xil tartibga ega nul- o'lchamli to'ldirgichlar;
- bir o'lchamli to'ldirgichlar, bir o'lcham ko'rsatgichi boshqa ikkitasidan ancha katta;
- ikki o'lchamli to'ldirgichlar, ikki o'lcham ko'rsatgichlari uchinchisidan ancha katta.

To'ldirgichlarni joylashish sxemasiga ko'ra kompozitsion materiallar uch guruhgaga bo'linadi:

- to'ldirgichni bir oqli (chiziqli) matitsada tola, ip, ip sifat kristallar ko'rinishda parallel holda joylashgan;
- to'ldirgichni ikki oqli (yuza, tekislik) matitsada tola, ip, ip sifat kristallar, folga ko'rinishda parallel tekisliliklarda joylashgan;
- to'ldirgichni uch oqli (hajmiy) joylashishi, matitsada biror bir yo'nalishga aniq ega bo'lmasligi.

Komponentlar tabiatini bo'yicha kompozitsion materiallar to'rt guruhgaga bo'linadi:

- metall yoki qotishmadan iborat komponentli kompozitsion materiallar;
- oksidlar, karbidlar, nitridlar va boshqalardan tashkil topgan noorganik birikmali komponentlardan iborat kompozitsion materiallar;
- nometall elementlardan, uglerod (C), bor (B) va boshqa komponentlardan iborat kompozitsion materiallar;
- organik birikmalardan (epoksid, poliefir, fenol va boshqa smolalar) iborat komponentli kompozitsion materiallar.

Ushbu klassifikatsiyaga ko'p marotaba mustahkamlangan, ikki va undan ko'p qatlardan iborat kompozitsion materiallar, matitsasi kimyoviy tarkibi bilan farqlanadigan.

Kompozitsion materiallar xossalari nafaqat komponentlarining fizik-kimyoviy xossalariiga bog'liq, balki ularning o'zaro bog'lanishiga ham bog'liqidir.

Odatda kompozitsion material uchun komponentlarni tanlashda bir biridan o'ta farqli xossalariiga asoslaniladi. Kompozitsion materiallar zamonaviy konstruksion materiallar bilan solishtirganda yuqoriq solishtirma bikrlik (E/ρ) va solishtirma mustahkamlikka egaligi aniqlandi (σ_{c}/ρ) (7.1-rasm).

Kompozitsion materiallardan tayyorlangan konstruksiyalarni ishlashdagi yuqori ishonchliligi ulardagi darzlarni tarqalish imkoniyatini o'zgachaligiga bog'liqidir.

Oddiy qotishmalarda darzlar hosil bo'lib tezkorlik bilan konstruktsiya ishi jarayonida o'sadi. Kompozitsion materiallarda darzlar hosil bo'lib uning o'sishi matritsa – to'ldirgich chegarasigacha borib sekinlashadi va ma'lum vaqtgacha to'xtaydi.

7.2. Metallocopozitlar

Ushbu tipdagи kompozitsion materiallarda matritsa odatda metall yoki qotishmadan tashkil topgan. Metall asosli kompozitsiyalar turli o'lchamli bir tekis joylashgan dispers zarrachalar bilan puxtalanadi: mikroskopik zarrachalarni diametri $d=0,01-0,1$ mkm; maydalari - $d=1-50$ mkm bo'ladi.


Puxtalovchi zarrachalari bir tekis joylashgan kompozitsion materiallar izotropik xossalari bilan ajralib turadi.

Dispers zarrachalar bilan puxtalanadigan kompozitsiyalar asosan quyidagi bosqichlardan iborat bo'lган kukun metallurgiya usulida olinadi:

- matritsa va puxtalovchi metalini kukun aralashmasini olish (kukunlarni fraktsiyalarga ajratish, turli tizimli aralashtirgichlarda kukunlarni aralashtirish);
- po'lat matritsalarda kukunni kompakt (ixcham) xomashyo qilib presslash (izostatik presslash) keyinchalik pishirish.

Ishlov berish bosqichlarida (presslash, deformatsiyalash, termik ishlov berish) yarim xomashyoda optimal dislokatsion struktura shakllanadi. Puxtalovchingin dispers zarrachalari tolasimon strukturaniing hosil bo'lishiga imkoniyat yaratadi va qayta kristallanish

(rekristallanish) jarayonini to'xtatadi. Bunday materiallarda matritsa asosiy yuklamani qabul qiladi, puxtalovchini dispers zarrachalari esa yagona dislokatsiyalar yoki dislokatsiyalar yig'indisining harakatiga qarshilik ko'rsatadi. Kompozitsion materiallarda 5-10 % (haj.) puxtalovchi zarrachalarni tashkil etsa eng yuqori puxtalashga erishiladi.



7.1-rasm.“ Alyuminiyning solishtirma mustahkamligi va solishtirma elastiklik moduli:

(1), po'lat va titanniiki (2), stekloplastikni (3), berilliy (4) va ayrim kompozitsion materiallarniki.

Kompozitsiyani mustahkamlik darajasiga puxtalovchi zarracha-larning hajmi, disperslik darjasasi (maydaligi) va zarrachalar orasidagi masofa ta'sir etadi. Orovan formulasiga binoan zarrachalar orasidagi masofa ortishi bilan qarshilik ortadi:

$$\sigma = G_b/l,$$

bu yerda, G_b – matritsa materialini siljish moduli; b - atomlararo masoфа; l – puxtalovchi zarrachalar orasidagi masoфа.

Puxtalovchi to'ldirgich sifatida asosan qiyin eriydigan oksidlar, nitridlar, boridlar, karbidlar (Al_2O_3 , ThO_2 , NfO_2 , BN, SiC, Ve_2S va

boshqalar) dispers zarrachalari ishlataladi. Bu qiyin eriydigan birikmalar yuqori elastikli moduli, kichik zichlik va matritsa materialiga nisbatan inert xossaga ega. Masalan, ThO_2 va Al_2O_3 elastik moduli $380,5 \cdot 10^3$ va $146,12 \cdot 10^3$ MPa, zichligi esa - 1,0 va 3,97 g/sm³ mos holda bo'ladi.

Dispers – puxtalanuvchi kompozitsion materiallarni kukun metallurgiyasi usulidan boshqa usullarda olish mumkin. Masalan, metall yoki qotishma eritmasiga puxtalovchining kukuni qo'shiladi.

Dispers-puxtalanuvchi kompozitsion materiallarni olishda kukun metallurgiyasi usulidan boshqa texnologik usullar ham bor. Masalan, metall eritmasiga puxtalovchi kukunning zararachalari qo'shiladi.

Zarrachalarni erigan metalda namlanishini yaxshilash ultratovush yordamida yoki boshqa usullar bilan bajariladi.

Sanoatda Al_2O_3 zarrachalari bilan puxtalangan alyuminiy asosli kompozitsion materiallar keng qo'llaniladi. Ular kukun metallurgiyasi yordamida alyuminiy upasini (kukunini) presslab keyin esa pishirib tayyorlanadi (САП). Kukun zarrachalari qalinligi 1mkm tangachalar shaklida bo'ladi, ularning o'lchami eniga va bo'yiga deyarli farqlanmaydi.

Zarrachalar yuzasidagi oksid pardanining qalinligi 0,01-0,1 mkm. Zarrachalar o'lchamini kichrayishi alyuminiy miqdorini va umumiyligini oshiradi (7.1-jadval). Alyuminiy kukunidan olingan turli CAП mexanik xossalari 7.2-jadvalda keltirilgan

CAП afzalliklari, 300°C alyuminiy qotishmalari mustahkamligini yo'qtoganda ayniqsa namoyon bo'ladi. Puxtalovchi zarrachalarni termodinamik stabilligini saqlagani uchun dispers-puxtaladigan qotishmalar puxtalanish effektini $0,8T_e$ gacha saqlaydi.

Alyuminiy kukuni zarrachalarining xarakteristikasi

7.1-jadval

| Kukun markasi | Zarracha o'lchami, mkm | Al_2O_3 , % miqdori |
|---------------|------------------------|-------------------------------------|
| САП-1 | 30—50 | 6—8 |
| САП-2 | 10—15 | 9—12 |

20°C da CAПlarning mexanik xossalari

7 2-jadval

| Qotishma markasi | Al ₂ O ₃ , % miqdori | σ_e , MPa | $\sigma_{0,2}$, MPa | δ , % | E, GPa |
|------------------|--|------------------|----------------------|--------------|--------|
| CAП-1 | 6—8 | 300 | 200 | 7—9 | 67 |
| CAП-2 | 9—12 | 320 | 230 | 4 | 71 |
| CAП-3 | 13—17 | 400 | 340 | 3 | 76 |
| Д20* | — | 420 | 300 | 11 | 69 |

*Д20 — (535 ± 5) °C da toblanib va 124s. ichida 180°C eskirtirgan holatda.

Xona haroratida CAПlarning mexanik xossalari yuqori mustahkamlikka ega alyuminiy qotishmalarinikidan past (masalan Д20).

Kislород alyuminiyda erimaydi va alyuminiy matritsasi orqali Al₂O₃ zarrachalari o‘zaro diffuzion ta’sir etolmaydi. Puxtalovchi zarrachalar barqaror o‘lcham va o‘zaro joylashishga ega. Deformatsiyalanadigan qotishmalarning Д19, Д20 1-5 MPa mustahkamlikka ega, CAП-1 esa $\sigma_e = 80$ MPa, CAП-2 $\sigma_e = 90$ MPa, CAП-3 $\sigma_e = 120$ MPa ga teng. CAПlarning fizik xossalari – elektr o‘tkazuvchanlik, issiq o‘tkazuvchanlik, termik kengayish koeffitsiyenti – Al₂O₃ miqdoriga chiziqli bog‘lanishda va uning oshishi bilan ushbu ko‘rsatgichlar kamayadi. Ammo shuni ta‘kidlash zarur SAPning elektr o‘tkazuvchanligi va issiq o‘tkazuvchanligi standart alyuminiy qotishmalaridan (Д19, Д20) 3 barobar ortiq va texnik alyuminiy ko‘rsatgichlarining 70-75% ni tashkil etadi.

CAП qotishmalari issiq holda qoniqarli deformatsiyalanadi, CAП-1 esa -sovuj holda. CAПlar yaxshi qirqib ishlov beriladi, qoniqarli himoyalovchi gaz muhitida va elektr kontakt usulida payvandlanadi.

CAПlardan list profil, truba folga ko‘rinishda mahsulot olinadi.

Bu qotishmalardan tayyorlangan detallar 300-500°C da ishlashi mumkin, asosan bu - kompressor, ventilator va turbina lopatkaları, porshen shtoklari. CAП dan ishlab chiqilgan listlardan yuqori haroratda aggressiv muhitda ishlaydigan detallar tayyorlanadi, masalan, dvigatel gondolasini obshivkasi.

Nikelli matritsali kompozitsion materiallarda zaxarli toriy dioksidi (ThO_2) yoki gafniy dioksidi (NfO_2) qo'llaniladi. Shunga monand bu qotishmalar ВДУ-1 va ВДУ-2 belgilanadi. ВДУ-3 qotishmasida matritsa nikel-xrom qattiq eritmasidan (20% xrom) iborat, puxtalovchi esa gafniy dioksidi. Gafniy va toriy oksidlari siqilishda yuqori mikroqattiqlik va mustahkamlikni va matritsada maksimal barqarorlikni ta'minlaydi.

Qotishmadagi dispers puxtalovchi faza gafniy va toriy oksidlari ning hajmi 2-3% ni tashkil etadi. Gafniy dioksidining qattiqligi NfO_2 90-70 MPa teng va ThO_2 dan juda kam farqlanadi.

Dispers puxtalanadigan qotishmalarни issiq bardoshligi oksid zarrachalarning miqdori va o'lchamiga bog'liq bo'lgan holda optimal rejimda bosim ostida va termik ishlov berish natijasida shakllantirilgan matritsa donalarining va subdonachalarning shakli va tuzilishiha ham bog'liq.

ВДУ-1, ВДУ-2 va ВДУ-3 kompozitsion materiallar mo'tadil haroratlarda mustahkamligi bo'yicha issiqbardosh nikel qotishmalarinidan pastroq.

Xona haroratida ВДУ-1 va ВДУ-2 qotishmalarни uzilishga vaqtincha qarshiligi 540-570 va 450-500 MPa, ВДУ-3 – 800-850 Mpa ga teng.

ВДУ-3 qotishmasining yuqori mustahkamligi boshqalarnikiga nisbatan uning matritsasini xrom bilan legirlanganligi. Yuqori haroratlarda dispers puxtalanuvchi qotishmalar issiqbardoshligi deformatsiyalanadigan eskiruvchi nikel qotishmalarinidan yuqori.

ВДУ-2 va ВДУ-3 qotishmalarning ВДУ-1 ga qaraganda past issiqbardoshligi toriy oksidi zarrachalarining o'lchamlari gafniy oksidi zarrachalaridan kichikligiga bog'liq. Qotishmalardagi ThO_2 va NfO_2 zarrachalarining miqdori 2% ortmaydi.

Dispers puxtalanadigan qotishmalar ВДУ-1, ВДУ-2 va ВДУ-3 1100-1200°C da qo'llash maqsadga muvofiq (7.3-jadval).

ВДУ-1 va ВДУ-2 kompozitsion materiallar plastikligi yaxshi va ular keng harorat oraliq'ida turli usullar bilan deformatsiyalanadi (bolg'lash, shtamplash, cho'kish, cho'zish va h.k.).

ВДУ tipidagi qotishmalardan tayyorlangan detallarni eritib yubormaslik uchun yuqori haroratli kavsharlash yoki diffuzion payvandlash mumkin. Erish zonasida puxtalovchi fazani agglomerat-

siyasi (yiriklashuv) sodir bo‘ladi natijada qotishma issiq bardoshligini yo‘qotadi.

ВДУ-2, ВДУ-3 qotishmalaridan listlar, trubalar, sim, prutok, folga ishlab chiqiladi. Ular asosan aviatsiya dvigatelsozlikda qo‘llaniladi. ВДУ-2 va ВДУ-3 kompozitsiyalaridan soplo kurakchali, alanga stabilizatorlari, yonish kameralari, hamda yuqori haroratda agressiv muhitda ishlaydigan truboprovodlar va maxsus idishlar ishlab chiqiladi.

VDU-1, VDU-2 va eskiruvchi nikel qotishmalarining davomli mustahkamlik ko‘rsatgichlari

7.3-jadval

| Qotishma markasi | Yarim mahsulot | σ_{1000} , MPa, °C da | | | |
|------------------|----------------|------------------------------|------|------|------|
| | | 900 | 1000 | 1100 | 1200 |
| ВДУ-1 | Prutok | 140 | 120 | 100 | 65 |
| ВДУ-2 | Prutok | 95 | 80 | 65 | 40 |
| ВДУ-3 | List | 105 | 85 | 65 | 40 |
| ЖС-6К | Prutok | 170 | 70 | 20 | - |
| ЭП-868 | List | 30 | 15 | - | - |

7.3. Uglerod-uglerodli kompozitlar

Nometall asosli kompozitsion materiallarda asosan matritsa sifatida shisha, uglerod, bor va boshqa turdagи tolalar bilan puxtalash qo‘llaniladi.

Uglerod-uglerodli kompozitlarda (UUKM) yuqori termotur-g‘unlikga ega uglerodli matritsa qo‘llaniladi, puxtalovchi sinch (karkas), grafitga nisbatan kompozit mustahkamligini bir necha barobar oshiradigan, uglerod tolalaridan iborat.


Shuni e’tirof etish zarur-ki, kompozitsion materiallardagi uglerod tolalari na faqat mustahkamlikni oshiradi, balkim darzlarni tarqalishiga qarshilik ko‘rsatadigan mexanizm rolini ham bajaradi.

Uglerod-uglerodli kompozitlar turli raketa-kosmik konstruksiya elementlarida qo‘llaniladi (7.2-rasm).


Gipertovushli UA



Oksidlanish turg'unligi



Turboreaktiv dvigatellar



$$\sigma_e = 40 \text{ kN/mm}^2$$

$$T_p > 1200 \text{ } ^\circ\text{C}$$

Termik jihozlar

Uch fazali
isitgich



Sterjenli
isitgich




Yassi isitgich



$$\rho \leq 50 \cdot 10^{-6} \text{ OM} \cdot \text{M}$$

$$\sigma_u \geq 400 \text{ kN/cm}^2$$

Electron sanoati uchun reombarlar



$$T_p = 1200 \text{ } ^\circ\text{C}$$

muhit N_2O , NSI , O_2

7.2-rasm. Uglerod-uglerodli kompozitlarning qo'llanilishi

Uglerod-uglerodli kompozitlarning qo'llanish tarixi 25 yillarni tashkil etadi. O'tgan davr ichida raketa-kosmik texnika konstruksiyalarini erroziyadan himoyalash uchun keng spektrdagi materiallar ishlab chiqilgan.

Yuqori termoturg'unlikga va yuqori mexanik xossalarga (puxtalash strukturasiga qarab materialni cho'zilishdagi mustahkamligi 100 MPadan 1000 MPagacha o'zgaradi) ega zamonaviy uglerod-uglerodli kompozitlar texnikaning yangi turli yo'nalishlarida ularni qo'llash imkoniyatini beradi.


Uglerod-uglerodli kompozitlar na faqat raketa-kosmik konstruksiyalarining elementlarida, balki elektrtexnika sanoatidagi yuqori haroratlari pechlarni detallari (issiqlik izolyatorlari, tigellar, mahkamlovchi detallar, elektr isituvchi elementlar) qo'llaniladi (7.3-rasm). Ulardan issiq presslash uchun qoliplar, kimyoviy mashinasozlik truboprovodlarining agregatlari, aviatsiya, avtomobil texnikasi va tezyurar temir yo'l transportining tormoz moslamalari tayyorlanadi. Bu materiallar tibbiyotda endoprotezlar sifatida ham qo'llaniladi.

Uglerod-uglerodli kompozitlarning xossalari bir qator faktorlarga bog'liq: texnologik jarayon parametrlariga, matritsa va to'ldirgichlarning elastik va mustahkamlik xossalariga, matritsa-tola sistemasining chegara xarakteristikalariga ham. Kompozit xossalarini optimallashirishda yuqoridagi faktorlarni inobatga olish zarur.


Uglerod-uglerodli konstruktsiyalarni ishlab chiqish jarayonining asosi – sinchlarni ishlab chiqish texnologik jarayoni va ularni matritsa materiali bilan to'yintirish. Uglerod-uglerodli kompozitlarni va boshqa tolali materialarning xossalarini puxtalovchilarini joylashishiga (orientatsiyasiga) bog'liqligi turli vazifali detallarni ishlab chiqishda puxtalovchining optimal tipi va joylashish sxemasi asosiy faktor hisoblanadi.

Puxtalovchi (армирующие) elementlarni ma'lum va perspektiv (istiqbolli) turlari asosan geometrik prinsip (nuqtayi nazar) bo'yicha klassifikatsiyalanadi.

Mumkin bo'lgan puxtalash sxemalaridan uch sinf ajratib ko'rsatiladi (7.4-rasm): tolalar betartib joylashgan; ikki yo'nalishda tolalar va matolar orientirlangan (yo'naltirilgan); uch va undan ko'p yo'nalishda tolalar orientirlangan (yo'naltirilgan), ya'ni tolalarni fazoviy joylashishi.



7.3-rasm. Uglerod-uglerodli materiallarni xalq xo'jaligida qo'llanilishi



7.4-rasm. UUKM strukturasi:

a - betartib; b - qatlamlı; v- rozetkali; g - 3D ortogonal; d - 4D; e - 4D-L; j - 5D-L;
z - 5D; i - aksial-radial-aylanma; k - aksial-spiralsimon;
l - radial-spiralsimon; m - aksial-radial-spiralsimon.

Sinchning optimal strukturasini tanlash, matritsaning deformativ xossalari va matritsa-tola chegarasidagi adgeziyani, hamda yangi tipdagi to'ldirgichlarni qo'llash uglerod-uglerodli materiallarni mustahkamligini oshirishni boshqarish imkoniyatini beradi. 7.4- jadvalda ayrim uglerod-uglerodli materiallarni grafitga nisbatan ko'rsatgichlari keltirilgan.

Materialni oksidlanishga turg'unligini oshirish masalasi juda muhimdir. Bu masalani echish yo'llaridan biri qiyin eriydigan metallarning karbid va nitridlari asosidagi qoplamlalar paketini ishlab chiqarish.

Ayrim uglerod-uglerodli materiallarni ko'rsatgichlari

7.4-jadval

| № | UUKM t/r | Zichlik δ, g/sm³ | Ishqaganish- dagi mus- tahkamlik σ_i, kgf/sm² | Siqilish- dagi mustah- kamlik λ, kgf/sm² | Elastiklik moduliE• 10^3, kgf/sm² | Issiqlik o'tqazuv- chanlik λ, Vt/(m•K) | Chiziqli mustahkam- lik koeff.ti. $\times 10^4$ | Struktura |
|----------|------------------------------------|--|---|---|--|--|---|------------------|
| 1 | Yuqori modulli tola aso sida | 1,75 | 750 | 2000 | 300 | 6-8 | 2-3 | to'qilgan |
| 2 | Past modulli tola asosida | 1,50 | 800 | 1850 | 230 | 5 | 6 | mato sifat |
| 3 | Yuqori modulli tola asosida | 1,7 | 910 | 990 | 310 | 3,8 | 2,6 | mato sifat |
| 4 | Yuqori modulli tola asosida | 1,8 | 1000 | 2000 | 420 | 10 | 4 | to'qilgan |

Bunday qoplamlar UUKMlarga 2000°C dan ortiq haroratda ishslash imkoniyatini beradi.

Karbiddar, nitridlar va oksidlar asosida termoturg'un tolalar yangi sifini yaratish juda katta ahamiyatga ega. Bu tipdag'i to'ldirgichlarni sanoatda o'zlashtirish karbid-uglerod, karbid-keramik va karbid-karbidlar asosida termoturg'un kompozitsiyalarni yaratish va o'zlashtirish imkoniyatini beradi. UUKMlarni xalq xo'jaligida keng joriy etish uchun ularni tannarxini kamaytirish zarur.

Keramik matritsali kompozitlar. Uglerod-uglerodli issiqbardosh materiallar bilan bir qatorda keramik matritsali kompozitlar istiqbolli hisoblanadi. To'ldirgichlar sifatida bu kompozitsiyalarda metall, uglerod va keramik tolalar qo'llaniladi. To'ldirgichlarni yuqori mustahkamligi kompozitni zarur mexanik xossalarini va matritsani quyidagi xossalarini ta'minlaydi va yuqori haroratda qizdirilib ishlaydigan detallar tayyorlash imkoniyatini beradi: yuqori erish harorati, yuqori elastiklik moduli, kimyoviy inertligi va oksidlovchi muhitda ishslash imkoniyati. Kompozitni keramik matritsasini metall tolalari (volfram, molibden, po'lat va h.k.) bilan puxtalash uning mustahkamligini sezilarli oshiradi, lekin ishchi harorat darajasini pasaytiradi. Uglerod tolalari bilan puxtalash bu kamchilikni bartaraf etish imkoniyatini beradi. Uglerod tolalari bilan puxtalangan shisha matritsali keramik kompozitlar (borosilikat, alyumosilikat, kremnez-yom shishasi) hozirgi kunda keng qo'llanilmoqda. 0,6 koefitsiyent darajasida puxtalangan borosilikatli kompozitning bukilishga mustahkamligi 1025 MPa, elastiklik moduli - 199 GPa, deformatsiyalanish chegarasi 0,5% ni tashkil etadi. Harorat ortishi bilan (870 K gacha) mustahkamlik deyarli o'zgarmaydi. Kremnezyom shishasini qo'llash ishchi haroratni 1273-1373 K gacha oshirish imkoniyatini beradi.

7.4. Polimer asosli kompozitsion materiallar

Polimer matritsali kompozitsion materiallar bir qator afzalliklari bilan ajralib turadi, bular: solishtirma mustahkamlik va elastiklik xarakteristikalari, agressiv muhitlarda turg'unligi, yaxshi friksion, antifriksion va shu bilan birga yuqori issiqlikdan himoyalash hamda amortizatsion xossalar.

Afzalliklari bilan birga polimerli kompozitlar ayrim kamchiliklarga ham ega: siqilish va siljishda mustahkamlik va bikrlikni

pasayishi, haroratni 100-200°C gacha oshishi, mustahkamlikni pasa-yishiga olib keladi, eskirishda va iqlim omillari ta'sirida fizik-kimyoviy xarakteristikalarini (ko'rsatgichlarni) o'zgartiradi.

Hozirgi kunda plastiklar ulardan detallarni tayyorlash osonligi, arzonligi va texnologik jihatdan yengilliligi sababli keng qo'llanilmoqda.

Polimer matritsali kompozitsion materiallarda ta'sir etuvchi kuch matritsadan puxtalovchi elementga molekulalarni o'zaro ta'siri orqali uzatiladi va adgezion (yopishish) xarakterga ega.

Matritsa va tolalar orasidagi mustahkam bog'lanishni puxtalovchi tolalarni bog'lovchi eritmasi bilan to'liq namlanishi hisobiga ta'minlash mumkin. Bu holda tolalarning sirtiy taranglik energiyasi suyuq matritsaning sirtiy tarangligidan katta bo'lishi shart. Polimerlar orasida suyuq epoksid smolasi $5 \cdot 10^{-5}$ Dj/m² sirtiy taranglik energiyasiga ega bo'lib uglerod (C) va bor (B) tolalarini $(2,7-5,8) \cdot 10^{-5}$ Dj/m² va $2 \cdot 10^{-5}$ Dj/m² monand) boshqa polimerlarga qaraganda yaxshiroq namlaydi

Amalda tolalarning sirtiy taranglik energiyasi masalan, xurushlash (травление), oksidlash, viskerizatsiya usullari yordamida oshiriladi.

Polimer matritsali kompozitsion materiallardan detal tayyorlash va materialni o'zini olish jarayonini bir vaqtda bajarishga harakat qilinadi. Bu holda ko'p mehnat sarflanishiga qaramasdan kompozitsiyani barcha afzalliklari qo'l keladi va detalning tannarxi pasayadi (kamayadi).

7.5. jadvalda bir tomonlama yo'naltirilgan plastik va an'anaviy metall materiallarni fizik-mexanik xossalari keltirilgan.

Bir tomonlama yo'naltirilgan plastik va an'anaviy metall materiallarni fizik-mexanik xossalari

7.5-jadval

| Parametr | Shisha-plastik | Ugle-plastik | Organoplastik | Boro-plastik | Po'lat | Alyuminiy |
|--|----------------|--------------|---------------|--------------|--------|-----------|
| Zichlik δ , g/sm ³ | 2,1 | 1,5 | 1,38 | 1,9 | 7,8 | 2,7 |
| Mustahkamlik chegarasi, GPa: tola bo'ylab, | | | | | | |
| | 1,75 | 1,1 | 1,8 | 1,6 | 3,8 | 0,29 |

| | | | | | | |
|--|---------------|---------------|---------------|--------------|-----|------|
| siqilishda, surilishda | 0,65 0,048 | 0,45 0,027 | 0,28 0,042 | 2,4 0,102 | | |
| Tola bo'ylab cho'zilishdagi nisbiy mustah- kamlik, σ_r/δ , g/sm^3 | 83 | 73 | 130 | 80 | 50 | 11 |
| Elastiklik moduli, GPa: tola bo'ylab | 57 | 180 | 72 | 210 | 200 | 70 |
| Solishtirma bikrlik, $F/\gamma \cdot 10^{-6} \text{ m}$ | 2,7 | 12 | 5,3 | 10,5 | 2,5 | 0,28 |
| Siljish moduli, GPa | 5,2 | 5,0 | 2,0 | 6,2 | - | - |

BMK tipidagi *boroplastiklar* epoksid va poliamid bog'lovchilar asosidagi polimer materiallar deb tushiniladi. To'ldirgichlar sifatida bu kompozitlarda bor yoki kompleks bor-shisha tolalar qo'llaniladi. Boroplastiklarni mexanik xossalari tolalar miqdoriga bog'liq (7.6-jadval).

Boroplastiklar uchish apparatlarining turli detallari, konstruksiya elementlarini bog'lovchi qismlari gazturbina dvigatellarini rotorlari va boshqa detallarni tayyorlashda qo'llaniladi.

Organotolaliklilar (organitlar) polimer tolalar va polimer matrit-sadan tashkil topgan kompozitsion materiallardir. Tolalar diametri 0,02-0,05mm ni tashkil qiladi.

Organotolaliklilarning xususiyati shunda-ki, yuqori mustah-kamlikga erishish uchun tolalarni joylashda juda aniq usul tanlash lozim, aks holda tolalarni joylashtirishning aniqligi buzilish natijasida tolalar mustahkamligi ishlov berishdan avvalgiga nisbatan 2-5 barobar kamayadi.

Mustahkamlikni kamayishining sababi tolalarning kimyoiy aktivligi va yuqori deformatsiyalanishida. Shuning uchun organotolaliklilarni tayyorlash texnologiyasi shisha va ugleplastiklarnikidan o'zgacha.

Ugle - bor va organoplastarning mexanik xossalari

| Material | Bog'lovchi To'ldirgich | ρ , g/sm ³ | 7.6-jadval | | | | |
|--|---------------------------|-------------------------------|-------------------------------|-----------------|--|--|--|
| | | | σ_{v} σ_{-1} | E ²⁰ | σ_{v} / ρ | | |
| | | | MPa | Shartli birlik | (E ²⁰ / ρ) \cdot 10 ³ | | |
| Ugleplastiklar: KMU-1U KMU-2L | Epoksid Poliamid | VMN-4 LU-2 | 1,020 | 500 | 1,45 \cdot 10 ⁵ | | |
| | | | 380 | - | 8 \cdot 10 ⁴ | | |
| Boroplastiklar: KMB-1 organotolali | Epoksid Epoksid | Bor SVM | 2,0 | 350 | 1,89 \cdot 10 ⁵ | | |
| | | | 1,35 | 240 | (3,9) \cdot 10 ⁴ | | |
| | | | 600- 2500 | - | 44-185 | | |
| | | | | | 66,6 | | |
| | | | | | 14,0 22,2- 66,6 | | |
| | | | | | 45 150 | | |

Organitlarning afzalligi matritsa va tolaning ko'ndalang yo'nalihdagi siljish mustahkamligi bilan solishtirganda matritsa va tola o'rtasidagi bog'lanishning yuqori adgezion mustahkamligida.

Matritsa va tola chegalari bo'yicha organitlarda darzlar yo'q, chunki matritsa va tola o'rtasida kimyoviy bog'lanish hosil bo'ladi. Ular yuqori monolitlikga, shisha plastiklarga nisbatan kam nuqsonlarga ega.

Organitlarni asosiy to'ldirgichlari bu yuqori mustahkamlikga ega modifikatsiyalangan sintetik organik tola- SVM.

Asosiy kamchiligi organitlarni – yuqori darajada namlikni yutishi, bu esa suvni ta'sirini sintetik tolalarni butun hajmi bo'icha yoyilishiga olib keladi.

Organitlarda tola sifatida quyidagi tolalar qo'llanilishi mumkin: poliefirli-lavsan; poliamid-fenilon, sulfon-T, oksalon, terlon, SVM; poliakrinitril-nitron; poliamidli-arimid. Organitlarning mexanik xossalari tola tipiga bog'liq.

Zamonaviy kompozitsion materiallar ichida organotolaliklar cho'zilishda eng yuqori solishtirma mustahkamlikga ega. Ular samolyot va vertolyotlarning yordamchi va asosiy konstruksiya elementlarida qo'llaniladi. Organitlar nafaqat detallar massasini 20-40%ga kamaytirib qolmay ularni ekspluatatsion ishonchligini, yashovchanligini (живучест) va resursini oshiradi.

Polimer matritsali kompozitsion materiallarning xossalari

Shishali plastik materiallarda (stekloplastiklarda) to'ldirgich sifatida shisha tolalar qo'llaniladi:

- uzliksiz ip, jgut (chilvir), polosa, hamda turli xil to'qilgan matolar;

- diskret (uzlik) – kesma yoki shtapel.

Bir tomonga yo'naltirilgan shisha tolalarida (стекловолокнити) puxtalovchi uzlusiz tolalar bir yo'nalihsda - yuklama ta'sir etuvchi tomonga joylashgan. Bunday tolalar anizotropik xossaga ega.

Bunday kompozitsiyalar tolalar bo'ylab eng yuqori mustahkamlik va bikrlikga ega. Ushbu kamchilikni yo'naltirib puxtalangan shishali plastiklarda tolalarni turli yo'nalihsda joylashtirib bartaraf etish mumkin.

Shisha tolali anizotrop materialda (SHTAMM) tolalar bir biriga nisbatan 90° burchak ostida joylashtiriladi, agar tolalar ko'ndalang va bo'ylama bir biriga 1:1 nisbatda joylashtirilsa SHTAMM quyidagi xossa ko'rsatgichlarga ega bo'ladi: $\sigma_b = 460-500$ MPa va elastiklik moduli $E \geq 35000$ MPa. Tolalar 10:1 nisbatda joylashtirilgan holatda mustahkamlik chegarasi 850-950 MPa gacha oshadi, elastiklik moduli esa - 58000 MPa

BM-1 yuqori mustahkamlikga ega tola bilan bir tomonga yo'naltirilan kompozit puxtalangan bo'lsa: $\sigma_b = 2100$ MPa, $E \geq 70000$ MPa.

Kompozitlarning mustahkamligi to'ldirgichni uning tarkibidagi hajmi oshishiga bog'liq va additiv qonun bo'yicha ortib boradi. To'ldirgichni optimal miqdori kompozitda 65-67 % ni tashkil etadi, undan ortishida bog'lovchi ichida g'ovaklar hosil bo'ladi, bu esa tolalarni notejis yuklanishiga olib keladi.

Tolalar diametrini kichraytirib va matritsaga Al_2O_3 monokristallarini qo'shish hisobiga kompozit mustahkamligini 2000-2400 MPa gacha oshirish mumkin.

Shisha iplardan (tolalardan) puxtalovchi sifatida qo'llanadigan matolar tayyorlanadi. Shisha matolar iplarni to'qilishi bo'yicha polotno, sarja, satin va kord (pishiq kimyoviy ip turi) to'qilishdagi matolarga ajraladi.

Polotno to'qilishdagi matolar yuzasida bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishda iplarni joylashishi mato bikrligini oshiradi.

Satin matolarda iplar siyrak to'qilgan, shisha tolalarini mo'rtligi va o'zaro ishqalanib bosim ostida sinishini nazarda tutsak, satin to'qilishdagi puxtalovchili shisha plastiklar (steklotekstolitlar) mustahkamligi yuqoriroq va konstruksiyalarda yaxshiroq ishlaydi.


Kord matolari asosida iplar kuchaytirilgan bo'lib ko'ndalang iplar ingichka va siyrak bo'ladi. Mahsulot ishlab chiqarishda asosiy iplar yuklama ta'sir etish yo'nalishi bo'ylab joylashtiriladi va ular asosiy cho'zvuchi yuklamani qabul qiladi. Kord matolar bilan puxtalangan kompozitlar (stekloplastiklar) katta anizotropik xossalarga ega.

Fenolformaldegid bog'lovchi asosidagi KAST tipidagi steklotekstolitlar deyarli kichik zarbiy qovushqoqlikga ega. Bog'lovchi sifatida epoksid smolasidan tashkil topgan yuqori issiq bardoshlikga ega CT911-1A shisha plastik (stekloplastik) eng yuqori zarbiy qovushqoqlikga ega.

Yo‘naltirilmagan shisha tolali kompozitlar (стекловолокнитлар) tekislikda tartibsiz joylashgan diskret, kalta tolalardan tashkil topgan.

Yo‘naltirilgan shisha tolali kompozitlarga nisbatan yo‘naltirilmaganlari izotrop xossaga ega, lekin ularning mustahkamligi va bikriliги pastroq (7.4-rasm).

Shisha plastiklarning zichligi $1500-2000 \text{ kg/m}^3$ ga teng, natijada ularni solishtirma mustahkamlik ko‘rsatkichlarini po‘latlarning mustahkamligi bilan taqqoslash mumkin.




7.4-rasm. To‘ldirgich miqdoriga qarab yo‘naltirilgan (1) va yo‘naltirilmagan (2) shisha plastiklarning mustahkamligi.

Shisha plastiklar uzoq vaqt $200-300^\circ\text{C}$ da ishlash imkoniyatiga ega. Ular bir necha ming gradus harorat ta’siriga ma’lum soniyalar ichida chidaydi, bu shisha plastiklarni yuqori haroratdagi imkoniyatlariiga bog‘liq. O‘ta yuqori haroratlarda plastiklar yuzasi kuyib bog‘lovchini parchalaydigan (destruksiya) gaz birikmalarini o‘zidan ajratib chiqaradi. Ajralib chiqayotgan moddalar issiqlikni yutadi va shisha plastik yuzasiga ta’sir etadigan issiqlik oqimini kamaytiradi. Shisha plastikning yuza zonalarini erib yuza qatlamlarida issiqbardosh

koksnini hosil qilishi materialni ichiga ta'sir etuvchi issiqlik oqimini kamaytirib parchalanish jarayonini sekinlashtiradi.

Shisha plastiklarning davomli mustahkamligi ularni tarkibi, namligi, atrof muhitni harorati va ta'sir etuvchi kuchlanishlar darajasiga bog'liq. Epoksid va fenolformaldegid smolalari asosidagi shisha plastiklar juda yaxshi xossalarga ega. Ayrim steklotekstolitlar bukishda $1,5 \cdot 10^7$ siklga chidashi mumkin. Turli matritsali steklotekstolitlarni toliqishga dinamik qarshiligi 7.5-rasmida keltirilgan.



7.5-rasm. Fenolformaldegid (1), epoksid (2), poliefir (3), kremniyorganik (4) matritsali shisha plastiklarni toliqishga dinamik qarshiligi.

Shisha plastiklarning dempfer (so'ndiruvchi) xossalari metallaridan yuqori bo'lib ular vibratsiya (tebranish) sharoitida yaxshi ishlaydi. Qo'llanish sohasi bo'yicha shisha plastiklar quyidagilarga bo'linadi: konstruksion, elektrtexnik va radiotexnik.

Konstruksion material sifatida bir tomonga yo'naltirilgan va yo'naltirilmagan shisha plastiklar qo'llaniladi.

Bir tomonga yo'naltirilgan shisha tolaliklar ekspluatatsiya sharoitida yuklamalar detalni bo'yи (uzunligi) bo'yicha ta'sir etadigan truba va turli xil profillar ishlab chiqish uchun qo'llaniladi.

Konstruktsiyalarni katta yuklanish ostida ishlaydigan joylariga qo'shimcha puxtalash uchun bir tomonga yo'naltirilgan shisha plastiklardan ustqo'ymalar (накладка) yopishtiriladi. Bu esa konstrukcion materiallarni tejash va loyihalashda metall konstruksiyalar uchun qo'llaniladigan usullarni ishlatish imkonini beradi.

Yo'naltirilmagan shisha tolali kompozitlar avtomobil, kema korpuslari, mebel, kuchli elektr jihozlari detallari ishlab chiqish, maishiy va temir beton konstruktsiyalarni qoplash uchun ishlatiladi.

Chapparasta (перекрёстный) armaturalangan (puxtalangan) materiallar qobig'li detallar, samolyot qanoti seksiyalari, fyuzelyaj va dum qanoti uchun qo'llaniladi. Bu materiallardan plitalar, trubalar, raketa va qattiq yoqilg'ili dvigatellarning korpuslari, yuqori bosim ostida ishlaydigan idishlar, vertolyot parraklari, radiolokatsion obtekatellar, yoqilg'i baklari, press-formalar, transformator izolyatorlari, kimyoviy mashinasozlik idishlarini futerovkasi, turli texnika sohalarining mahsulotlari ishlab chiqiladi.

7.5. Funksional keramika. Metallokeramika

Funksional keramika

Maxsus detallar va qurilmalar yaratish uchun xossalari yaqqol ifodalanuvchi materiallar *funksional material* deyiladi. Bu maxsus fizik xossalarga: elektrik, magnit, issiqlik, optik, p'yezoelektrik va boshqa xossalarga ega materiallar bo'lishi mumkin.

Funksional materiallarga energiya akkumulyatorlari, vodorod to'plagichlar, katalizatorlar, sensor materiallar tegishli.

Funksional keramik materiallar masalan rezistorlar – NbC, SiC; filtrlar (g'ovakli mahsulotlar) – ZrO₂, ZrC, SiC, Al₂O₃, TiB₂, Si₃N₄, termoelementlar - ZrB₂, TiC, elektrodlar - SiC, LaB₆, Y₂O₃ va h.k. sifatida qo'llaniladi [].

Segneto - va p'yezoelektrik keramika radioeletronika, gidroakustika va maishiy texnikada keng qo'llaniladigan, turli texnologik usullarda tayyorlanadigan, o'zining har qanday fizik ta'sirni sezadigan maxsus keramik materiallar ichida alohida sinf bo'lib ajralib turadi.

P'yezokeramikani ishlab chiqarish uchun sun'iy ravishda sintez qilingan kimyoviy birikmalar - segnetoelektriklar xomashyo sifatida qo'llaniladi.

Hozirgi kunda segnetoelektriklar keramikaning keng tarqalgan turlari – alohida birikmalar asosidagi (bariy titanati) bir fazali keramik materiallar, ikki tarkibli yoki uch tarkibli qattiq eritmalar (qo‘rg‘oshin sirkonat–titanati).

Qattiq eritmalar asosidagi keramikalarga oz miqdorda modifikatorlarni qo‘shish strukturani deyarli o‘zgartirmaydi, lekin elektrofizik xossalari ancha o‘zgaradi, bu o‘z navbatida har xil tarkibli amaliyotda turli vazifa bajaruvchi material yaratish imkoniyatini beradi.

Elektrofizik xossalari kislorod tarkibli birikmalar (qattiq eritmalar) – p’yezokeramika olishda tarkibi, strukturasi va tayyorlash sharoiti orasida o‘zaro bog‘lanish mavjud.

Keramik materiallarda tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lgani sababli turli ichki va tashqi nuqsonlar mavjud : g‘ovaklar, qo‘shimchalar, mikrodarzlar.

G‘ovaklar keramikaning yemirilishiga ta’sir etuvchi faktorlardan biri hisoblanadi, bu ularni soni, shakli, o‘lchami va joylashishiga bog‘liq.

Odatda g‘ovaklar donachalarni chegarasida, ayniqsa bir nechta donalar birikkan joyda yig‘iladi. Yuqori zichlikga ega bo‘lgan ($> 90\%$) materiallarda ham aksariyat donachalarni chegarasida mikrog‘ovaklar mavjud.

G‘ovaklar kuchlanish kontsentratorlari bo‘lib donachalar zaif bo‘lgan joylar - chegarasida darzlarni yo‘nalishini o‘zgartirishi mumkin. Undan tashqari donalar ichidagi mikrog‘ovaklar ham yemirilishning sababi bo‘lishi mumkin. Yemirilish sababi bo‘ladigan g‘ovaklar o‘lchami 20–200 ni mkm tashkil etadi.

Nisbiy g‘ovaklikni 0 do 0,05 miqdorida o‘sishi dielektrik o‘tkazuvchanlikni chiziqli, biroz qiyalik bilan kamayishi aniqlangan.

Yuqori dielektrik o‘tzazuvchanlikli keramika olishda nisbiy g‘ovaklikni kamaytirish katta ahamiyatga ega.

Nazariy zichlikga 99 % ega bo‘lgan yirik donali (dona o‘lchamlari 1,2 - 60 mkm) keramikaning dielektrik o‘tzazuvchanligi deyarli yuqori ko‘rsatgichlarga ega. Shuni ta’kidlab o‘tish zarurki, o‘rtacha dona o‘lchamlari 1 mkm bo‘lgan keramikaning zichligi ~82% gacha kamaysa dielektrik o‘tzazuvchanlik ahamiyatli darajada kichiklashadi.

Hozirgi kunda p'yezokeramikani qo'llanilishini yoki ishlab chiqalirilishi elektrofizik xossalari kimyoviy tarkibini o'zgartirish hisobiga batamom tugadi. Izlanishlar quruq nanokukunlarni kompaktlash (zichlash) bir tekis taqsimlanish hisobiga murakkab shaklli detallarni olishda qo'llash usuli yaratildi. Bu usulda pishirib (qizdirib biriktirish) olinadigan detallarda qo'shimcha g'ovaklikni, ichki kuchlanishlarni va makronuqsonlarni (darzlar, qatlamlarga ajrash) hosil bo'lishiga sabab bo'ladigan plastifikatorlar qo'shilmaydi.

Shaffof optik keramika funksional keramika sinfiga kiradi. Shaffof keramik materiallar deyarli g'ovaksiz strukturaga ega. Shu sababli bu materiallar o'xshash keramik materiallarga xos xususiyatlarini saqlagan holda yorug'likni o'tkazadi.

Oddiy keramik materiallarga qaraganda shaffof keramikalar yuqori zichlikga ega bo'lGANI, tarkibida shisha fazasini yo'qligi ularni agressiv muhit ta'siriga chidamliroq va mexanik ishlov berganda yuqori yuza tozaligini ta'minlaydi.

Tarkibi o'xshash bo'lgan keramik materiallarga nisbatan shaffof keramikalar yuqori zichligi, yorug'lik o'tkazuvchanligi, yuqori yuza tozaligiga ega mahsulotlarni olish imkoniyati ularni yanada kengroq qo'llanishiga olib keldi.

Keng qo'llaniladigan shaffof keramikalar qatoriga alyuminiy oksidi asosidagi keramika oid desa bo'ladi. Bu keramika nur tarqatuvchi yuqori bosimli natriy lampalarini qobig' – trubkalarini ishlab chiqish uchun qo'llaniladi.

Bu lampalar galogen, simobli va cho'g'lanish lampalariga nisbatan yuqori yorug'ligi bilan farqlangani sababli iqtisodiy jihatdan arzonroq. Ittriy va magniy oksidi, sirkoniy ikki oksidi, alyumomagnezial shpineli, berilliyl oksidi, titan ikki oksidi va boshqa tarkibdagi materiallar xomashyoni qimmatligi, texnologik jarayonni murakkabligi va maxsus asbob-uskunalar talab qilganligi sababli keng qo'llanilmaydi.

Shaffof keramik materiallarni paydo bo'lishi texnikani yangi yo'nalishlari, agressiv muhitda, yuqori haroratlarda va bosimlarda, tunda ko'rish imkoniyatiga ega maxsus asbob-uskunalar yaratilishiga bog'liq. Ushbu maqsadda shisha ishlatish asboblarni ishslash imkoniyatlarini ancha chegaralar edi.

«Shaffof» (tiniq) terminini aniq tarifi yo'q. Yaponiya tadqi-qotchilar qalinligi 1mm bo'lgan noorganik kukunlardan qizdirib

biriktirish usulida olingen, sayqallanmagan va u orqali qog'ozdag'i teksti o'qish imkoniyatini beruvchi materialni shaffof termini bilan yuritadilar, bu esa 40%dan ortiq yorug'lik o'tkazuvchanligiga teng.

Bir qator taddiqotchilar shaffof shisha o'rniغا yorug'lik o'tkazuvchi terminini yuritadilar. Yorug'lik nurlarini o'tkazuvchi keramika yorug'lik texnikasi, optika, maxsus asbobsozlikda, radioelektronikada, yuqori haroratda ishlaydigan texnikada tobora keng qo'llanilmoqda.

Keramikani shaffofligiga ta'sir etuvchi asosiy faktorlar: kris-tallarni ko'p fazaliligi (geterogennost), strukturani xarakteri, kristallarni o'zaro joylashishi, o'lchami, shishasimon va gaz fazasining mavjudligi.

Optik o'qlar bo'yicha sinish koeffitsiyenti nolga teng bo'lganligi, ya'ni nizotropiyasi yo'q kristall struktura eng yaxshi hisoblanadi.

Bu – o'qlar bo'yicha sinish koeffitsiyentlari o'zaro teng bo'lgan kub singoniya. Kristallarni yo'naltiriganligi (kub singoniya bo'lgan holda) keramikani yorug'lik o'tkazishini oshiradi, tartibsiz joylashishi esa shaffoflikni pasaytiradi, chunki yorug'lik yo'naltirilgan holda o'tish o'rniغا tarqalib ketadi.

Kristallarni o'lchami yorug'likni tarqalishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yorug'likni maksimal tarqalishi tushayotgan nur uzunligi kristall o'lchamiga teng bo'lgan holda sodir bo'ladi. Shuning uchun spektrni to'lqin uzunliklari 0,4 - 0,8 mkm bo'lgan ko'zga ko'rindigan zonasida yorug'lik o'tkazadigan keramik materiallarda kristall o'lchamlari 0,4 - 0,8 mkm bo'lishi mumkin emas. Kristall fazani sinish koeffitsiyenti keramik materialni sinish koeffitsiyentidan farqli bo'lganda tarkibida shishasimon fazaning mavjudligi shaffoflikni pasaytiradi.

Yorug'likni o'tkazishga ayniqsa gaz fazasini (g'ovaklar) mavjudligi salbiy ta'sir ko'rsatadi, gaz fazasida nurni sinishi kristall fazasinikidan keskin farqlanadi. Masalan, alyuminiy oksidi ($Al_2 O_3$) uchun u 1,76, havo uchun – 1,0 ga teng.

Polikristall alyuminiy oksididan tashkil topgan keramikaning yorug'likni o'tkazishi g'ovaklikga, namuna qalinligiga, keramikadagi qo'shimchalar turi va miqdoriga, kristallar diametriga va tushayotgan yorug'lik to'lqini uzunligiga bog'liqdir.

Shu bilan birga monofazали keramikani shaffofligiga ta'sir etuvchi muhim faktor – uning sinish ko'rsatgichi. Keramik materialni sinish

ko'rsatkichi qancha yuqori bo'lsa shuncha tushayotgan yorug'lik to'lqini uzunligi kichrayganda shaffof materialning mutloq tekis yuzasidan nur qaytariladi.

Shaffof keramik materiallarni qo'llanish sohasi nafaqat ularni yorug'likni o'tkazish qobiliyati, balki shu materiallarga xos turli ishchi xossalari majmuasi: olovbardoshlik, agressiv muhitlarda turg'unligi, termomexanik va elektr xossalari, g'ovaklikni mavjudligi yoki yo'qligi va h.k. bog'liqdir. Lekin aksariyat hollarda shaffof keramik materiallarni qo'llanishida yuqorida keltirilgan muhim xossalarni hisobga olish bilan birga uning shaffofligi asosiy rol o'ynaydi.

Shaffof keramika yorug'lik texnikasi (natriy lampalarini tay-yorlash), asbobsoz optikasida (linzalar, detektorlar, filtrlar, lazerlar va h.k.). Bu maqsadlarda «Lukaloks», «Ittraloks», berilliy keramikasi qo'llaniladi.

VIII BOB. MAXSUS XOSSALI QOTISHMALAR

8.1. O'ta toza materiallar. Amorf holatdagi monokristall qotishmalar

Materialarning haqiqiy xossalari faqat o'ta sof holda olingan-dagina namoyon bo'ladi (aniqlanadi).

Har bir metallni o'zining eng zararli aralashmalari (qo'shimchalari) bor, masalan: molibdenda – kislород, xromda – azot, volframda – uglerod, titanda – vodorod, alyuminiya – temir, nikelda – qo'rg'oshin va vismut, temirda – fosfor va oltingugurt, magniyda – nikel va h.k. Metallarni bu qo'shimchalardan tozalash xossalarni yaxshilash imkoniyatini beradi. Masalan molibden tarkibida 0,02 % kislород bo'lganida 300°C da mo'rtlashadi, tarkibida 0,0001 % kislород bo'lganda esa o'ta past harorat -196°C da mo'rtlashadi.

Zararli qo'shimchalar nafaqat metallarda, balki qotishmalarda mavjud. Hozirgi kunda qotishmalarni konstruksion mustahkamligi va ishonchliligini oshirishni jadal rivojlanayotgan yo'naliishlaridan bira toza (t) va o'ta toza ($\alpha\cdot t$) qotishmalarni ishlab chiqarishdir. Yuqori soflikga ega qotishmalarni olish uchun yangi usullar yaratildi. Bu usullarga zonali va garnisaj eritish, vakuum, yoyli va elektron-nurli pechlarni qo'llash kiradi. Kelajakda, kosmik fazoni o'zlashtirish toza va o'ta toza materiallarni tigelsiz va konteynersiz chuqur vakuumda olishni va shu bilan birga turli gaz qo'shimchalaridan tozalash imkoniyatini beradi.

Monokristall materiallar

Monokristall holatdagi metallar yuqori soflik darajasi va minimal struktura nuqsonlari mayjudligi bilan farqlanib turadi. Bunday holat metall va qotishmalarni monokristall ko'rinishda olganda donalar chegarasining nazorat qilib bo'lmaydigan struktura o'zgarishlariga ta'sirini imkon qadar kamaytiradi.

Monokristallar katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Nazariy – metallarni tabiatga bog'liq bo'lgan fizik-kimyoviy xossalarni aniqliq

baholash, amaliy – struktura jihatdan mukammal va yuqori soflikga ega konstruksion materiallarni yangi sinfini olishdan iborat.

Monokristallar texnik toza polikristall metallarda mavjud bo‘lmagan noyob xossalarga ega. Masalan, mukammal strukturali ipsimon temir monokristallarining mustahkamlik va oquvchanlik chegaralari polikristall temirnikidan 2-3 barobar yuqori. Molibden va volfram monokristallari to‘g‘iliy haroratigacha plastiklikga ega, o‘ta o‘tkazuvchan bo‘lib, seziy, kaliy va boshqa ishqoriy metallar plazmasida barqarordir.

Monokristallarni sun‘iy ravishda – turli eritmalardan, metallar eritmasidan, bug‘ fazasidan va bitta kristallanish markazini o‘sishiga sharoit yaratgan holda qattiq fazada o‘stiriladi.

Ma’lum bo‘lib tarqalgan usullardan – eritmadan monokristallni cho‘zib olish (Bridjmena va Choxralskiy usullari). Olinadigan monokristallarni diametr o‘lchami (ipsimon kristallar) bir necha mikrondan o‘nlab millimetrgacha. Choxralskiy usuli yordamida sanoatda katta o‘lchamli ipsimon monokristallar o‘stirish mumkin (diametri 40-80mm, uzunligi 200-300mm).

Aviatsiya asbobsozligida turli tarkibli yarim o‘tqazgich monokristallaridan triodlar, kondensatorlar, tranzistorlar ishlab chiqarish uchun qo‘llaniladi.

Yirik monokristallarni olish uchun plazma usuli, Verneyl usuli (tomizg‘i – затрава yuzasiga kukunlarni suyultirib qoplash) qo‘llaniladi.

Mikroelektronika, hisoblash texnikasi, aviatsiya asbobsozligi detallari yuzasiga zarur xossalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lum shaklli yupqa, yo‘naltirilgan qatlamlı monokristallarni gaz fazasidan o‘stiriladi.

Monokristallarni xossalariiga sofliji va strukturani mukammalligi (benuqsonligi) ta’sir etadi, bu esa o‘z navbatida yana soflikga bog‘liqidir. Oz bo‘lsa ham qo‘shimchalarni paydo bo‘lishi ko‘pgina kristallografik nuqsonlarni hosil bo‘lishiga olib keladi. Odatda monokristallarni mukammalligi mikro va makro darajada o‘rganiladi.

Makronuqsonlarga chegaralarini ikkilanishi, bloklarni katta burchak ostida yo‘nalishini buzilishlari kiradi. Mikronuqsonlarga – dislokatsiyalar va turli nuqtaviy nuqsonlar (ваканциялар,— atomi) kiradi.

Qotishmalar monokristallarini o'stirish yaxshi o'zlashtirilmagan, chunki qotishmalar legirlovchi elementlarni qo'shishda joriy qilingan aralashma (примеслар) bilan ifloslanadi. Shuning uchun ham monokristall qotishmalarda yo'nalishlarni buzilishi va dislokatsiyalar zichligi ko'proq. Monokristall qotishmalarni mukammalligini ishlab chiqarishda kimyoviy jihatdan sof legirlovchi elementlarni qo'shish hisobiga oshirish qiyin masala, chunki legirlovchi qo'shimchalarni ham o'ta sof holda olish zarur.

Qiyin eriydigan metallar (W, Mo, Ta, Nb, Re va h.k.) va ularni bir fazali qotishmalari keng qo'llaniladi. Monokristallarni ishlov berishga qulayliligi, jumladan polikristall holatda mo'rt volfram va molibdenden murakkab shaklli detallar ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Qiyin eriydigan metallar monokristallarining issiq bardoshligi va noyob xossalalar kompleksi ularni aviakosmik texnikasining elektron asbobsozligi detallarida keng qo'llanishini ta'minladi.

Gazoturbinali dvigatellar lopatkalarini monokristall materiallardan tayyorlash konstrukturлarni juda dolzarb masala. Jumladan, monokristall nikel qotishmasidan reaktiv dvigatellari lopatkarining siljinuvchanlikga va zarbiy yuklamalarga qarshiligi an'anaviy quyma lopatkalarnikiga nisbatan ikki barobar ortishi tajribalarda tasdiqlandi.

Monokristall lopatkalarini keng qo'llash murakkab legirlangan monokristall qotishmalarni texnologik qiyinchiliklar va murakkab shaklli detallarga ishlov berish muammolari bilan chegaralanadi.

Butun dunyoda monokristall materiallarni rivojlanishiga katta ahamiyat beriladi. Birinchidan – zamonaviy texnika konstruksion va maxsus materiallarga tobora yuqori va qat'iy talablar qo'ymoqda, bu talablarni faqat monokristall materiallar ta'minlashi mumkin.

Ikkinchidan - monokristall materiallar sohasidagi tadqiqotlar nati-jalariga qattiq jism fizikasi sohasining fundamental tadqiqotlarining yutuqlariga asoslangan, bu esa radioelektronika, asbobsozlik, energetika va boshqa yo'nalishlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq.

Amorf holatdagi metall qotishmalar

Amorf holatdagi metall qotishmalar ilmiy va texnik jihatdan katta qiziqish uyg'otadi (amorf qotishmalar yoki amorf metall shishalar). Amorf struktura eritmadan yoki gaz muhitidan kristallanish markazlari va ularni o'sishini to'xtatganda o'ta tez sovish tezligi

natijasida hosil bo'ladi ($\sim 10^7 - 10^8$ K/s). Barcha sof metallar, qotishmalar va yarimo'tkazgichlarni qattiq amorf holatda olish mumkin.

Amorf holatga o'tish murakkab jarayon bo'lib ko'pgina faktorlar majmuasi ta'siriga bog'liqligi aniqlangan va ikki guruhga bo'linadi: tashqi (sovish tezligi) va ichki (eritma qovushqoqligi, kristallanishning harorat intervalining - oraliqdagi holati va miqdori, kristallanish markazlarining hosil bo'lish tezligini bu intervalda va boshqalarni haroratga bog'liqligi).

Hulosa qilib aytsa bo'ladiki, amorflanishning ichki faktorlari atomlar tuzilishiga va atomlararo ta'sir xarakteriga bog'liqdir.

Qattiq amorf holatni fiksatsiya qilishni ta'minlovchi eritmani boshlang'ich o'ta sovutish natijasida qotishmada katta morfologik o'zgarishlar ro'y beradi.

Strukturadagi o'zgarishlar qotishma xossalarni keskin yaxshilanishiga olib keladi, bu esa yangi texnologiyalar asosida zarur xossali materiallarni yaratishda yangi imkoniyatlar beradi.

Masalan, metalli shishalar mustahkamligi yuqori qattiqlik, yaxshi plastiklik, korroziyabardoshlik va yeyilishga chidamlilikni mujassam qilgan holda, zamонавиј eng mustahkam po'latlarga teng bo'ladi.

Amorf qotishmalar siklik sinalganda ularni uzoq vaqt ishlash bir xil mustahkamlikga ega po'latlarnikiga nisbatan uch barobar ortiqligi aniqlandi.

Elektr va magnit xossalari tadqiqot qilinganda amorf metallar kristall metallarga nisbatan 2-3 barobar ortiq solishtirma elektr qarshilikka ega ekanligi aniqlangan.

Amorf metallar yuqori mexanik, magnit, korroziyabardosh va boshqa xossalarni o'zida jamlagani, ularni olish texnologiyasi deyarli soddaligi an'anaviy kristall materialni almashtirishni iqtisodiy jihatdan to'g'ri deb topildi.

Monokristall qotishmalar

Ftorid usulida olingan amorf kremnezjom nanostrukturasi


Kremnezjom – turli maqsadlarda qo'llaniladigan noyob material: rezina, elastomer, plastmassa ishlab chiqarishda to'ldirgich, o'simliklarni himoyalovchi vosita va katalizator, neft mahsulotlarini regeneratsiyalashda sorbent va filtrlovchi kukunlar, rangli metalluriya jarayonlarida yuqori sifatli flyus, kanazit – ekologik jihatdan toza

(sof) shisha, shisha idishlar va billur ishlab chiqarishda, oziq-ovqat sanoatida mahsulotlarni o'rash uchun tayyorlanadigan qog'oz va kartonlarda to'ldirgich, yog'-moy, pivo, sharbatlarni filtrlovchi kukunlar, lok-bo'yoqlarga rang beruvchi qo'shimchalar sifatida; mashinasozlikda – keramik dvigatellarni, kosmik kemalar detallarini, elektron va elektrotexnik sanoatda kristall kremniyi ishlab chiqishda va boshqa sohalarda qo'llaniladi.

Rossiyada o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida kvars qumlarini ftorammoniy reagentlari bilan ftorlash natijasida boradigan fizik-kimyoviy jarayonlar to'g'risida ma'lumotlar olindi.

Ekologik jihatdan gadsiz texnologiya bo'yicha amorf kremnez-yom olish imkoniyati aniqlandi (8.1-rasm).

Har bir obyektni o'rnni bilish uchun uning strukturasi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish zarurdir. Bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish namuna element tarkibi va morfologiyasida sezilarli o'zgarish-larga olib keladi.



8.1-rasm. Kvars qumlaridan kremnezjom va boshqa foydali komponentlarni ajratib olish uchun kompleks qayta ishlash
(ishlov berish) texnologik sxemasi

Boshlang'ich va olingan kremniy dioksidi kattalashtirish diapazoni 12-257000 va elementlarni Na dan U gacha qayd etuvchi integrallashtiruvchi energodispersli RONTEC spektrometr bilan katta

chuqurlikdagi tiniqligi LEO – 1420 analitik rastr elektron-zond mikroskopida bat afsil tadqiqot qilindi.

Morfologik xususiyatlarni tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich kvars qumi zarrachalarining o'lchami 800mkm dan 2,7mm gacha o'zgaradi.

Boshlang'ich kvars qumi zarrachalari aksariyatining yuzasi tabiiy agressiv muhitlarni va mexanik shikastlanishi natijasida deformatsiya yalangan strukturaga ega.

Juda katta kattalashtirishda mikrostrukturaning kichik konglomeratlarining tadqiqoti ular o'z navbatida o'lchamlari 20nm bo'lgan birlamchi zarrachalardan - yanada kichik sfera shaklidagi tashkil etuvchilardandligi aniqlandi.

Energodispersion spektrlarning tahlili ko'rsatadiki, kristall qumini ftorid usulida tozalash jarayonida va rentgen amorf kremnezyom olinishi amorf holatdagagi kremnezyomda primesli (qo'shimcha) elementlar mavjud emasligi to'g'risida xulosa qilish imkoniyatini beradi.


Ftorid metallurgiyasi usulida o'zgarmas termodinamik xossalai va bir tekis o'lchamli zarrachali o'ta sof amorf kremnezyom – kimyoviy soqlik darajasi 99, 99,8% SiO_2 olish mumkin. Olingan amorf kremnezyom zarrachalarining o'lchamlari 20 nm.

Rentgenoamorf kremnezyom zarrachalari o'lchamlari 100 nm dan 500 nm gacha bo'lgan mayda (kichik) konglomeratlardan g'ovak strukturali konglomeratlar hosil qiladi (8.2-rasm).

O'ta qattiq material deb mikroqattiqligi tabiiy korund (Al_2O_3) nikidan yuqori bo'lgan materialga aytildi (Vickers bo'yicha qattiqligi 20 GPa dan ortiq). Qattiqligi metallarnikidan yuqori (ya'ni 5-20GPa) materiallarni o'ta yuqori qattiq material deb qabul qilish mumkin.

Tabiiy materiallardan faqat olmos o'ta qattiqlar qatoriga kiradi.

2000 yilda Ukrainada to'g'ridan – to'g'ri o'zgarish orqali BN-grafit sifat qattiq eritmagan 25 GPa bosim va 2100K haroratda KANB deb belgilangan yangi o'ta qattiq faza borning kub karbonitridi (BC_2N) olindi. KANB qattiqligi va elastiklik moduli olmos borning kub nitridlarining orasida, bu esa uni olmosdan keyin qattiqligi bo'yicha ikkinchi material qilib qo'llashda keng imkoniyatlar yaratadi.



2μm Zona Mag = 250 KX EHT • 2000 kV Detector • SEI

8.2-rasm. Ftorid usulida olingan amorf kremnezymoz zarrachalarining morfologik xarakteri va o'chamlari

8.2. O'ta qattiq asbobsoz materiallar. Bor nitridi. Olmos

*O'ta qattiq sintetik polikristall asbobsoz materiallar
Olmos va borning kub nitridi asosida asbobsoz materiallarni olish
xususiyatlari*

Asbobsozlik sanoati olmos va borning kub nitridi (KNB) asosida sintetik o'ta qattiq materiallar ishlab chiqaradi.

Tabiiy olmos – Yerdagi eng qattiq material bo'lib ko'p yillardan beri kesuvchi asbob sifatida ishlatiladi.

Asbobsozlarni nuqtayi nazaridan monokristall tabiiy olmosni boshqa polikristall tuzilishga ega asbobsoz materiallardan prinsipial farqi deyarli ideal o'tkir va to'g'ri chiziqli kesuvchi yuzani olish imkoniyati. Shu sababli XX asrning oxirida elektronika, presinzion mashinasozlik va priborsozlikni rivojlanishi tabiiy olmosdan tayyorlangan keskichlarni qo'llanilishi jadallahshdi. O'ta qattiq materiallarga bo'lgan talab 1953-1957 yillarda Shvetsiyada (ASEA firmasi) va AQSHda («Djeneral elektrik») va 1959 yilda, sobiq SSSRda (Yuqori

bosimlar fizikasi instituti) katalitik (катализитического) sintez usulida grafit (S) va bor nitridi (BN) gekogonal fazalaridan katta statik bosim ostida olmosni va bor nitridi kub fazalarining mayda zarrachalari olingan.

Olmos sintezi nazariyasi birinchi bor O.I Lyapunskiy (1939.y.) tomonidan keltirilgan, olmosni qayta grafitga o'tish tajribalari asosida grafitni olmosga o'tish shartlarini shakllantirdi va yuqori bosimlarda grafit-olmos muvozanatining egri chizig'ini hisobladi. Yuqori bosimlarda ($> 4,0$ GPa) va (> 1400 K) haroratda uglerodni metall (Ni, Fe, Co va h.k.) erituvchilar muhitida grafitdan olmosning sintezi bajariladi. Bor kub nitridi (KNB) tabiatda o'xhashi yo'q o'ta qattiq material.

Birinchi marta bor kub nitridi 1956 yilda («Djeneral elektrik» firmasida) yuqori bosimlarda ($> 4,0$ GPa) va (> 1473 K) haroratda ishqor va ishqoriy yer metallar (qalay, qo'rg'oshin, surma va boshqalar) muhitida geksogonal bor kub nitrididan sintez qilingan. «Djeneral elektrik» firmasi ishlab chiqaradigan bor kub nitridi Borazon deb ataladi.


Sun'iy yo'l bilan olingan olmos va bor kub nitridi monokristallari juda kichik o'lchamga ega shuning uchun ularni asbobsoz material sifatida ishlatish uchun polikristallarga birlashtiriladi.

Olmos va bor kub nitridi asosidagi kompozitsion materiallar 1960-70 yillarda paydo bo'ldi. Bu materiallarni o'ziga xos xususiyati olmos yoki KNB donachalarini birikkan joyida qattiq-bikr karkasni (qovurg'alarni) mavjudligi.

Olmos va KNB kukuni pishirish 5-9 GPa bosim va 1500-2000K haroratda jarayonni aktivlashtiruvchi qo'shimchalar, olmos kukuni uchun – kobalt yoki kremluy, KNB kukuni uchun - alyuminiy ishtirokida bajariladi (8.3-rasm).

Karkasni tashkil etuvchi donalar bu noyob fizik-mexanik va issiqlik teplofizik xossalarga ega olmos monokristallari. Qanchalik polikristalda bu xossalalar namoyon bo'lishi ularning o'zaro bog'lanishiga bog'liq.

Olmos-olmos
Birikish joyi



8.3-rasm. Olmosli polikristall kompozitsion material strukturasi

Polikristallar strukturasini shakllantirish jarayonini boshqarish qo'llanish sohasiga qarab zarur xossalar – qattqlikni issiqlik o'tqazuvchanligi, mustahkamligi, elektr qarshiligi kombinatsiyasini olish imkoniyatini beradi. Polikristall o'ta qattiq materiallar (PSTM) o'zining fizik-mexanik xossalari bilan monokristallarga yaqin, ayrim hollarda ularnidan yuqori.

Masalan, aksariyat olmos polikristallar izotroplik xossasiga ega (turli yo'nalishda xossalari bir xil) va yuqori yeyilishga chidamligi, yorilishga bardoshligi bilan monokristallardan farqlanadi.

PSTM larni klassifikatsiyasi ularni olish usuli va strukturasini o'ziga xos xususiyatlariiga asoslangan. PSTM larni olish asosiy usullari 8.1-jadvalda keltirilgan, ushbu materiallarni fizik-mexanik xossalari 8.2., 8.3-jadvallarda berilgan.

Erituvchi muhitida grafitni olmosga o'tishi natijasida ASPK-karbonado va ASB-ballas markali sun'iy olmoslar olinadi, ularni strukturasi aynan shunday nomli tabiiy olmoslarnikidek. Grafitsifat bor kub nitridini erituvchi muhitida o'tishi natijasida Kompozit 01 (Elbor - R) va Kompozit 02 (Belbol), vyursit bor nitridini o'tishi natijasida Kompozit 10 (Geksanit - R) hosil bo'ladi. Olmos kukunlarini pishirish (qizdirib biriktirish) bilan AKTM, SKM, SVBN

va karbonit markalar olinadi, KBN kukunini qizdirib biriktirish bilan kiborit va naborit olinadi.

PSTMlarni olish usullari

8.1-jadval

| Guruh | Olish usuli | Misol |
|-------|--|---|
| 1 | Erituvchi muhitida grafitni olmosga o'tish | ASPK (IFVD, Rossiya), ASB (IFVD, Rossiya) |
| | Grafitsifat bor kub nitridini erituvchi muhitida KNB ga o'tish | Kompozit 01 (NPO «Illich», Rossiya), Kompozit 02 (IFTTiP, Belarus) |
| | vyursit bor nitridini kub nitridiga o'tish | Kompozit 10 (IPM, Ukraina) |
| 2 | Olmos kukunlarini aktivlashtiruvchi qo'shimchalar bilan qizdirib biriktirish. KNB kukunlarini aktivlashtiruvchi qo'shimchalar bilan qizdirib biriktirish. | AKTM (ISM, Ukraina), SKM, SVBN, karbonit, Kiborit (ISM, Ukraina), naborit |
| | Olmos ishchi qatlamlili qattiq qo'tishmali asosda ikki qatlamlili plastinalarni qizdirib biriktirish. | ATP (ISM, Ukraina) |
| 3 | KNB ishchi qatlamlili qattiq qo'tishmali asosda ikki qatlamlili plastinalarni qizdirib biriktirish. | KTP (ISM, Ukraina) |

PKA asosidagi materiallarning fizik-mexanik xossalari

8.2-jadval

| Material markasi | Knuppu bo'yicha qat-tiqlik, GPa | Zichlik, g/sm ³ | Mustahkamlik, GPa | | PKA xossalari | | | |
|------------------|---------------------------------|----------------------------|-------------------|-------------------|--------------------|---|---------------------------------|-------------------------------|
| | | | sqilishda | buralishda | YUning moduli, GPa | Darzga bardoshlik koefitsiyenti K _{ts} , MPa·m ¹⁰ | Issiq o'tkazuvchanlik, Vt/(m·K) | Havodagi issiq bardoshligi, K |
| ASB | 50-90 | 3,5-3,9 | 0,4-0,6 | 0,78 | 800-850 | | 290-300 | 873-993 0,9-1,2 |
| ASPK | 80-100 | 3,5-4,0 | 0,4-0,8 | 0,5-1,0 | 900 | | - | 1073-1173 0,9-1,2 |
| SKM | 60-70 | - | 0,6-0,8 | - | 850 | | 150-250 | 973-1073 |
| ATP | 50 | 3,74-3,77 | 0,3-0,4 | 0,80 - 0,85 | | 10-13 | - | 950-1000 |
| AKTM | 52 | 3,46 | 0,49 | - | 970 | 8 | 260 | 1473 |
| SVBN | 70-100 | 3,30-3,45 | 8,0-10,0 | - | | | - | 1073-1223 |
| Karbonit | 40-45 | 3,2-3,4 | 4,5-6,0 | - | | | - | 1473 |
| Almet | 94-96 HRA | - | 5,0-10,0 | - | 500 - 600 | | - | 973 |
| SV | 65-100 | - | 5,0-10,0 | - | 850 | | - | 1573-1673 |

Polikristall sintetik olmosni (PKA) asosiy xossalari va qo'llanish sohasi

Tabiiy olmos monokristallari kritik yuklamalar ta'sirida mayda fragmentlarga (zarrachalarga) bo'linib ketali. PKA'lar tabiiy olmosga nisbatan qattiqligi kam bo'lsa ham polikristall strukturaga ega bo'l-gani sababli zarbiy yuklamalarga yaxshiroq qarshilik ko'rsatadi va cho'zish, hamda ko'ndalang siljishda mustahkamligi yuqori. Shu bilan birga polikristall olmoslarni zarbiy qovushqoqligi donachalari o'lchamiga bog'liq va ularni o'lchami o'sishi bilan pasayadi.

8.3-jadval

KNB PKA asosidagi materiallarni fizik-mexanik xossalari

| KNB markasi | KNB xossalari | | | | | | | | | |
|--------------|-----------------------------------|--------------|----------------------------|-----------|----------------------|-----------|------------------|---|------------------------------------|-------------------------------|
| | Knuppu bo'yicha qattiqlik, GPa | | Zichlik, g/sm ³ | | Mustahkamlik, GPa | | Yung moduli, GPa | Darzga bardoshlik koeffitsiyenti K _{ts} , MPa·m ¹⁰ | Issiq o'tkazuvchanlik, Vt/(m·K) | Havodagi issiq bardoshligi, K |
| | sizilishda | cho'zilishda | buralishda | | | | | | | |
| Kompo-zit 01 | 32-38 | 3,31-3,45 | 2,25-3,15 | 0,43-0,49 | 0,70-0,98 | 3,7-4,2 | 680-720 | 60-80 | 1343-1473 | 5,20 |
| Kompo-zit 02 | 38 | 3,42-3,50 | 4,00-6,50 | - | 0,68-0,70 | 10,8 | 720 | 85 | 1273-1423 | 0,2-5 |
| Kompo-zit 10 | 30-38 | 3,34-3,50 | 2,00-4,00 | 0,26-0,39 | 1,20-1,50 | 7,1 | 650-780 | 30-60 | 1273-1373 | 0,1-0,3 |
| Kiborit | 32-36 | 3,20-3,34 | 2,60-3,20 | 0,32-0,37 | 0,55-0,65 | 13,5 | 850-910 | 100 | 1573 | 3-14 |
| KTP | 25-33 | - | - | - | - | 14,5-16,1 | - | 80 | - | - |

Asbobsoz PKA'lni monokristall olmoslarga nisbatan kesuvchi asboblarning ishchi qatlqidagi kristallarni ixtiyoriy joylashishida, bu

esa turli yo‘nalishlarda qattiqlikni va yeyilishga turg‘unlikni bir tekisligini ta’minlaydi.

Ko‘p hollarda tajriba shuni ko‘rsatadi-ki, sintetik olmosli keskichlarni yeyilishga chidamligi tabiiy olmoslarnikidan yuqori, chunki ularni strukturasi har xildir. Tabiiy olmoslarda hosil bo‘lgan darzlar o‘sib deyarli katta o‘lchamli bo‘lishi mumkin. Sintetik polikristall olmoslarda paydo bo‘lgan darzlarni o‘sishi kristallar chegarasida to‘xtaydi, bu esa ularni 1,5-2,5 barobar yuqori yeyilishga turg‘unligini ta’minlaydi.

Polikristall olmoslar yuqori issiqbardoshligi bilan farqlanadi, AKTM va SV materiallar 1473K va undan yuqori haroratlarda ham o‘z kesuvchi va mustahkamlik xossalariни yo‘qotmaydi shuning uchun ularni qattiq qotishmali plastinkalarga kavsharlash mumkin.

PKAlar va metallararo ishqalanish koeffitsiyenti tabiiy olmoslarga qaraganda yuqoriroq, sababi – polikristall yuzasida kristallararo zarrachalarni chiqib ketishi va metall fazaning zarrachalari mavjudligi (sintezdan so‘ng) natijasida g‘ovaklar hosil bo‘lishidir. Ammo PKAlarni aksariyat metallararo ishqalanish koeffitsiyenti 0,2 dan oshmaydi, bu esa tashqi kontakti ko‘rsatkichidir.

Bu olmosni ko‘pgina metallar bilan kontakt jarayonlarini xususiyatidir. Ammo, olmos nikel va tarkibida temir bo‘lgan materiallar bilan kimyoviy turdoshligi bor, shuning uchun bunday materiallarga ishlov berish jarayonida olmosli asbob kontakt yuzasiga material yopishishi yuz beradi.

Olmos tashkil topgan uglerod qizdirganda materiallar bilan aktiv o‘zaro ta’sir etadi, bu esa olmosli asbobni keskin yeyilishiga olib keladi va uni qo‘llash sohasini toraytiradi.

Tajribalar ko‘rsatadiki, olmosli asboblarni rangli metallar, ularni qotishmalari va turli polimerli kompozitsion materiallarga toza va sayqal berish operatsiyalarida qo‘llash yuqori samaradorlik beradi. 8.4-jadvalda turli materiallarga olmosli asboblarda ishlov berish rejimlari keltirilgan.

PKAdan yasalgan kesuvchi plastinkalar polimerli kompozitsion materiallarga ishlov berishda keng qo‘llaniladi. Mexanik ravishda mahkamlangan PKA plastinkalarni qattiq qotishmali asboblarni qo‘llashga qaraganda turg‘unlikni 15-20 barobar oshiradi.

Yog‘och qipig‘li plitalar, tarkibida ko‘p yelim bo‘lgan o‘rtacha zichlikli plitalar, melamin smolasi asosli qoplamlalar, qog‘oz qatlamlari dekorativ plastik, hamda abraziv ta’siri bo‘lgan boshqa qiyin ishlov beriladigan materiallar uchun PKAlarni qo‘llash samaralidir.

Olmosli keskichlar uchun tavsiya etilgan kesish rejimlari

8.4-jadval

| Ishlov beriladigan material | V, m/s | S, mm/ob | t, mm |
|-------------------------------------|-----------|------------|-----------|
| Quyma alyuminiy qotishmalari | 10,0-11,5 | 0,010-0,04 | 0,01-0,20 |
| Alyuminiy-magniy qotishmalari | 6,6-8,3 | 0,010-0,05 | shunday |
| Issiqbardosh alyuminiy qotishmalari | 4,1-6,6 | 0,020-0,04 | 0,05-0,10 |
| Duralyumin | 8,3-11,5 | 0,021-0,04 | 0,03-0,15 |
| Mis | 6,0-8,3 | 0,010-0,04 | 0,01-0,40 |
| Qalayli bronza | 4,1-6,6 | 0,040-0,07 | 0,08-0,20 |
| Alyuminiy- temirli bronza | 11,5 | 0,020-0,04 | 0,03-0,06 |
| Qo‘rg‘oshinli bronza | 10,0-11,5 | 0,025-0,05 | 0,02-0,05 |
| Latun | 8,3 | 0,020-0,06 | 0,03-0,06 |
| Babbit | 6,6-8,3 | 0,010-0,05 | 0,05-0,20 |
| Monel | 2,5-5,0 | 0,010-0,02 | 0,03-0,05 |
| Titan qotishmalari | 1,6-5,0 | 0,020-0,05 | 0,03-0,06 |
| Plastmassalar | 1,6-3,3 | To je | 0,05-0,15 |
| Steklotekstolit | 10,0-11,5 | | 0,03-0,05 |
| Rezina | 5,0-6,6 | 0,010-0,04 | 0,02-0,06 |

Oddiy asboblar bilan bunday materiallarga ishlov berish samarali emas. Hozirgi kunda yog‘ochlarga va plastmassalarga ishlov berish sanoatida kesuvchi asboblar polikristall olmoslar bilan jihozlangan, bunday asboblarni turg‘unligi qattiq qotishmali asboblarnikidan 200-300 barobar yuqoridir.

Olmosli asboblarni geometrik parametrlari tabiiy olmos kristallarining xossalari bilan aniqlanadi. Olmos kristallari yuqori mo‘rtlikka ega bo‘lgani uchun asbobni kesuvchi yuzalari ham yuqori mustahkamlikka ega bo‘lishi kerak. Kesuvchi yuzasini puxtalash uchun olmos asbobni o‘tkirlash burchagi - β imkon qadar maksimal bo‘lishi kerak.

Olmosli asboblarni oldingi burchagi - γ 0 - 15°, orqa burchagi - α

2- 6°, cho‘qqi radiusi - r_b 0,2 - 1,0 mm ishlov berilayotgan materialga qarab tanlanadi.

Ishlov berilayotgan yuzaning R_a 0,1 g‘adir-budurligini ta’minlash uchun kesuvchi yuzada singan joyi bo‘lishi kerak emas, asbobni oldi va orqa yuzalarining g‘adir-budurligi R_a 0,01-0,015 bo‘lishi kerak. Kesuvchi yuzaning silliqlanish (округление) radiusi 0,1 mkm dan kam bo‘lishi kerak.

PSTMli asboblarni tebranish va zarbiy yuklamalarga sezgirligi bunday asboblар qо‘llaniladigan dastgohlarga (stanok) aniqlik, bikrlik va tebranishga turg‘unlik kabi talablar yuqori bo‘ladi.

Bor nitridi BN zich modifikatsiyalari asosidagi PSTMlarni asosiy xossalaringin tasnifi va qo‘llanish sohasi

Bor nitridi zich modifikatsiyalari asosidagi PSTM qattiqligi bo‘yicha olmosdan ozgina farqlanadi, ammo yuqori issiqbardoshlik (1573Kgacha), yuqori haroratlarni davriy ta’siriga turg‘unligi va eng muhimmi, asosan ishlov beriladigan materiallarni (po‘lat, cho‘yan va boshqa materiallar) tashkil etuvchisi temir bilan kam o‘zaro ta’siri katta ahamiyatga egadir.

BN asboblarni ishlov berishdagi samaradorligini oshirishda asosiy rezerv – kesish tezligi (8.5-jadval), qattiq qotishmali asboblarning kesish tezligi 5 va undan ko‘p martta oshadi.

Materiallarni turli asboblarda kesish tezligi

8.5-jadval

| Ishlov beriladigan material | Kesish tezligi, m/s asbob materiali uchun | |
|--|--|------------------------|
| | PSTM | Qattiq qotishma |
| Po‘lat HB 150-250 | 1,66-3,33 | 2,10-5,00 |
| HRC, 45-55 | 1,33-2,66 | 0,6-1,15 |
| HRC, 60-70 | 1,00-2,00 | 0,15-0,50 |
| Kul rang cho‘yan HB 120-240 | 6,66-16,66 | 1,66-3,33 |
| Yuqori mustahkam cho‘yan HB 160-330 | 5,00-13,33 | 0,83-1,66 |
| Oqartirilgan va toblangan cho‘yan HRC, 40-60 | 0,83-2,50 | 0,15-0,31 |

Jadvaldan ko‘rinadiki, BN asosidagi asboblar yuqori mustahkam cho‘yanlar, po‘latlar va qotishmalarga ishlov berishda eng yuqori samaradorlikni ta‘minlaydi.

BN asosidagi PSTMli asboblarning unumdorligini oshirish yo‘llaridan biri moylash-sovutish texnologik moddalarni qo‘llashdir. BN asosidagi asboblar uchun 1,5-1,7m/s kesish tezligigacha suyuq moddalarni purkab ishlatish yaxshi natija beradi.

BN polikristallari bilan jihozlangan asboblarni suyultirib qoplangan detallarga ishlov berish unumdorlikni oshirish yo‘llaridan yana biridir.

STMdan tayyorlangan kesuvchi asboblarni qo‘llash istiqbollari

Yaqin yillarda STMdan tayyorlangan asboblarni jahon bozori keskin yuksalishini kutadi. Birinchi navbatda bu texnikaning turli sohalarida qiyin ishlov beriladigan materiallarga qo‘llashda namoyon bo‘ladi, ayniqsa avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishda, tez moslavshuvchi mexanik ishlov texnologiyalarini almashishda.

CHPULi (sonli programma bilan boshqariladigan) dastgohlarda optimal kesish rejimlarida PSTMlarni qo‘llash qattiq qotishmali asboblarga nisbatan ishlov berish unumdorligini 1,5-3 barobar oshiradi, ishlov berilgan yuzani sifatini yaxshilaydi va so‘nggi abraziv ishlov berishda ehtiyoj qolmaydi.

8.3. Yuqori haroratli qotishmalar. Nikel va uning asosidagi qotishmalar

Olovbardosh po‘latlar. Yuklanmagan yoki kam yuklangan holatda $> 550^{\circ}\text{C}$ haroratda ishlaydigan po‘latlar olovbardosh po‘latlar deyiladi. Ularni olovbardoshligi karbid hosil qiluvchi elementlar – xrom, vanadiy, molibden, niobiy bilan kompleks legirlash hisobiga erishiladi. Bu elementlar α - temir kristall panjarasida atomlararo bog‘lanishni mustahkamlaydi va yuqori termik barqarorlikka ega bo‘lgan dispers karbid fazalarini hosil qilib po‘latlarni $600-700^{\circ}\text{C}$ da plastik deformatsiyaga qarshiligini oshiradi. Olovbardosh po‘latlar aviatsiya dvigatellarini yuklangan detallarini, xususan $500-600^{\circ}\text{C}$ da tashqi muhitni korroziya – errozion ta’sirida, yuqori mexanik yuklamalar sharoitida ishlaydigan kompressorlar uchun keng qo‘llaniladi.

Shuning uchun tayyorlanadigan po'latlar yetarli darajada olovbardoshlik, plastiklik va qovushqoqlik, korroziya bardoshlik va yaxshi ishlanuvchanlikka ega bo'lishi kerak. Kompressor vallari, disklar, lopatkalar, boltlar, shpilkalarni tayyorlash uchun 13X11H2B2MФА, 14X12H2M2BФАВ, 14X16H2M2K5ФАВ olovbardosh po'latlar qo'llaniladi.

550° C yuqori haroratlarda gaz korroziyasiga qarshi bardosh beradigan po'latlar kuyishga turg'un deyiladi. Bu xossasini oshirish uchun kislородга turdosh bo'lib po'lat yuzasida asos bilan yaxshi bog'langan zich Cr₂O₃, Al₂O₃, SiO₃ kabi oksid parda hosil qiluvchi xrom, kremniy va alyuminiy bilan legirlanganadi. Hosil bo'lgan oksid pardalari orqali diffuziya (ayniqsa kislородни) qiyin bo'lgani sababli yuzanining oksidlanish jarayoni deyarli to'xtaydi.

Aviatsiya dvigatellarida asosiy va forsaj yonish kameralarini tayyorlashda XH60BT (ВЖ98), XH50BMTЮB (ЕП648), XH68BMTЮK (ЕП693), XH56BMTЮ (ЕП199) olovbardosh va yaxshi ishlov beriladigan po'latlar qo'llaniladi (8.6-jadval).

Cr va Si *silxromollar*; Cr va Al – *xromallar*; Cr-Al-Si bilan legirlangan po'latlar – *silxromallar* deb ataladi.

Alyuminiy va kremniyni yuqori miqdori po'latlarni mo'rtligini oshiradi, shuning uchun ular oz miqdorda qo'shiladi. 40X9S2 va 10X13C10 po'latlarni olovbardoshligi 850°C haroratgacha bo'lib ulardan ichki yonish dvigatellarining klapanlari, pechkali isitkichlarni detallari tayyorlanadi.

08X17T ferritli po'latni olovbardoshligi 900°C gacha bo'lib issiqlik almashtirish qurilmalarida qo'llaniladi.

Qotishmalarning kimyoviy tarkibi, %

8.6-jadval

| Qotishma markasi | Ni | Cr | W | Ti | Al | Mo | Nb | Co | γ - faza miqdori, % |
|-------------------------|-----------|-----------|----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|----------------------------|
| XH60BT | asosi | 25 | 14,5 | 0,5 | 0,5 | - | - | - | 0 |
| XH50BMT YUB | asosi | 23,5 | 4,8 | 0,8 | 0,8 | 2,8 | 0,8 | - | 10 |
| XH68BMT YUK | asosi | 18,5 | 6 | 1,3 | 2,0 | 4,0 | - | 6,5 | 12 |

12X18H9T va 36X18H25C2 austenitli po'latlarni olovbardoshligi 800 va 1100°C mos ravishda teng va ular yuqori haroratlarda yetarli darajada mustahkamlikka ega.

